

O'ZBEKISTON REPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

F.E.TOSHBOYEV

USTRUSHONANING QADIMGI DAVR DAVLATCHILIK TARIXI

*(5110600 – Tarix o`qitish metodikasi bakalavriat ta`lim yo`nalishida tahsil
olayotgan talabalar uchun o`quv qo`llanma)*

TOSHKENT

«»

2019

O`UK:

BBK:

Ustrushonaning qadimgi davr davlatchilik tarixi. Toshboyev F.E. – O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi T.: «», 2019. – 138 bet. ISBN:

Mazkur o`quv qo'llanmada O`rta Osiyo hududida davlatchilik an'analari shakllanishida har bir tarixiy madaniy vohaning o`ziga xos o'rni bo'lganligi hisobga olinib, bunda Ustrushonaga xos xususiyatlar va uning o`zbek xalqi davlatchiligi shakllanishiga ko'rsatgan ta'siri haqida fikr yuritiladi.

Ushbu o`quv qo'llanma 5110600-Tarix o`qitish metodikasi bakalavriat ta`lim yo`nalishining “O`zbek davlatchiligi tarixi” fanidan o`quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

В данном учебном пособии учитывается особенности формировании традиции каждого историко-культурного оазиса и государственности Центральной Азии в примере Уструшаны, также влияние на формирование государственности узбекского народа.

Это учебное пособие рекомендовано для методики преподавание истории-5110600 бакалавриата, по предмету «История Узбекской государственности».

This tutorial takes into account the characteristics of each historical and cultural oasis and formation of tradition, the statehood of Central Asia in the example of Ustrushana, and also the influence on the formation of the political system of the Uzbek people.

This study guide is recommended for teaching methods of history, 5110600 for bachelor's degree, in the subject "History of Uzbek Statehood".

KIRISH

Mamlakatimiz jahonda o‘z o‘rni va nufuziga ega bo‘lib borayotgan bir paytda, o‘zbek davlatchiligining paydo bo‘lishi va rivojlanish bochqichlarini o‘rganish muhim masaladir. Davlatchiligidan tarixiga oid turli tillarda bitilgan, qadimgi davrga oid tarixiy asarlar, ularda qayd etilgan voqealar, yilnomalar, keltirilgan xujjalalar va olib borilgan keng qamrovli arxeologik tadqiqotlar o‘zbek davlatchiligi qadimiy tarix va uzoq taraqqiyot yo‘liga ega ekanligini ilmiy asoslaydi.

O‘rta Osiyoning qulay geografik o‘rni, tabiat, unumdar yerlari ushbu hududda ham davlatchilikning erta paydo bo‘lishiga sharoit yaratgan. Shunga bog‘liq holda, O‘zbekiston hududida davlatchilik tizimi bo‘lganligi hech qachon inkor etilmagan. Mazkur davlatchilik tizimlari to‘g’ridan-to‘g’ri o‘zbek jamiyat bilan bog‘liq tarzda va shu yurtda uzuluksiz kechgan bir jarayon sifatida hali o‘rganilishi lozim bo‘lgan jihatlari ko‘p. O‘zbek xalqining kelib chiqishi uning davlatchiligi bilan bevosita bog‘liq va har ikki jarayonning yuz berishi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda yuz bergen.

O‘zbekiston hududidagi ilk davlat uyushmalarining shakllanishi, o‘zaro aloqalari, ularning tarixiy geografik hududlari va chegaralari bilan bog‘liq masalalar o‘zbek davlatchiligi tarixi fanining muhim masalalaridan biridir. O‘rta Osiyo hududida davlatchilik an‘analari shakllanishida har bir tarixiy madaniy vohaning o‘ziga xos o‘rni bo‘lgan. Shunday tarixiy madaniy vohalardan biri asosan, o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan janubiy mintaqalar va ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanadigan shimol va shimoli-sharqiy dasht hududlarni bir-biriga bog‘laydigan “kontakt makon” da joylashgan Ustrushona hisoblanadi.

Ustrushonaning geografik qulayliklari tufayli uning ilk o‘zlashtirilish tarixi uzoq o‘tmish bilan bog‘liq. Dastlabki urug‘ jamoalar chorvador hamda o‘troq dehqonlar uchun qulay tabiiy shart-sharoit va unumdar yerlar, ayniqsa oqar suv manbalari mavjudligi vohada inson faoliyati bilan bog‘liq ijtimoiy jarayonlarning o‘zaro moddiy va boshqa madaniy turlarning baravj

rivojlanishiga asosiy sabab bo‘lgan. Shu bilan birga Ustrushona Sug‘d va Chochga o‘tadigan savdo yo‘llarida muhim o‘rin tutib, cho‘l mintaqasi va Sirdaryo bo‘ylarini Zarafshon vohasi – Sug‘d va janub – Toxariston bilan bog‘lagan. Bundan tashqari butun bir davr mobaynida turli xil etnik guruhlarning qorishuv jarayoni kechgan va bu kabi holatlar o‘lka xalqlari ijtimoiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatib, davlatchilik an’analaring vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

Bronza davridan boshlab Yevroosiyo dashtlaridan ko‘plab ko‘chmanchi chorvador aholi (Andronovo jamoalari)ning kirib kelishi va janubiy mintaqalarga o‘tib borishi Ustrushonadagi madaniy jarayonlarga katta ta’sir ko‘rsatgan. Bu holat antik va ilk o‘rta asrlarda ham faol davom etgan. Antik davrga kelib ijtimoiy siyosiy va ekologik vaziyat bilan bog‘liq ulkan migratsiya jarayonlari ko‘plab ko‘chmanchi chorvador aholining voha va uning atroflariga kirib kelishi va o‘troqlashishini yanada tezlashtirgan. Bu paytda nafaqat Sangzor yoki Zominsuv kabi vohalar, balki, dehqonchilik uchun sharoit mavjud bo‘lgan mikrovohalarda ham aholining yanada gavjumlashuvi, yangi yerlarning jadal o‘zlashtirilishi va bu yerlarda mustahkamlangan jamoa manzilgohlari – qishloq makonlari bilan birgalikda, chorvadorlarga oid mozorqo‘rg‘onlar ham ko‘payib borgan. Bu vohada ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning jadal shakllanishiga zamin hozirlagan. Antik davrning oxiri va ilk o‘rta asrlarga kelib esa, Ustrushonada mustaqil davlatchilik an’analari shakllanadi.

O‘rta Osiyoning ilk davlatlari shakllangan Baqtriya, So‘g‘d va Xorazm vohalari madaniyati shakllanishi tarixi, Farg‘ona, Choch va Ustrushona tarixidan bir qancha xususiyatlari bilan farq qiladi. Antik davrga kelib Baqtriya, So‘g‘d va Xorazmda ellin madaniyatining ta’siri kuchli bo‘lgan. Qadimgi Farg‘ona va Choch tarixi kabi Ustrushona tarixi ham shimoli-sharq – turk olami bilan bog‘langan va tarixning barcha davrlarida turkiy xalqlar ta’siri kuchli sezilib turgan. Shuning uchun bu mintaqaga xalqlari madaniyati va davlatchiligi shakllanishida farqlar kuzatiladi. O‘zbek davlatchiligi taraqqiyoti jarayonida

hukm surgan bu siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni chuqur va izchil tadqiq qilish muhim hisoblanadi.

Sobiq ittifoq davrida, yurtimizda mavjud bo‘lgan Qadimgi Sharqqa xos xususiyatlar tan olinmas natijada, O‘rta Osiyo hududida ilk davlatlarning qachon paydo bo‘lishi masalasida olimlar o‘rtasida keskin bahslar kechgan. Bir guruh olimlar bizning hududimizdagi ilk davlatlar miloddan avvalgi I ming yiilik boshlarida, Qadimgi Sharq davlatlari ta’sirida paydo bo‘lgan degan fikrni bildirishgan¹. Ikkinci guruh olimlar O‘rta Osiyo hududida ilk davlatlar ahamoniylar bosqinidan so‘ng paydo bo‘lgan deb hisoblashadi². Ba’zi olimlar esa hatto O‘rta Osiyo hududida ilk davlatlar miloddan avvalgi II eramizning I asrlarida, Qang‘ davrida paydo bo‘lgan degan fikrni bildirishgan³. Olimlar bu masalani yechishda tashqi omillarga berilib, O‘rta Osiyo halqlarining asrlar davomida qo‘lga kiritgan an’ana va tajribalariga yetarli e’tibor berishmaydi. Sobiq sho‘rolar davri tarix fanida davlat sinfiy jamiyatining mahsuli deb qaralganligi bois ular hisobga olinmagan.

Sobiq ittifoq davrida boshlangan keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlardan S.P.Tolstov, Ya.G‘.G‘ulomovlarning Xorazmda, A.Yu.Yakubovskiy va V.A.Shishkinlarning Zarafshon vohasida, M.E.Massonning “Eski Termizda”, A.N.Bernshtamning Ettisuvda, B.A.Latymin Farg‘ona vodiysida ish olib bordilar. XX asr ikkinchi yarmidan ilmiy plenumlarda ustivor masalalar qatorida O‘rta Osiyo xalqlari davlatchiligi bilan bog‘liq masalalar ham kun tartibiga chiqa boshladi. Garchi, bu muammo sobiq ittifoq mafkurasiga mos kelmasada, A.YU. Yakubovskiy, C.P.Tolstov, K.V.Trever, L.V.Oshanin, YA.G‘.G‘ulomov, A.A. Asqarovlar o‘zbek davlatchiligi va uning tarixiy ildizlari va o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatları masalasida asosiy tadqiqotchilar bo‘lishdilar.

¹ Массов В.М. К вопросу об общественном строё древней Средней Азии. – В кн.: История, археология и этнография Средней Азии. – М., 1968.

² Хлопин И.Н. Юго-Западная Туркмения в эпоху поздней бронзы. – Л., 1983.

³ Зеймаль Е.В. К периодизации древней истории Средней Азии. В кн.: Новые памятники письменности и искусства. – М., 1986., Дьяконов И.М. Восточный Иран до Кира (К возможности новых пастановок вопросов). – История иранского государства и культуры. – М., 1971.

Mustaqillik yillarida sobiq ittifoq davridagi arxeologik materiallarga qayta murojaat qilinishi va olib borilgan keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlar, O‘rta Osiyo hududidagi ilk davlatchilik ildizlari voha davlatchiligi, shahar – davlatlar ko‘rinishida bo‘lib, ular miloddan avvalgi II- ming yillikning ikkinchi yarmida paydo bo‘lganligi to‘g‘risida aniq dalillarga tayangan ilmiy xulosalar ilgari surildi va uni dunyo ilmiy jamoatchiligi tan oldi⁴.

Mavzuning nazariy uslubiy asoslarini O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlarida ko‘tarilgan davlatchilikka oid fikrlari⁵, arxeolog-tarixchi va boshqa fan vakillarining qarashlari tashkil etdi. Ustrushona chorvadorlarining qadimgi davr siyosiy hayotini mustaqillik yillarida shakllangan tarixni dialektik madaniy tushunish va uning provard maqsadi – sivilizatsion yondashish doirasida o‘rganishga harakat qilinadi.

Shu paytgacha yurtimizda ilk davlatlar tashkil topishi va taraqiyoti asosan, o‘troq vohalar bilan bog‘lanib, unga dasht chorvador qabilalarning ko‘rsatgan ta’siri, ular tomonidan tuzilgan harbiy qabila ittifoqlari va bu siyosiy birlashmalarining o‘zbek davlatchiligidagi o‘rniga kam e’tibor qaratilgan. Qadimgi manbalarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, tarixning barcha davrlarida ko‘chmanchilar tomonidan tashkil etilgan siyosiy birlashmalar va ularning o‘ziga xos boshqaruva tartiblariga duch kelamiz. Ko‘chmanchilar tomonidan tuzilgan ilk davlatchilik ko‘rinishiga ega bo‘lgan harbiy qabila ittifoqlari va ularning o‘troq vohalarga ta’siri, o‘zbek davlatchiligi shakllanishida ko‘chmanchi qabilalarning ham o‘z o‘rni bo‘lgan, degan fikrni aytishga imkon

⁴ Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии.- Самарканд, 1993.; Шайдуллаев Ш. Илк давлатларнинг археологик белгилари. Узбекистон тарихи. 2002й. № 3, 3-10 бетлар. Шайдуллаев Ш., Омонтурдиев Ш. Ўрта Осиё кўчманчи халқларининг сиёсий бирлашмалари. // Марказий Осиё дехқончилик ва дашт цивилизациясининг ўзаро муносабатлари илмий назарий анжуман материаллари –Самарқанд: 2011. – Б. 84-91.

⁵ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўк. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 12., Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 90., Мирзиёев Ш.М. “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг соғлигини асраш-давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутки. / Халқ сўзи. 2017 йил 16 июнь., Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сонли Фармони “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси”. / Халқ сўзи. – 2017. 8 феврал.

bermoqda. Bu kabi siyosiy jarayonlar ayniqsa, Ustrushona hududlarida faol kechgan.

Tariximiz kabi qadim madaniyatimizning yaratilishida ham unga ko'plab etnik guruhlar, el-elatlар o'z ulushini qo'shgan. Bu tabiiy xol, chunki, xech qachon xech qayerda faqat bitta xalq davlatchidlikka asos solmaydi va boy madaniyat yarata olmaydi. Bu jihat madaniyatlar chorrahasida joylashgan Ustrushonaning qadim tarixi uchun ham xos hisoblanadi.

Bugungi global davrda, dunyoda kechayotgan ommaviy madaniyat ko'rinishidagi tahdidlar, xalqlarning milliy qadriyatlari va ma'naviy me'rosiga ham rahna solmoqda. Unga qarshi kurashishning eng samarali usuli qadim tariximizni targ'ib qilish orqali, yoshlarimizda ma'naviy immunitetni shakllantirish, ma'naviy merosimizga nisbatan yuksak hurmat va sodiqlik ruhini shakllantirishdan iboratdir. Bunda xalqimizning haqiqiy tarixi, jumladan uning davlatchilik tarixini o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi. "... Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish", davlatimiz ichki siyosatining asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etmoqda⁶. Shunga bog'liq holda, o'quv qo'llanmada ko'tarilgan masalalar respublikamizda olib borilayotgan o'zbek davlatchiligi bilan bog'liq tarixiy tadqiqotlar, jumladan, har tomonlamma etuk, ma'naviy barkamol avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish orqali talabalar yurtimiz hududida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilib, mazkur jarayonlarning rivojlanish qonuniyatları, sabab va oqibatlarini tushunib etadilar.

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сонли Фармони “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси”. / Халқ сўзи. – 2017. 8 феврал.

I BOB O‘ZBEKISTON HUDUDIDA ILK DAVLAT UYUSHMALARINING TASHKIL TOPISHI

1.1. Mamlakatimiz hududida davlatchilikka o‘tishdagi tarixiy shart sharoitlar va uning Ustrushonaga xos xususiyatiari

Jaxon tarixidagi ilk davlatlar o‘zlashtiruvchi xo‘jalik tuzumidagi qabilalarga nisbatan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o’tgan qabilalarda ancha barvaqt boshlangan. Bunda asosan maxsuldarlikning o’sishi, xunarmandchilik, savdosotiq va maxsulot ayirboshlashning yuzaga kelishi salmoqli o’rin egallagan. Ilk davlatlar dexqonchilik yuzaga kelgan hududlarda – Ikki daryo oralig’i, Misrda paydo bo’ldi va asta-sekin Eron, O’rta Osiyo, Kavkazorti, Xindiston, Xitoy kabi qo’shni hududlarga ham yoyila boshladi.

O‘zbekiston – insoniyat taraqqiyoti o‘choqlaridan biri, jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligi olimlar tomonidan e’tirof etilgan. Dastlabki sivilizatsiyalar, ularning paydo bo‘lishi va taraqqiy etishi, ssivilizatsyaning ilmiy-nazariy tahlili, sivilizatsiyalarga tarixiy-falsafiy yondashuv, umuman Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarining qiyosiy tahlili tarixshunosligiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu yo‘nalishda A.Toynbi, O.Shpengler, K.Yaspers, I.M.Dyakonov, V.Masson, A.Vasilev, M.Barg, M.Albedil, A.Koptev, Yu.Yakoves kabi olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar. So‘nggi yillarda A.Asqarov, R.Sulaymonov, E.Rtveladze, A.Sagdullaev, O’.Mavlonov, T.SHirinov, Sh.Shaydullaev, B.Eshovlarning tarixiy tadqiqotlarida “Turon sivilizatsiyasi”, “O’rta Osiyo sivilizatsiyasi”, “O‘zbekiston sivilizatsiyasi” kabilar qiyosiy tahlillar asosida e’tirof etilgan.

Dunyo tarixidagi turli hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy sharoitlardan kelib chiqib turli davrlarda o‘ziga xos sivilizatsiyalar taraqqiy etganligini kuzatish mumkin. O‘zbekiston hududlarida ham sivilizatsiya jarayonlari o‘ziga xos yo‘nalishda taraqqiy etib borgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishdagi o‘zaro ta’sir

inkor etilmaydi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “tariximiz kabi, qadimgi madaniyatning yaratilishida ham ko‘plab etnik guruhlar, el-elatlar o‘z ulushini qo‘shtigan. Bu tabiiy hol, chunki, hech qachon, hech qaerda faqat bitta millatga mansub madaniyat bo‘lmaydi. Har qanday sivilizatsiya ko‘pdan-ko‘p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta’sirining mahsulidir”⁷. So‘nggi yillarda O‘rta Osiyo va unga qo‘shti hududlarda olib borilgan ko‘plab tarixiy-arxeologik tadqiqotlar bu mintaqaga qadimgi Sharq sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida o‘ziga xos o‘rin tutganligini asoslab beruvchi ko‘plab ma’lumotlar – ashyoviy dalillarni yuzaga chiqardi. Ularning natijasi o‘laroq, yuqorida eslatganimizdek, “O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi”, “Turon sivilizatsiyasi”, “O‘zbekiston sivilizatsiyasi” kabi atamalar ilmiy tadqiqotlar va nashrlarda keng ishlatila boshlandi.

Hozirgi O‘zbekiston hududlarining ulkan Evroosiyo mintaqasi markazida, muhim savdo-madaniy yo’llar kesishgan chorrahasida joylashganligi tarixan belgilangan bo‘lib, bu holat mamlakatimizni kishilik tarixining ilk bosqichlaridayoq Sharq va G‘arb tuyosi o‘zaro muloqotga kirishadigan joy sifatidagi ahamiyatini belgilab berdi. Shuning uchun, ham tarix fanining hozirgi taraqqiyot bosqichida Vatanimiz tarixini jahonssivilizatsiyasining ajralmas muhim tarkibiy qismi sifatida o‘rganish talabalar uchun o‘ta ahamiyatli hisoblanadi.

Arxeologik ma’lumotlarga asosan, mil.avv. II ming yillik o’rtalarida O‘zbekistonda (Surxon vohasi) dexqonchilik madaniyati ta’sirida ilk davlatchilikka o’tila boshlandi. Dastlabki davlatlar alohida makonlar yoki ilk shaharlar hamda ishlov beriladigan yerlar va sug’orish tizimi maydonlari bilan chegaralanganligi bois, kichik xududlarda, axoli zinch joylashgan voxalarda paydo bo’ldi. Bunday voxalar axolisi uchun tashqi harbiy bosqinlardan himoyalanish, makonlar va manzilgoxlar xududini mudofaa qilish, sug’orish va dexqonchilik ishlarini tashkil qilish jamoaning ichki va tashqi aloqalarini

⁷ Мирзиёев Ш.М. “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг соғлигини асраш-давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи. / Халқ сўзи. 2017 йил 16 июнь.

boshqarib turish masalalarini yechish muxim va hayotiy zaruriyat edi. Bu vazifalarni hal etish zururiyati, turli vazifalarni amalga oshirish maqsadida qabila orasidan xurmatga loyiq kishilar-yo’lboshchilar ajralib chiqa boshladi. Shu tariqa, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarqqiyoti aloxida o’ringa ega bo’lgan, qabiladagi ijtimoiy va xo’jalik hayoti ustidan nazorat qiluvchi kishilarning ajralib chiqishiga olib keldi.

O’zbekistonning dastlabki davlat uyushmalari ham dexqonchilik vohalari axolisini chetdan bo’ladigan bosqinlardan himoya qilish va jamoadagi muosabatlarni huquqiy jixatdan boshqarib turish uchun tashkil topdi. O’zbekistonning bronza davriga oid ilk davlatchiligi xaqida faqatgina arxeologik manbalar mavjud. Miloddan avvalgi I ming yillikka oid tarixiy yozma manbalar – «Avesto», Axamoniylar davri mixxat yozuvlari, antik davr Rim va Yunoniston tarixchilari asarlarida O’zbekistonning davlatchilik tarixi xaqida ilk ma’lumotlar jamlangan. Biroq, faqatgina yozma manbalar yordamida bu masalaning to’la moxiyati ochib berilishi imkonsiz bo’lgani uchun bu davrdagi davlatchilik tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy turmush tarzi arxeologik manbalar yordamida ham o’rganiladi.

Markaziy Osiyoda neolit davriga kelib, dehqonchilik va chorvachilikning paydo bo’lishi, keyinchalik dehqonchilikdan chorvachilikning ajralib chiqishi natijasida aholi ma’lum qismi xo’jaligi dehqonchilik, chorvachilik yoki hunarmandchilikka ixtisoslasha bordilar. Aholiniig ma’lum bir sohaga ixtisoslashuvi tajribaning ortishiga va ish qurollarining takomillashuviga, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan maxsulot xajmining o’sishiga, uning sifatining yaxshilanishiga olib keladi. Ishlab chiqarish hajmining o’sganligini bronza davrida don saqlovchi omborlarning, katta hajmdagi don va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari saqlovchi idishlarning ko’payganligidan bilish mumkin. Natijada, insonning minimum ehtiyojidan ortiqcha mahsulotning paydo bo’lishi kuzatiladi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmining uzluksiz sur’atda o’sib borishi esa ortiqcha mahsulotning qo’shimcha mahsulotga aylanishiga olib keladi. Bunday xolatda maxsulot bir kishi tomonidan ishlab chiqilib, boshqa

kishi tomonidan o’z lashtiriladi, ya’ni ekspluatasiya munosabatlari yuzaga keladi.

Qo’shimcha mahsulotning yuzaga kelishi bilan xususiy mulk shakllana boshlaydi. Xususiy mulknng shakllanishi ishlab chiqarishning yuksalishi bilan bog’liq ikkita bir xil jarayon natijasidir. Birinchidan, mehnat unumdorligining o’sishi va uning ixtisoslashuvi ishlab chiqarishning individuallashuviga olib keladi. Bu esa o’z navbatida bir kishi tomonidan ishlab chiqilib, o’zgalar tomonidan o’zlashtiriladigan qo’shimcha mahsulotning paydo bo’lishiga imkon yaratadi. Ikkinchidan, mehnat unumdorligining o’sishi va ixtisoslashuvi ayirboshlash uchun maxsus ishlab chiqilgan maxsulotning paydo bo’lishiga imkon yaratadi. Natijada o’zlashtirilgan xususiy mulk paydo bo’ladi. U jamoa va shaxsiy mulkdan farqli o’larоq ekspluatasiya munosabatlariga yo’l ochadi.

Xususiy mulk dastlab dehqonchilik rayonlarida oziq-ovqat mahsulolari, hunarmandchilik buyumlari ishlab chiqarishi ko’rinishida, chorvachilik rayonlarida esa chorva ko’rinishida bo’lgan. Keyinchalik jamiyatda ayirboshlash ekvivalentlari paydo bo’lganligi sababli xususiy mulk nafaqat natural formada, shu bilan bir qatorda mahsulotlar ayirboshlash uchun qabul qilingan ekvivalentlar (pul o’rnidagi narsalar) ko’rinishida ham to’plana boshlagan. Markaziy Osiyo qadimgi dehqonchilik jamiyatlari aholisiga tegishli qabrlardan topilgan ko’plab zoomorf va geometrik tasvir ko’rnishidagi muxrlar xususiy mulkning paydo bo’lganligi va to’plana borgaligi haqida guvohlik beradi.

Qo’shimcha mahsulot va xususiy mulkning paydo bo’lishi bilan jamiyatda ijtimoiy va mulkiy tengsizlik yuzaga kela boshlaydi. Zero, xususiy mulk odatda qabila va urug’ boshliqlarida to’plana borgan. Bu bejiz amas, sababi, aynan ular urug’ va jamoaga tegishli mollarni taqsimlash, huquqiga ega bo’lganlar. Ayni paytda ularning oddiy jamoadoshlari esa arzimagan mol-mulkga ega bo’lganlar. Tabaqalanshning qaysi biri: ijtimoiy tabaqalanishmi, yoki mulkiy tabaqalanish oldin paydo bo’lgan – degan savolga javob berish ancha mushkul. Ko’pchilik mutaxassislar ular bir vaqtida paydo bo’lgan, ya’ni ijtimoiy mavqeidan farqlar

mulkiy tengsizlikka olib kelgan bo'lsa; o'z navbatida mulkiy tengsizlik jamiyat a'zolarinnig ijtimoiy tengsizligiga olib kelgan deb hisoblashadi.

Arxeologik tadqiqotlar hunarmandchilik va savdo markazlari hisoblangan shaharlarda aholining ijtimoiy va mulkiy tabaqlanish jarayoni qishloqlardagiga qaraganda nisbatan tezroq borganligini ko'rsatmoqda. Masalan metall, muxr, qurol-yarog' singari hokimiyat ramzlari va diniy xarakterdagi predmetlar mavjud qabrlar aksariyat holda "ilk shaharlar" tipidagi Oltin-tepa, Ulug'-tepa, Jarqo'ton, Sopollitepa kabi yodgorliklarga tegishlidir. Agarda ilk shaharlarga tegishli qabrlarda 6-9 xil ko'rinishdagi buyumlar uchrasa, kichikroq aholi manzilgohlaridan topilgan qabrlarda 2-3 xil ko'rinishdagi buyumlargina uchraydi.

Ijtimoiy-mulkiy tengsizlikni chuqurlashuvi injtimoiy sinflarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ijtimoiy sinflarniig paydo bo'lishi ibtidoiy davrni sinfiy davrdan ajratunchi chegara hisoblanadi. Ijtimoiy va mulkiy tengsizlik jamiyatda qarama-qarshilik va nizolar keltirib chiqaradi. Jamiyatning yuqori toifa kishilari o'z imtiyozlari va boyliklarini jamiyatning oddiy a'zolari tahdididan himoyalashga zarurat sezadi. Ijtimoiy ishlab chiqarishga va uni taqsimlashga bo'lган huquq urug' va qabila boshliqlariga o'z atroflariga shaxsiy qo'riqchilar, maslahatchilar va shu kabilarni to'plash imkonini beradi, ya'ni davlatnnng ibtidoiy ko'rinishlari shakllana boshlaydi.

Demak, ishlab chiqaruvchi xo'jalikning paydo bo'lishi, jamiyat a'zolarining xo'jalikiing biror-bir turiga ixtisoslashuviga, ish tajribasining oshishiga va nsh quollarining takomillashuviga olib keladi. Yuqoridagi jarayon o'z navbatida ishlab chaqarilayotgan mahsulot hajmining uzlusiz ortib borishiga, ya'ni qo'shimcha mahsulotning yuzaga kelishi sabab bo'ladi. Ko'shimcha mahsulotning yuzaga kelishi bilan xususiy mulk shakllana boshlaydi. Xususiy mulk o'z navbatida jamiyatda ijtimoiy va mulkiy tabaqlanishga, ya'ni ijtimoiy sinflarning yuzaga kelishi olib keladi. Bu esa ijtimoiy sinflarning yuzaga kelishi va davlatning bo'lishiga zamin hozirlagan. Shunday qilib, jamiyatda ilk davlatlar paydo bo'lishiga shart-sharoitlar yetiladi. Davlatlarning paydo

bo'lishida uning yuzaga kelish jarayoniga sezilarli ta'sir o'tkazgan omillarni bilish ham muhimdir.

Markaziy Osiyo hududida o'zlashtiruvchi xo'jalikning ishlab chiqaruvich xo'jalik bilan, ayniqsa uning dehqonchilik turi bilan almashinuvi davlat paydo bo'lishida muhim o'rin tutadi. Biroq, har qanday dehqonchilik ham emas, balki dehqonchilikning yuqori unumdar formalarigina hal qiluvchi o'zgarishlarga olib keladi. Ekinni ko'p marta sug'orish tizimi hosildorlikni ancha oshirib, mehnat unumdarligining oshishiga olib kelgan. Ma'lumki, qo'shimcha mahsulot davlatning shakllanishida yetakchi o'rin tutuvchi xususiy mulkning shakllanishiga olib keladi. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik Markaziy Osiyo deqonchilik hududlari xo'jalogining asosiy tarmog'i bo'lgan. Bu Turkmanistonning Marv vohasida, O'zbekiston va Tojikistonning janubiy qismida bronza davrida shakllanadi. Markaziy Osyoning shimoliy hududlarida (Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, Jizzax va Xo'jand oralig'ida) bu jarayon birmuncha kechroq, ilk temir davrida sodir bo'ladi. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik rivoji murakkab suv inshootlari qurilishini taqozo etgan, zero dehqonchilikning intensiv rivojlanishi faqatgina birmuncha murakkab bo'lgan sug'orish inshootlarining amalga oshishi tufayligina mumkin bo'lgan. O'z navbatida sug'orish inshootlarining qurilishi ko'plab aholi uyushmasini talab qilgan. Ko'pchilik aholini majburiy ravishda sug'orish inshootlari qurilishiga jalb etish markazlashgan boshqaruvni, aniqrog'i davlatning paydo bo'lishini taqozo etgan. Shu sababli mashxur sharqshunos olim M.M. Dyakonov "yirik daryolar bo'ylaridagi vodiyarda sug'orishga asoslangan dehqonchilikning boshlanishi O'rta Osiyo jamiyatlarida sinfiy tuzum davlatchilik asoslarining o'rnatilishi bilan bog'liq", degan fikrni bildiradi.

Markaziy Osiyoda ilk davlatlar tuzilmalari chegaralari aksariyat hollarda sug'oriladigan vohalar chegaralariga to'g'ri keladi. Masalan, Amudaryoning yuqori oqimida va uning irmoqlari bo'ylarida Baqtriya, Murg'ob daryosi bo'ylarida Marg'iyona, Amudaryoning quyi oqimi bo'ylarida Xorazm, Kopetdog yon bag'irlarida Parfiya, Zarafshon bo'ylarida Sug'd davlatlari tashkil

topgan. Ushbu xolat ham yuqoridagi fikrlarning to'grilagini ko'rsatadi. Xuddi shunday jarayonlar Qadimgi Sharqning boshqa hududlarida ham kuzatiladi. Masalan rus olimi I.Mechnikov "Sivilizatsii i velikiye istoricheskiye reki" (sivilizatsiyalar va buyuk tarixiy daryolar) nomli asarida Misrda sug'orish ishlariga bo'lган zaruriyat davlatning paydo bo'lishiga olib keladi, deb yozadi. B.B.Piotrovskiy ham o'zining Qadimgi Nubiya hududida olib borgan arxeologik tadqiqotlari natijasida, ushbu xududda davlatniig paydo bo'lishi sug'orishga asoslangan dehqonchilikning yuksalishi bilan bog'liq degan xulosaga keladi. Tarixchilar B.I. Andrianov va A.R. Muhamadjanovlarning ta'kidlashicha, sug'orish inshoatlari xarakteri bilan ishlab chiqaruvchi kuchlarniig rivojlanishi darajasi va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar o'rtasida bog'liqlik mavjud.

Markaziy Osiyo hududida davlatchilik shakllanishining asosiy omillaridan yana biri- insoniyat tomonidan metallning kashf etilishidir. Inson dastlab ishlab chiqarishda qo'llagan metall misdir. Tabiiy misni sovuq xolatda yoki o'tda qizdirilgan xolatda bolg'alab, undan biror-bir buyum yasalgan. Neolit davrining oxirlariga kelib, mis rudalarini quyish texnikasi egallanadi. Hozirgi fan ibtidoiy metallurgiyaning qaysi davrda paydo bo'lganligi to'g'risida aniq ma'lumotga ega emas. Dastlab tabiatda uchraydigan metall toshning bir turi hisoblanib, toshga qanday ishlov berilgan bo'lsa unga ham shunday ishlov berilgan. Insoniyat tajribasi osha borgach, ba'zi bir "tosh"larning egiluvchanlik xususiyati borligini tushunadi. O'sha davr kishilari gulxnlarda ruda xolidan sof holatga o'tgan metall bo'laklarini ko'p uchratadi va ularda ruda xolidagi metalldan eritish yo'li orqali sof metall olish mumkinligi tushuncha paydo bo'ladi. Insoniyatning loyni olovda pishirish yo'li bilan kulolchilikni kashf etganligi (Markazly Osiyo hududida er. avv. VI—V ming yilliklar) ham uning metallni eritish jarayonini bilishda muhim rol o'ynaydi. Umuman bu jarayonni to'liq egallah qiyinchilik bilan kechadi va arxeologlar fikricha bir necha ming yil davom etadi.

Mis qurollari paydo bo'lgan davr (Markaziy Osiyo hududida mil. avv.IV—III ming yilliklar) eneolit yoki xolkolit deb yuritiladi. Mis tabiatda kam

uchragani uchun nodir hisoblanar, buning ustiga ish sifatlariga ko'ra hamma vaqt ham toshdan ustun bo'lavermaydi. Shu sababli, bu davrda insonning ish quroli hamon toshdan ishlagan mehnat qurollari bo'lgan. Biroq, metalldan mehnat qurollari ishlashning kashf etilishi shubhasiz, jamiyatning kelgusi rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Keyinchalik misdan yasalgan mehnat qurollari o'rnini bronzadan yasalgan mehnat qurollari egallaydi. Misning qalayi, qo'rg'oshin, rux, surma, margumush singari metallar bilan aralashmasi—bronzadan yasalgan mehnat qurollari mis mahsulotlariga qaraganda birmuncha yuqori sifatli edi. Ular nisbatan, qattiq o'tkir, hamda misga qaraganda past haroratda eriganligi sababli, uni quyish ham oson edi.

Markaziy Osiyoning ko'plab qadimgi yodgorliklaridan (Masalan: Jarqo'ton, Sopolli, Chust) metall ishlab chiqarishda qo'llanilgan ish qurollari topilgan. Ayrim yodgorliklarda maxsus metall quyish ustaxonalari bo'lgan bo'lsa, ba'zi aholi manzilgohlari faqatgina metall eritish va quyishga ixtisoslashgan. Yuqoridagi dalillar mil. avv.II ming yillikda Markaziy Osiyoda metall xo'jalikda keng foydalana boshlaganidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyoda bronza davrida mis rudasi qazib olinidigan bir qancha konlar bo'lganligi ma'lum. Masalan, Farg'onada mis, Naukatda hamda Chotqol-qurama tog'larida qazib olingan. Qalayi Zarafshon vodiysining janubida Karnob konida qazib olingan. Mehnat quollarining metalldan ishlana boshlanishi ish unumdorligini sezilarli oshirib, yetishtirilayotgan mahsulot hajmining oshishiga imkon yaratadi. Mahsulot hajmining oshishi yuqorida ta'kidlaganiizdek, pirovard natijada davlatchnlikning shakllanishida muhim o'rinn tutuvchi qo'shimcha mahsulot hamda xususiy mulkning shakllanishiga olib keladi. SHarqiy Turkistonning Tangritog' yonbag'irlari (Oloy soyi)da saklarga oid qabrlar va turar joy qoldiqlaridan qazib olingan narsalar ichida tilla, kumush, mis, temir, sopol, yog'och, ipak va lak buyumlari asosiy o'rinni egallagan.

“Saklarda ayniqsa tilladan yasalgan buyumlardan foydalanish birinchi o‘rinda turgan”⁷.

Vizantiya elchisi Zemarx unga turkutlar sotiladigan temirni taklif qilganlarida hayron bo‘lib qoladi va bu uni chalg‘itish uchun ataylab qilinayapti, degan shubhaga boradi, “odatda ularda temir topilishi ancha mushkul” degan gap yurardi⁸. Aslida turkiylar metallurgiyani taraqqiy ettirib, o‘z qo‘sшинини qayta qurollantirib, zirxli suvorilardan tanlangan zarbdor qismlar tashkil eta olgan edilar. Ular shoxli yoy, zirh ko‘ylak, nayza, qilich, o‘tkir suvoriy shamshirlari bilan qurollanishgan. 1984 yili Sirdaryodan topilgan, bundan 2000 yil oldin yasalgan dubulg‘aning zirhi qo‘shqavat bo‘lib, turli metall qotishmalaridan iborat bo‘lgan. Mutaxassislar uni yasash uchun maxalliy xom ashyo, jumladan, Qoramozor rudasi asosiy material bo‘lib xizmat qilgan deb taxmin qiladilar⁹. S.L.Sverchkov tadqiqotlariga ko‘ra Turkiston tog‘larining shimoli-g‘arbida Morguzar, janubi g‘arbida Chimqartov joylashgan bo‘lib, ularning har ikkalasining dengiz sathidan 3000 balandlikda joylashgan. Ana shu joylardagi ko‘plab buloqlardan Zominsuv va Sangzor daryolari boshlanib ular pastga oqqani sari o‘nlab irmoqlar qo‘silib boradi. Ayni paytda Ustrushona tog‘larida 4 ta tog‘ metall zonasi Chimqortog‘dagi Lyataband, Bog‘mozor, Morguzor tog‘laridagi SHoyboqsoy va Miqsoy mavjud bo‘lgan. Ruda qazib olish va qayta ishlash markazlari Shoyboqsoy va Miqsoyda mavjud bo‘lgan¹⁰. Bu erdagи metallurgiya sohasi mo‘g‘ullar bosqinigacha davom etgan. SHimoliy Ustrushonadagi Miq konchilik markazining Miq I, Miq II va Miq III bo‘limlarida O‘rta Osiyodagi yirik, rudani qazib olishdan, qora metalldan tayyor yasashgacha bo‘lgan, ishlab chiqarishning to‘liq shakli, ixtisoslashgan metallurgiya markazi mavjud bo‘lgan¹¹. Aynan mana shu miqliklarning xo‘jalik faoliyati boshqalardan farqli bo‘lib davlat o‘zi unga xomiylilik qilgan. Aynan shu

⁷ Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар... – Б.208.

⁸ Гумилев Л.Н. Қадимги турклар...–Б.52.

⁹ Комсомольская правда, 1984, 10- февраль; Совет Ўзбекистони, 1984, 18- февраль.

¹⁰ Сверчков Л.М. Поселение Мық - источник по истории средневековой Уструшаны: дисс. ...канд.ист.наук.- Самарканд,1991.- С.13-14.

¹¹ Сверчков Л.М. Поселение Мық - источник по истории средневековой Уструшаны... - С. 145-146.

erda barcha savdo operatsiyalari jamlangan. Bu joy ob-havosi qulay, lalmi dehqonchilik va yaylov chorvachiligi uchun atrof qishloqlarga qaraganda ham qulayroq bo‘lgan.

Ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning rivoji hamda metallning kashf etilishi natijasida jamiyatda bevosita ishlab chiqarish bilan bog’liq bo‘lman sohalarning rivojlanishga imkon yaratadi. Jamiyat a’zolari ehtiyojining ortishi va aholi farovonligi umumiylar darajasining o’sishi jamiyatda tor ixtisoslikka asoslangan hunarmandlar tabaqsining shakllanilshiga olib keladi. Natijada miloddan avvalgi III—II ming yilliklarda Markaziy Osiyoda ikkinchi mehnat taqsimoti — dehqohchilikdan hunarmandachilikning ajralib chiqishi yuz berdi. Ushbu davrda hukarmandchklikning metallga ishlov berish kulolchilik, to’qimachilik kabi turlari keng tarqaladi. Kulolchilik Markaziy Osiyoda neolit davrida paydo bo‘lgan bo’lsada, uning tez sur’atlar bilan rivojlanishi bronza davrida kulolchilik charxining kashf etilishi bilan bog’liq.

Kulolchilikda tez aylanadigan charxning qo’llanila boshlanishi yuqori sifatli, xaridorgir, turli xil shakldagi sopol idishlarning ko’plab ishlab chiqarilishiga imkon yaratdi. O’z uslubi va an’analariga ega bo‘lgan usta—kulollar paydo bo’ldi. A. Asqarovning yozishicha, har bir mahallaning o’z belgisi yoki tamg’asiga ega bo‘lgan ustaxonalari bo‘lgan. Keyinchalik (mil. avv. II ming yillik oxirlarida) faqatgina kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan aholi manzilgohlari ham paydo bo’ladi.

Sopollitepadan mato parchalari, shuningdek ushbu davrga oid deyarli barcha aholi manzilgohlariidan to’qimachilikda qo’llanilgan urchuqboshilar topilgan. O’zbekistonning ipakchilikning ilk vatanlaridan biri bo‘lganligi haqida fikrlar ham mavjud. Huddi shu davrda to’qimachilik dastgohlarining kashf etilishi o’z navbatida to’qimachilikning rivojlanishiga turtki bo‘lgan.

Hunarmandchilikning, shuningdek toshga, yog’ochga, suyakka ishlov berish kabi turlari ham keng tarqalgan. Dastlabki davrlarda hunarmandlar dehqonlar bilan birgalikda hayot kechirishgan. Faqatgina hunarmandchilikdan keladigan daromad bilan kun kechirish qiyin bo‘lganligi sababli, ular vaqtı-vaqtı bilan

dehqonchilik bilan ham shug'ullanib turishgan. Ilk davlatlar shakllanishi davrida hunarmandlar mahsulotiga talabning oshishi ularning alhida joylashishiga imkon yaratdi.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishining alohida va o'ziga xos bo'lган tarmog'i sifatida ajralib chiqishi jamiyat tarixi uchun muhim ahamiyatga egadir. O'z davri uchun yetuk texnik malakaga ega bo'lган mutaxassislarning shakllanishiga ishlab chiqarish unumdoorligini sezilarli o'sishiga olib keldi. Bu xolat jamiyatda davlatchilikning paydo bo'lishi uchun muhim hisoblanadigana qushimcha mahsulotning ko'payishiga olib keladi.

Ayriboshlash va savdo munosabatlarining rivojlanishi. Markaziy Osiyoda ilk davlatlarning paydo bo'lishida mahsulot ayriboshlash va savdo-sotiq munosabatlarning rivojlanishi muhim omillardan hisoblanadi. Malumki, Markaziy Osiyo hududida dehqonlar va chorvadorlar qadimdan yonma-yon yashab kelishgan. Dehqonchilik bilan shug'ullangan aholi asosan Markaziy Osiyoning janubiy qismida, chorvachilik bilan kun kechirgan aholi esa ko'proq uning shimoliy qismi va dehqonchilik vohalari atroflarida hayot kechirishgan. Bu xolat ular o'rtasida ayriboshlash munosabatlarining juda erta paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Arxeologik tadqiqotlar bunday munosabatlarning mil. avv.II ming yillardayoq yuzaga kelganligini ko'rsatmoqda.

Agar dehqonlar o'zlarida bo'lмаган yoki yetishмаган chorva maxsulotlari: go'sht, teri, sut, jun va ayniqsa qo'shga yoki aravaga qo'shiladigan chorva turlariga ehtiyoj sezishsa, chorvadorlar ham o'z navbatida dehqonchilik va xunarmandchilik mahsulotlariga ehtiyoj sezishadi. Ushbu xolat dastlab iqtisodiy, keyinchalik esa siyosiy (yagona davlatga) ittifoqqa birlashishlariga olib keladi. Shuningdek qazib olinadigan xom ashyo resurslarining ayrim rayonlardagina mavjudligi ham ayriboshlash va savdo-sotnq munosabatlarining erta shakllanishiga olib kelgan xolatlardan hisoblanadi. Masalan, metall uchun zarur bo'lган xom ashyo rudalari Chotqol-qurama tog'lari va Qizilqumdan qazib olingan. Bu xolat, tabiiyki, ushbu hududlar bilan uning ite'molchilari bo'lган hududlar o'rtasida aloqa munosabatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Ayniqsa, hunarmandchilikning ajraligshi bilan mahsulot ayirboshlash munosabatlari tez rivojlana boradi.

Ilk davlatlarniig shakllanishida savdo-sotiqning ham roli muhim bo’lgan. Markaziy Osiyoda qazib olingan qimmatbaho Badaxshon lazuritiga bo’lgan talab mil. avv. III ming yillbkda yurtimizning qadimgi Mesopotamiya, Misr shaharlari bilan savdo munosabaglarining o’rnatalishiga olib keladi. Shuningdek qadimgi Mesopotamiya madaniyatiga xos silindrik muxrlarning Markaziy Osiyo hududidagi yodgorliklardan topilish. Qadimgi Hindistondagi Xarappi sivilizatsiyasiga xos me’morchilik an’analarining ko’xna yodgorliklarimizda qo’llanishi, Farg’onadan topilgan Xak va Aflatun xazinalaridagi buyumlarning Eron madaniyatiga yaqinligi o’lkamiz xalqlarining qadimda Sharq xalqlari bilan savdo aloqalarini olib borganligidan dalolat beradi.

Jamiyatda sodir bo’lgan iqtisodiy siljishlar Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi III-II ming yilliklarga kelib, ilk shaharlarning paydo bo’lishiga olib keladi. Umuman olganda, shaharlarning paydo bo’lishi jarayonini bilish muhumdir. Zero, ko’pchilik mutaxassislar fikricha, shaharlar va davlatlarlning paydo bo’lish jarayoni uzviy bog’liq xolda kechgan.

Ma’lumki, bu davrda dehqonchilik vohalarida aholining alohida-alohida joylashish tizimi shakllanadi. Aynan shu narsa shahar tipidagi aholi manzilgohlarinn shakllanishiga shart-sharoitlarni yaratadi. Shuningdek, shaharlarni yuzaga keltirgan omillarni bilish ham muhim ahamiyatga egadir.”

Birinchi omil — aholining yuqori zichligini, uning bir yerda. to’planishiga imkon yaratdagigan oziq-ovqat olish yo’li, ya’ni o’troq dehqonchilikni paydo bo’lishi. Aholi zichligi o’troq dehqonchilik jamiyatlarida oldingi terimchilik, ovchilik bilan shug’ullangan davrga nisbatan 100 barobar oshadi. Masalan, Janubiy Turkmanistonda IV—III ming yillik boshlarida 1000—2000 kishilik aholi manzilgohlari yuzaga kelgan.

Ikkinci omil — hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi. Buning natijasida ayrim aholi manzilgohlarida asosan maxsus ishlab chiqarish (xunarmandchilik) bilan shug’ullanadigan aholi to’plana boshlaydi. Umuman

olganda, hunarmandchilikning ajralish jarayoni bilan shaharlarning paydo bo'lish jarayoni bir vaqtda borgan. Shuni alohida takidlash joizki, dastlab shahar tipidagi aholi manzilgohlarida aholi hunarmandchilikdan ko'ra ko'proq dehqonchilik bilan shugullangan. Shaharlarning asta-sekin rivojlanib borish bilan hunarmandchilik shahar hyotida tobora muhim ro'l o'ynay boshlagan. Xunarmandchilikning yangi sohalari paydo bo'lgan. Umuman, shahar va hunarmandchilik bir-birlarining yuksalishiga sharoit yaratgan. Ayniqsa hunarmandchilikning metallurgiya va kulolchilik kabi tarmoqlarining yuksalishi shaharlar shakllanishi jarayonini tezlashtiradi.

Shuningdek, jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish hamda boshqaruv tizimining tobora murakkablashib borishi ham shaharlarning shakllanishini yuzaga keltirgan omillardan hisoblanadi. Zero, aynan yirik aholi manzilgohlarida boshqaruv tizimlari joylashgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, shaharlarning shakllanishida aloqa munosabatlari va savdo-sotiq rivoji ham muhim omillardan hisoblanadi. Masalan, Janubiy Turkmanistonda eramizdal avvalgi IV—III ming yilliklardayoq dastlabki g'ildiraklar paydo bo'lgan. Miloddan avvalgi III ming yillik o'rtalarida tuyaga, ba'zan xo'kizga qo'shilgan to'rt g'ildirakli aravalar paydo bo'ladi. Transportning rivoji shaharlarga qishloq xo'jaligi rayoni markazi, shuningdek zaruriy hamda qo'shimcha mahsulotni taqsimlovchi manzilgoh funksiyasini bajarish nmkonini yaratadi.

Shaharlarning shakllanishida diniy tushunchalardagi o'zgarishlar ham sabab bo'ladi. "Iloh" yoki "ilohlar"ga sig'nishning paydo bo'lishi natijasida shaharlar nafaqat iqtisodiy, shu bilan birga diniy markaz rolini ham bajarganlar.

Va, nihoyat o'sha davrdagi harbiy-siyosiy vaziyat ma'lum bir vohalarda shaharlar bo'lishini taqozo etgan. Sababi, shaharlar aholini dushman hujumidan saqlaydigan joy vazifasini ham o'ynagan. Shaharlarda shahar va yaqin atrofdagi qishloqlar aholisini bosqinchilardan himoya qilish maqsadida mudofaa inshootlari quriladi.

«Avesto» tili, viloyatlarning tarixiy geografiyasi nomlanishi kabi xususiyatlarga ko’ra Xorazm xududlarida paydo bo’lgan. «Avesto» ning eng qadimgi geografik nomlari O’rta Osiyo va uning shimolidagi chegaradosh viloyatlar bilan bog’lanadi. Ilmiy adabiyotlarda O’rta Osiyoda ahamoniylar davrigacha mavjud bo’lgan quydagi davlatlar va davlat uyushmalari xaqida so’z yuritiladi:

Aryoshayyona-O’rta Osiyodagi qadimgi viloyatlar uyushmasi.

Aryonam Vayjo ham Aryoshayonadek yoki uning markazi Ariya va Marg’iyonada bo’lgan «Katta Xorazm» yoki Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm davlati.

Qadimgi Baqtriya davlati. Olimlarning fikricha, Aryoshayyona, «Avesto» da tilga olingan Kavi Vishtaspning podsholigi bo’lib, mil.avv. IX-VIII asrlarda Drangiana, Satagadiyab Ariya, Marg’iyona, Amudaryo o’rta oqimidagi yerlarni birlashtirgan. G’arb olimlari V.B.Xenning va I.Gershevichlarning fikricha, Kavi Vishtaspning davlati Marv va Xirot atrofida joylashgan «Katta Xorazm» bo’lgan. Bu masala hali to’liq o’z yechimini topmagan. Biroq, S.P.Tolstov va Ya.G’.G’ulomovlar Xorazm davlati qadim zamonlardanoq aynan Amudaryoning quyi oqimlarida yuzaga kelgan degan fikrni ilgari surishgan. Bu davlat xududi xozirgi Xorazmdan ancha katta bo’lgan. Mil.avv. 700-540 yillarda Qadimgi Baqtriya davlatining (Baqtriya, Marg’iyona, So’g’dyonaning bir qismi) ancha rivojlangan davri bo’lib, uning xududlari Murg’ob vohasi, Xindiqush tizmasi, Badaxshon, Nurotak tizmasi va Buxoro xududlarigacha borib yetgan deb taxmin qilinadi.

Baqtriya bu davrda Xorazm davlati va sak-massagetlar harbiy-siyosiy uyushmasiga chegaradosh bo’lgan. Marg’iyona va So’g’dyonaning Baqtriyaning ayrim qismlari bo’lganligi xaqida ham ayrim ma’lumotlar mavjud. Arxeologik manbalarga ko’ra. Xorazmda mil.avv. IX-VIII asrlarda paxsa va xom g’ishtdan qurilgan uy-joylar, mudofaa inshootlari va boshqalar topoilmagan. Shuningdek, bunday narsalar Baqtriya va So’g’dyonaning xududlarida ham uchramagan. Mil.avv. VII asrga oid Ko’zalinqir va Baqtriyadagi Qiziltepa shaharlari mudofaa

devorlaridagi o'xshashliklar shu davrda bu yerlarda yirik shahar markazlari bo'lganligidan dalolat beradi.

Miloddan avalgi VI asrdagi Xorazm sopol idishlarining Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyonadagi shunday buyumlarga o'xshashlik jixatlari ko'p bo'lgan. Bu umumiylilik va o'xshashlik yuqoridagi davlatlarning umumiy madaniyatga mansub bo'lganliklaridan dalolat beradi. Mil.avv. VII-VI asrlarda shakllangan va ancha yirik bo'lgan Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya davlat uyushmalarining axolisi til, urf-odatlari, madaniy hayot tarzi jixatidan umumiylikka ega bo'lgan. Bu davrda jamiyatning xududiy bo'linishi shakillanib, o'troqlashuv jarayoni kuchaydi, shaharlar, qal'alar paydo bo'ldi, xo'jalik tarqqiy etdi.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida o'zbek arxeologlari bir qancha qadimgi shaxarlar xarobalarini topib o'rgandilar. Tadqiqotlarning guvoxlik berishicha, bu shaxarlarning ayrimlari bundan 2700 yillar aval paydo bo'lган. Ularga Afrosiyob (Samarqand), Qiziltepa (Surxon vohasi), Uzunqir, Yerqo'rg'on (Qashqadaryo vohasi) kabilar kiradi. Bu qadimiy shaxarlar an'analari Samarqand (Afrosiyob, Mmaroqand), Kitob-Shaxrisabz (Uzunqir), Qarshi (Yerqo'rg'on) xududlarida davom etgan.

Yuqoridagilardan ko'rindiki, o'zbek xalqining shakillanishida va uning davlatchiligi paydo bo'lishida tub o'troq dexqon axoli va vohalar atrofida yashovchi chorvador aholi va keyinchalik kirib kelgan qabilalar katta o'rin tutgan. O'zbek xalqi ajdodlarining ilk davlatchiligi taraqqiyoti, qadimgi shaxarlar tarixi va tarqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Mavjud ma'lumotlarga asosan, o'zbek xalqi tarixida davlatchilik tizimiga o'tish bosqichi, O'zbekiston xududlrida ilk davlatlarning shakillanishi va rivojlanish jarayoni bosqichlari quydagi davrlar bilan belgilanadi:

Bronza davri. Mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi va o'rtalari. Unchalik katta bo'lмаган dexqonchilik voxalari asosida ilk davlatchilik tizimiga o'tish davri.

Bronza davridan temir asriga o'tish. Mil.avv IX-VIII asrlar. Mayda davlat tashkilotlarining rivojlanishi va yirik harbiy-siyosiy uyushmalarning vujudga kelishi.

Ilk temir davlati mil.avv. VII- VI arlar. Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya kabi yirik davlat uyushmalarining shakillanishi.

Temirning kashf etilishi, ishlab chiqaruvchi xo'jalikning, ayniqsa sun'iy sugorishga asoslangan dehqonchilikning keyingi rivoji, bir tomondan, yangi voxalarning uzlashtirilishiga, ikkinchi tomondan ko'proq qo'shimcha maxsulot yaratish imkonini yaratadi. Bunday sharoitda kuchliroq bo'lgan ayrim shahar-davlatlar o'z atroflaridagi birmuncha zaif bo'lgan qo'shni shahar-davlatlarni o'zlariga iqtisodiy, siyosiy jixatdan qaram qilib oladi. Zaifroq shahar-davlatlar o'zidan kuchli shahar-davlatga o'lpon to'lab turishga, zarur bo'lib qolsa, harbiy kuch bilan yordam berishga majbur edilar.

Shunday qilib, bir nechta shahar-davlatlar konfederasiyalari - podshoxliklar paydo bo'ladi. Bunday podshoxliklar siyosiy jixatdan unchalik mustaxkam bo'lmasada (sababi konfederasiya tarkibidagi shahar-davlatlar ma'lum muxtor huquqlarini saqlab qoladilar), lekin ular ulkan xududlarni o'z ichiga olgan bo'lib, iqtisodiy jihatdan rivojlanish imkoniga ega edilar. Miloddan avvalgi 1 ming yillikdan boshlab yirik madaniy-tarixiy viloyatlar: Xorazm, Baqtriya, So'g'd, Farg'ona, Shosh (Choch) kabilar yuzaga keldi va o'rta asrlarda ham Sharqdagi eng mashxur siyosiy va madaniy markazлага aylanib qoldi. Ming yillar davomida O'zbekiston xududlarida yashab o'tgan qabilalar va elatlarning tarixi va madaniyati izsiz yo'qolib ketmagan. Ushbu elatlarning ayrimlari ajdodlarimizning yirik guruxlarini tashkil etib, davlatchilikka dastlab asos solgan elatlar sifatida eng qadimgi yozma manbalarda tilga olingan.

1.2. Yurtimizda kechgan davlatchilik masalasida sobiq sho'rolar davridagi yondoshuv va siyosiy jarayonlar tarixining yozma manbalarda yoritilishi

Bugungi kunda o’zbek jamiyatidagi o’z tarixi va madanayatiga bo’lgan ulkan qiziqish, ma’naviy ehtiyoj mazkur sohaning tegishli yo’nalishlarida chuqur va har tomonlama ilmiy izlanashlarni taqozo etmoqda. Natijada tarixshunoslik fanimizda yangidan yangi yo’nalishlar yuzaga kelmoqda.

O’zbekistonning mustaqillikka erishgach O’zbekiston davlati, o’zbek davlatchaligi tushunchalari qayta kirib keldi. To’g’ri, davlatchalik o’zbek xalqi tarixi uchun yangilik emas. Ammo 130 yillik (XIX asrning 60-yillari — 1991 yil) mustamlaka davrida, ayniqsa, so’nggi bir necha avlod nazdida davlat, davlatchilik tushunchasi umuman unut bo’lganda. Bunga hech bir ajablanmasa ham bo’ladi. Davlatchilikning taklanishi, albatta, ulug’ tarixiy voqeа bo’ldi. Shu bilan birga davlatning mavjudligi jamiyat hayotida muayyan bir maqsad va vazifalarni ko’ndalang qilib qo’yishi ham tabiiy.

O’zbekiston hududida, umuman, O’rta Osiyo mintaqasida eng qadim zamonlardan kechgan davlatchilik tarixi masalasi ilgari maxsus o’rganilmagan. Shunga qaramay, O’rta Osiyo mintaqasida davlatchilik tizimi bo’lgani hech qachon inkor etilmagan. Biroq mazkur davlatchilik tizimlari to’g’ridan-to’g’ri o’zbek jamiyati bilan bog’liq tarzda va shu yurtda uzuluksiz kechgan bir jarayon sifatida qarab chiqilmagan.

Uning asosiy sabablaridan biri to’g’ridan-to’g’ri yevrotsentrizm bilan bog’liq. So’nggi asrlarda siyosiy-iqtisodiy markazning Sharqdan-G’arbgaga “ko’chishi”, xalqaro munosabatlarda G’arb davlatlari, ular namoyandalarining ilg’or, tashabbuskor, tajovuzkor, bo’lishlari kabi omil va sabablar natijasida go’yoki g’arbiy (yevropaviy) va sharqiy tarixshunoslik fanlari vujudga kelganday bo’lgan. Go’yoki faqat yevropaviy tarixshunoslik yakka yagona fanday. Boshqacha qilab aytadigan bo’lsak, davlatchilik mavzusi u yoqda tursin, umuman tarixshunoslikda yevrotsentrizm kuchli namoyon bo’lgan. Yana bir sabab, Rossiyaning shovinistik va ulug’ davlatchilik siyosati bilan bog’liq.

Davlatchilik tarixi masalasida ham yondashuv shunday bo’lgan. “Qadimgi Rus davlati” IX asrda shakllanganidan kelib chiqilib, imperiyaning boshqa biron-bir xalqi (armanlar va gruzinlardan tashqari) davlatchilik tarixi mazkur

ko'rsatkichdan (IX asr) qadimroq bo'lmasligi kerak edi. Bu kabi munosabatni imperiya xalqlarining etnik tarixi va etnogenезини о'рганиш, ilmiy asoslash bilan bog'liq masalalarda ham ko'rish mumkin. Ya'ni o'zbeklar, ozarbayjonlar, ukrainlar, turkmanlar va boshqa xalqlarning tarixiy shakllanishi rus xalqi shakllangan asrlardan (IX—XII) ertaroq asrlarga borib taqalashi mumkin emasdi. Uchinchi sabab esa Rossiya imperayasini communistlar boshqargan davrlardagi hukmron mafkura mohiyati orqali belgilanadi. Davlat, davlatchilikka munosabat communistik mafkura "dohiyulari" qarashlari asosida qurib kelingan. Masalan, "davlat umuman va asosan ishlab chiqarishda, hokim bo'lgan sinfning iqtisodiy ehtiyojini konsentratsiyalashgan shaklda ifoda yetishdir" (Engels)." Davlat bir sinfning ikkinchi sinf ustidan hukmronlik qilish uchun xizmat qiladigan mashinadir".

Ko'rib turganimizdek, davlat tushunchasiga sinfiylik nuqtai nazaridan yondashilgan. Tarixga munosabat ham shu kabitir: "Tarix sinfiy kurashning bir qator lavhalaridan iboratdir". Bu yerda ham sinfiylik .Davlatchilik taraqqiyoti bosqichlariga ham baho berishda sinfiylikdan kelib chiqilgan. Ya'ni, "qul dorlik" davlati, "feodal" davlat, "kapitalistik" davlat, "sotsialistik" davlat tushunchalari bunga yaqqol misoldir. Kommunizmga borib esa davlat degan tushuncha go'yo yo'qolib ketadi. Sovet tarixshunosligi maktabi tadqiqotlari davlatchilak an'analari bo'lganligini biron millat va jamiyat bilan uzviy bog'liqlikda emas, formatsiyalar va sinfiylik nuqtai nazaridan baholaganlar.

SSSR davrida tarix fanlarining ham falsafiy metodologik asoslarini markscha-leninchha falsafa tashkil etib u dialektik va tarixiy materializm deb yuritilar edi. O'z mohiyatiga ko'ra tarixni markscha tushunish asosida shakllangan tarixiy materializm markscha-leninchha ijtimoiy falsafa sifatida moddiy ne'matlarning kishilik tarixidagi rolini mubolag' alashtirib yuborar edi¹². Jamiyatdagi ma'naviyat kabi boshqa omillarning o'rni va roliga ikkinchi darajali xodisalar sifatida qaralar va shu narsa talab qilinar edi. Bu fanlarda

¹² Абубов А.П. Деятельность Компартии Узбекистана духовно-политическому воспитанию студентской молодёжи : опыт и проблемы (1976-1986) Автореф. Дисс. ... канд. Ист. Наук. –Т.: 1990.

mulkchilikdan sinflar, hokim sinflardan ularning davlatchiligi va mafkuralari instik ravishda keltirib chiqarilib tarixga sinfiy yondashish shakllantirilgan edi. Xullas, bunday qarashlarda hamma narsa bor, ammo eng asosiysi, davlatchilikning manbai xalq ekanligi tushunchasi yo'q. Natijada o'zbek davlatchiligi miloddan avvalgi VII asrdayoq qaror topgan bo'lsa-da, ammo marksizm-leninizm ta'limoti bo'yicha, yurtimizdagi ijtimoiy siyosiy tuzum milodiy VI asrga qadar quldarlik, 1924 yilga qadar feodal, 1991 yilgacha esa sotsialsitik mazmunga ega bo'lib kelganligi sovet tarixshunosligida muntazam uqtirib borilgan.

“Sotsialistik” davlatni ko'kka ko'tarish niyatida ungacha bo'lgan davlatchilik jarayonidagi barcha bosqichlarni salbiy deb hisoblaganlar. Shuning uchun ham masala mohiyatidan va mavzuga o'zgacha yondoshishlar borligidan behabar kishi ko'z o'ngida birdaniga bir qator davlatlar namoyon bo'lishi turgan gap edi. Masalan, buyuk Xorazm davlati, Baqtriya davlati, Kushonlar podshohligi, Eftaliylar davlati, Amir Temur va temuriylar davlati, Abdullaxon davlati, Buxoro amirligi va hokazo. Ularning bayoni, sharhida hukmdorlar, siyosatchilar, lashkarboshilar, olimlar, shoirlar va boshqalar bor, ammo o'zbek jamiyati, o'zbek xalqi, o'zbek davlatchiligi yo'q, ya'ni barcha-barchasiga manba bo'ladigan mohiyat yo'qqa chiqarilgan.

1924 yil “O'zbekiston SSR” barpo etilishi munosabati bilan qabul qilingan murojaatnomadagi “o'zbek xalqi ulug’ Oktyabr inqilobi g’alabasi natijasida ilk bor o'zining milliy o'zbek davlatchiligini surish imkoniga ega bo'ldi... ammo yangi respublika ulug’ sovet ittifoqining qo'shni xalqlari bilan tinch mehnatda va qardoshlarcha hamkorlikda yashashi kerak va yashaydi ham” fikri, aniqrog'i, ko'rsatmasi o'zbek zaminida kechgan davlatchilik tarixini o'rganib, hukmron siyosiy tuzim va mafkura manfaatiga mos tarzda ommalashtirishda sovet tarixchilari uchun asos bo'lgan.

Mustaqillik sharofati bilan biz o'tmishtaraqqiyot yo'limizni hech bir mafkuraviy aqidasiz o'rganish va yoritish imkoniga ega bo'ldik. Chunki “tarix xotirasi xalqning, o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqiqiy tarixini

tiklash milliy o'zlikni anglash va milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirishda muhim o'rinni tutadi". "O'zbekiston SSR" yo'q bo'lib ketdi, ammo o'zbek xalqi, uning o'z davlatchilagini qurish imkoniyati o'z milliy davlatida yashash istagi yo'qolgan yo'q.

O'rganilayotgan mavzuning, ilk va qadimgi davrlari uchun arxeologik materiallar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbek davlatchaligining o'rta asrlardagi ahvoli va taraqqiyoti masalalarini o'ganishda esa asosiy manba bo'lib yozma yodgorliklar xizmat qaladi. Davlatchalik tarixining eng qadamgi davrlariga oid xolatni muayyan ma'noda tasavvur qilishimiz uchun yozma guvohliklar ham yo'q emas. Mazkur nodir manbaning maloddan avvalgi VIII-VII asrlarga oid qismida ijtimoiy iqtisodiy munosabatlarga bog'liq ma'lumotlarning ham mujassamlashgani ma'lum. Ular orqali o'sha zamonlarda kechgan ijtimoiy jarayonda davlatchilik kurtaklari qanday unib borganani ko'rish mumkin.

O'zbekiston davlatchiligi tarixining ilk davrlarini o'rganishda «Avesto» alohida ahamiyatga ega. «Avesto» - mazdayasna dinidagilarning muqaddas kitoblari to'plami bo'lib, O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishdagi eng qadimgi va muhim yozma manbalardan hisoblanadi. Mazdayasna dini O'rta Osiyoda miloddan avvalgi VII-VI asrda paydo bo'lib, islam dini kirib kelgunicha O'rta Osiyo xalqlari tomonidan u yoki bu darajada e'tiqod qilib kelingan. Bu dinning asoschisi Zaratushtra - tarixiy shaxs. Bizga etib kelgan u haqidagi ayrim ma'lumotlarga ko'ra Zaratushtra Spitama urug'idagi kohinlar toifasiga mansub bo'lган. Uning otasini Paurashaspa, onasini Dugdova deb atashgan. U oilali bo'lib, farzandlari bo'lган. Zaratushtraga o'zining yangi ta'limotini o'z vatanida targ'ib qilish ta'qilangan va dasht hududlaridan quvg'inga uchragan. Ko'p yillik sargardonlikdan so'ng u sharqiy Eron podshosi Kavi-Vishtasp saroyida panoh topgan. Podsho, uning xotini malika Xutaosa, uning yaqinlari va saroy ahli birinchilardan bo'lib yangi dinni qabul qiladilar.

«Avesto» degan umumy nom bu muqaddas matnlarga sosoniylar davrida berilgan. «Avesto» nomining aniq bir tarjimasi yo'q; ba'zi mutaxassislar uni

«asos», «qat’iy qonunlar», ba’zilar «ko’rsatma» yoki «sharaflash» deb tarjima qilishadi. Sosoniylar davriga oid «Avesto» 21 kitobdan iborat bo’lgan, bizgacha ulardan faqat 4 tasi (shulardan bittasigina to’liq holda) etib kelgan. «Avesto»ning bizgacha etib kelgan qismlari quyidagilar: «Yasna», «Visparat», «Videvdat», «Yasht» lardir.

«Avesto» mazdayasna dinining muqaddas kitobi sifatida mil. avv.VI asrda paydo bo’lgan bo‘lsada, unda tasvirlangan ayrim voqeа-hodisalar, ushbu dining shakllanish bosqichlari davrini mil. avv. III-II ming yilliklarni aks ettiradi. Bu shunisi bilan muhimki, so‘nggi yillardagi arxeologik tadqiqotlar davlatchiligidizning ham miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda paydo bo’lganligi to‘g‘risida fikr bildirish imkonini bermoqda. Demakki, «Avesto» - davlatchiligidizning ilk davrlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Xo‘s, bu holat, ya’ni davlatchiligidiz va «Avesto»da aks etgin mazdayasna dinining bir davrda paydo bo‘lishi tasodifmi? Yo‘q. Biz aksariyat hollarda davlatning shakllanishida siyosiy va iqtisodiy omillarga ahamiyat bergen holda, uning shakllanishida e’tiqodning mavjud bo‘lishligi ham shart ekanligiga ko‘pda e’tibor bermaymiz. Vaholanki, har qanday davlat paydo bo‘lishi uchun e’tiqodning ham bo‘lishi zarur. Shuning uchun ham davlatchiligidiz shakllanish davri bilan «Avesto» da tasvirlangan mazdayasna dinining bir davrda paydo bo‘lishi tasodif emas, balki qonuniyat. Keling endi, davlatchiligidiz bosqichlari bilan mazdayasna dining rivojlanish bosqichlari masalasiga e’tibor beraylik.

Agarda yaxshiroq tadqiq qilsak, bu erda ham ma’lum bog‘liqliklarni ko‘rish mumkin. Umuman, ushbu taqqoslash ayrim muammolarga javob ham beradi. O‘rta Osiyo hududidagi eng dastlabki olov ibodatxonalari eneolit davriga to‘g‘ri keladi. Sarazm (Tojikiston) yodgorliklaridan topilgan dumaloq ko‘rinishidagi ibodatxona shulardan biri hisoblanadi¹³. Ushbu davr ibodatxonalari patriarchal qishloq jamoalariga qarashli bo‘lib, ibridoiy ko‘rinishdagi uy-joylar ichida bo’lgan. Ular urug‘chilik jamiyatidan davlatchilik bosqichiga o‘tish davriga to‘g‘ri keladi.

¹³ Исхоков А. Саразм. – Душанбе, 1991.

Shunday qilib, davlat ibtidoiy jamiyatdan o‘sib chiqqani singari otashparastlik ta’limotining ilk ko‘rinishlari ham ibtidoiy davr oxirlarida shakllana boshlaydi. Keyingi davr bronza davri otashparstlik ibodatxonalarini o‘zining hashamatliligi bilan ajralib turadi¹⁴. Bu bizning nazarimizda davlatchiligidan ilk bosqichi bo‘lgan shahar-davlatlarning paydo bo‘lishi bilan izohlanadi. SHahar-davlatlar davri ibodatxonalarini odatda shaharning eng baland qismida, boshqa binolardan ajralib turishi uchun baland tagkursi ustida bunyod etilgan. Ular alohida mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan (Dashli-3, Jarqo‘ton, Tillatepa, Tagolok-21). Ibodatxonalar diametri 40-60 metrni tashkil etgan. Ibodatxonada muqaddas ichimlik – xaoma tayyorlanadigan xonalar ham bo‘lgan. Ular shahar- davlatlarning bosh ibodatxonasi vazifasini o‘tagan.

Yangi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘rta Osiyo hudularidan topilgan piktografik belgi-yozuvlar bronza davriga oid bo‘lsa-da, ular hozircha kam sonli bo‘lib, qadimgi jamiyat haqida to‘liq ma’lumotlar bera olmaydi. Milloddan avvalgi V-IV asrlarga oid ayrim kam sonli topilmalar ham (Xorazm, sak yozuvlari) to‘liq emas. O‘rta Osiyo hududlaridan milloddan avvalgi III-II asrlarga oid ko‘plab tanga pullar topilganki, ular qadimgi tarixni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Undan tashqari to o‘rta asrlarga qadar etib kelgan ko‘p sonli yozma manbalar ma’lumotlari ham muhimdir.

Olib borilgan arxeologik va antropologik tadqiqotlar natijalari qiyosiy tahlil etilar ekan, qadimgi davrdagi O‘rta Osiyo hududida yashagan qadimgi aholi tarixini tadqiq etish bir necha sabablarga ko‘ra katta ahamiyat kasb etishi kuzatiladi. Ushbu ahamiyatli holatni quyidagicha izohlash mumkin: birinchidan, bu davrda aholining tabiiy hududlar bo‘yicha xo‘jalik jihatdan tabaqalanishi sodir bo‘ladiki, olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari O‘rta Osiyo va Qozog‘istonning asosan dehqonchilik bilan shug‘ullangan janubiy hamda asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan shimoliy hududlarini ajratish va o‘zaro taqqoslash imkonini beradi. Ikkinchidan, dehqonchilikka va ishlab chiqaruvchi iqtisodga erta o‘tish dehqonchilik jamoalari sonining ortishini hamda ilk

¹⁴ Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд, 1993.

shaharlarning rivojlanishini belgilab berdi va demografik jihatdan ta'sir ko'rsatib ortiqcha aholining turli arxeologik madaniyatlarga va xo'jalik yuritish tartibiga mansub bo'lgan tabaqalarning ko'chib ketishiga turtki berdi. Uchinchidan, O'rta Osiyo hududida murakkab etno-madaniy jarayonlarning sodir bo'lishi, hozirgi zamон o'lkamiz xalqlarining shakllanishida uzoq qadimga borib taqaluvchi mahalliy unsurlarning ustunligi qadimgi davrlar bilan bevosita bog'liqdir. To'rtinchidan, aynan mana shu aholi ilk shaharlar madaniyatini rivojlantirish jarayonida o'lkamiz hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning boshqaruvchilari bo'lib, ularning ilk dehqonchilik manzilgohlari va dastlabki shaharsozlik madaniyatining yaratuvchanligi xususiyatini ham alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Turli arxeologik madaniyatlar keng tarqalgan O'rta Osiyo hududida so'nggi bronza va ilk temir davrida kuzatiluvchi manzara muayyan tarixiy-madaniy jarayonlar o'ta murakkab kechganligini ko'rsatadi. Shimol chorvadorlari madaniyati bu bronza davrining Andronov madaniyati bo'lib, Qozog'iston hududlarini to'la qamrab olib g'arbda Volga orti cho'llarigacha, sharqda Minusinsk havzasigacha cho'ziladi. Chorvadorlar madaniyatining izlari o'sha davrning ko'pgina qo'rg'onlaridan aniqlangan bo'lib, ulardan ko'p sonli bronza va sopol buyumlar, mehnat va jangovar qurollar hamda san'at asarlari topilgan. Ular qadimiyligi jihatdan Old Osiyodan keyinda turadi.

Xalqimiz an'analari, tajribasini oshishi, ishlab chiqaruvchi xo'jalikning rivoji va temirning kashf etilishi bilan mil. avv.I ming yillik boshlariga kelib, shahar-davlatlar konfederatsiyasi, ya'ni podshohliklar paydo bo'ladi¹⁵. Bu ulkan hududlarni qamrab olgan davlatlar bo'lib, ular bir muncha tartibga solingan va aniq qonunlardan iborat yangi e'tiqodga ehtiyoj sezadi. Zero, bu e'tiqod kichik bir vohaningga emas, balki bir nechta vohalar aholisining e'tiqodi vazifasini o'tay olishi kerak edi. SHu tariqa yangi takomillashgan ta'limot paydo bo'ladi. Bu ta'limotning sig'inish ob'ekti endi olovgina emas, Axuramazda hisoblanadi.

¹⁵ Кудратов С. С. Марказий Осиё худудида илк давлатларнинг пайдо бўлиши. – Гулистан, 1998.

SHu sababli bu ta’limotni endi otashparastlik deb emas, balki mazdayasna deb nomlanishi maqsadga muvofiqdir.

Davlatchiligidan ilk podshohliklar davri (eramizdan avvligi I ming yillik) «Avesto» da bir mucha kengroq berilgan. Ushbu manba yaratilishi arafasida ijtimoiy munosabatlar taraqqiy etib, ilk davlatchilik kurtaklari paydo bo‘layotgan davr edi. “Avesto” ma’lumotlariga ko‘ra, bu jamiyat chorvador hamda yarim o‘troq – yarim ko‘chmanchi va o‘troq dehqonlar jamiyati bo‘lib, ularning asosiy mulki – boyligi chorva mollari, shudgor qilib ekiladigan yerlar va yaylovlar bo‘lgan. Uning matnlarida dunyodagi eng go‘zal va maftunkor o‘lkalar qatorida chorva uyurlari o‘tlab yurgan dalalar ham madh etilgan. Jumladan, Vendidodning III fargardi 1-qismida: “Zamini hammadan ko‘ra baxtliroq bo‘lgan dunyodagi birinchi joy qaer? deb so‘ralganda Axuramazda javob bergen: “Ey, Spitomo Zardusht! Bunday joy qo‘lda pokiza o‘tin, barsam, hovan va yangi sog‘ilgan sut tutgan, o‘z –amal e’tiqodiga dilda ishonchi sobit, o‘ktam ovoz, keng yaylovlar ishqil bilan masrur va bu yaylovlni qo‘sishqa solgan Ashavon oyoq bosgan zamindir”¹⁶. Demak, dunyodagi eng baxtli birinchi joy – bu yangi sog‘ilgan sut, keng yaylovlar va chorvaga ega bo‘lgan joylardir. “Avesto” yashtlarida turlar, danayturlarining Yaksart saklari ekanligi¹⁷, “Avesto” ning muqaddas ilox Anaxitaga bag‘ishlangan qismida dastlabki Turon podsholari qarorgohlaridan Qang‘xa (Qang‘e) “baland va muqaddas” deb ta’riflangan siyosiy va diniy markazning Sirdaryoning o‘rta oqimida bo‘lganligi¹⁸, xaomu pishiruvchi buyuk “tur”lar – xaumovargalarning Sirdaryo atrofidagi dashtliklarda yashaganligi kabilar ham eslatiladi¹⁹.

Umuman “Avesto”da aholi ijtimoiy hayoti haqida ham keng tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin. Bu davrdagi ijtimoiy hayotni tahlil qiladigan bo‘lsak, qadimgi dehqonchilik mintaqalarida boshqaruv tizimining tepasida “chorva va

¹⁶ Абдолниёзов Б., Исхоков М. Авеста ва қадимги чорвачилик. – Т.: 2008 – Б. 71.

¹⁷ Абаев В.И. Скифский быт и реформа Зороастра. Archiv Orientalni, XXIV, 1956, №1.17c.

¹⁸ Бартольд В.В. Согд-сочинение\\ Т-III. Москва, 1965.94стр.

¹⁹ Абдуллаев К.А. Культ хаомы в древней центральной азии. Самарканд, 2009. С. – 47-49.

keng yaylovlar egasi” turganligi oydinlashadi²⁰.. Jangchi askarlar bu oriyalar bo‘lib, koxinlardan keyingi mulk egalari bo‘lganlar. Yasnalarda Axuramazda aytadi: “Men ushbu muqaddas zaminda chorva mollarini asrovchi, chorva egalariga ozod hayot va erkin yurishni ta’min etaman” (Yasna, 24. Gatlar). Akademik A.A. Asqarov ta’biri bilan aytganda, “Ana shu erkin hayot a’zolari oriyalar edi. Avestodagi chorvadorlar toifasi esa koxinlar va jangchi oriyalar boyligi – chorva mol- qo‘ylari va yilqilarini boquvchi cho‘ponlardir”²¹. “Avesto”da asosiy boylik chorva hisoblanganligi uchun ham chorva va uning soxiblariga nisbatan ulug‘ alqovlar keltirilgan.

«Avesto» ning «Vedivdat» kitobiga ko‘ra, zardo‘shtiylikning ulug‘ va donishmand xudosi Axuramazda payg‘ambar Zaratushtraga bunday xabar qiladi: «O, Spitama Zaratushtra, odamlar yashaydigan joylarga, bu erlarda baxt qanchalik kam bo‘lsada, tinchlik tortiq qildim. Birinchidan, odamlar yashashi uchun eng yaxshi mamlakatga Vanxvi Daitya daryosidagi Aryonam Vayjoga asos soldim». Aryonam Vayjoning qayda joylashganligi masalasi hanuz fanda keskin bahslarga sabab bo‘layotgan bo‘lsada, ko‘pchilik mutaxassislар, jumladan ingлиз олими I.Markvart uni davlatchiligimiz tarixidagi ilk podshohliklardan bo‘lgan, mil. avv.VIII-VII asrlardagi «Katta Xorazm» podshohligi bo‘lgan deb hisoblaydi. «Ikkinchidan, men Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan bo‘lgan Gava - sug‘dlar makoniga asos soldim». Ma’lumki, Sug‘d bu Zarafshon va Qashqadaryo vohalari, hozirgi Samarqand, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari hududlari. «Uchinichidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan bo‘lgan qudratli Mauraga asos soldim». Maura – bu Turkmanistonning Murg‘ob daryosi havzasi.

«To‘rtinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan bo‘lgan baland bayroqli go‘zal Baxdiga asos soldim». Baxdi – bu O‘zbekistonning Surxon vohasi, Tojikistonning janubi va shimoliy Afg‘oniston. «Beshinchidan, . . . Nisoni . . . » va qatorasiga o’n oltida mamalakat sanab

²⁰ Исҳоқов М. Авестода чорва ва чорвадорлар // Ўзбекистон ҳудудида дехқончилик маданиятининг тарихий илдизлари ва замонавий жараёнлар. Т.: 2006. –Б. 44.

²¹ Аскarov А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Т.: «O’zbekiston» 2015. –Б. 96.

o‘tiladi (31). Qolgan o‘lkalar bizning yurtimiz hududiy kengliklaridan chetda bo‘lganligi uchun ularni keltirib o‘tirmaymiz. Asardagi ma’lumotlardan miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida O‘rta Osiyoda Xorazm, Baqtriya, So‘g‘diyona, Marg‘iyona va Niso singari mamlakatlar bo‘lganligi haqida fikr bilidirish mumkin.

«Avesto»da jamiyatdagi fuqarolar toifalari haqidagi ma’lumotlar ham davlatchiligimiz tarixi uchun muhim ahamiyatga ega. «Yasna» da yozilishicha, jamiyatda to‘rt toifa: kohinlar, jangchilar, chorvadorlar va hunarmandlar mavjud bo‘lgan. Shuningdek, unda yozilishicha jamiyat to‘rt bosqichli: 1) nmanyा (oila); 2) vis (urug‘); 3) zantu (qabila); 4) daxyu (mamlakat) bo‘lgan. Nmanyа (oila) patriarchal oila hisoblanib, uni nmanapati (erkak boshliq) boshqargan. Oila o‘z navbatida ota tomonidan katta oila – «nafa» tarkibiga kirgan. «Nafa» a’zolari erga, yaylovga va boshqa mol-mulkka birgalikda egalik qilishgan.

Vis (urug‘) bir nechta «nafa» lardan iborat bo‘lgan. Urug‘ boshlig‘i vispati deb atalgan. Urug‘ hayotiga oid muhim muammolar «nafa» boshliqlaridan iborat bo‘lgan urug‘ Kengashida muhokama qilingan. Voyaga etgan yoshlarni urug‘ a’zoligiga qabul qilish ham urug‘ Kengashida xal qilingan. YOshlar ma’lum udumlarni muvaffaqiyatli bajargan taqdirdagina urug‘ning teng huquqli a’zolari xisoblangan. SHundan keyingina uylanishlari yoki boshqa huquqlarga ega bo‘lgan. Zantu (qabila) jamiyat hayotida urug‘ga qaraganda unchalik ahamiyatga ega bo‘limgan. Qabila hayotiga oid masalalar qabila Kengashi-xanchamanada xal qilingan. Daxyu (mamlakat)ni daxyupati boshqargan. Daxyupati mamlakatni «daxyunam fratemedato»–birinchilar Kengashi bilan maslaxatlashib boshqargan²².

«Avesto» davlatchilimizning ilk bosqichlarida qanday ijtimoiy munosabablar bo‘lganligi muammosini o‘rganishdagi ahamiyati ham muhimdir. Ma’lumki, yaqin-yaqingacha ilk davlatlarimiz quidorlik ko‘rinishida bo‘lgan deb kelindi. Xattoki hozirda ham ayrim darsliklarimizda ushbu holat davom etmoqda. Ushbu fikr tarafдорлари o‘z qarashlarini «Avesto» asosida ham tasdiqlamoqchi

²² Стеблин – Каменский «Авесто» Душанбе 1989 г.

bo‘ladilar. Haqiqatdan ham, «Yasna»da oilaning teng huquqli a’zolari – vira, vaysa, pariayterlar haqida ma’lumot bor. YUqoridagi qarash tarafdoirlari ularni qullar, jamiyatni esa quldorlik ko‘rinishida bo‘lgan, degan xulosaga keladilar²³. Vaholanki, xuddi shu erda vira, vaysa, pariayterlarning hamma qatori diniy marosimlarda qatnashganliklari va bu marosimlarda hamma qatori to‘lov to‘laganliklari haqidagi ma’lumotlarga e’tibor berishmaydi. Axir, hamma qatori diniy marosimlarda qatnashgan va eng muhimi hamma qatori to‘lov to‘lagan kishilarni qul deb biladimi?! Yo‘q, albatta. Axir qullar odam sifatida ko‘rilmagan va ularning diniy marosimlarda hamma qatori qatnashishlari umuman ta’qiqlangan. Demakki ilk davlatlarimizdagi ijtimoiy munosabatlar quldorlik ko‘rinishida bo‘lмаган. Ulardagi ijtimoiy munosabatlarni, sun’iy sug‘orishning jamiyat hayotida tutgan muhim mavqeini xisobga olib, O‘rta Osiyodagi ilk davlatlarni «OsiyoCHA ishlab chiqarish usuli»dagi davlatlar deb atash maqsadga muvofiqdir.

Avesto davlat boshqaruving murakkab tizimi haqida ma’lumotlar beradi. Bu ma’lumotlarga ko‘ra, mil. avv. VII-VI asrlarda O‘rta Osiyo jamiyatining asosi kichik-kichik oilalardan iborat bo‘lib, har bir oila o‘rtacha 5-6 kishidan tashkil topgan. Ular katta patriarchal oila a’zolari hisoblangan. Katta oila esa 20-25 kishidan tashkil topgan. Jamoalar hayotida urug‘chilik tuzumining ayrim xususiyatlari saqlanib qolgan. Katta oila a’zolari tomonidan xo‘jalikni tashkil etish, erga birgalikda egalik qilish va umumiylar joyda – uy-qo‘rg‘onlarda yashash odati yuqoridagi fikr dalilidir.

Davlatning boshqaruvining tizimi oilalar yoki uy-joy birlashmasi – «nmana»yoki «dmana», katta oila oqsoqoli – «nmanapati», urug‘ jamoasi boshlig‘i – «vis», katta qishloq oqsoqoli «vispati», kabila boshlig‘i – «zantupati», viloyat hokimi – «daxyupati», bir necha viloyatlar hokimi – «daxyusastar», mamlakat hokimi – «kavi» lardan tashkil topgan. Avestoda oila, urug‘ va kabila boshlig‘ini anglatish uchun «pati» so‘zi ishlatilgan. «Kavi» yoki «sastar» mamlakatni idora qilgan

²³ Массон В.М. К вопросу об общественном строе древней Средней Азии. – В кн.: история, археология и этнография Средней Азии. – М., 1968.

shaxsga nisbatan ishlatilgan. Avestoning Yasht kitobida quyidagicha ma'lumot bor: “Ko‘p yaylovlarga ega bo‘lgan Mitrani biz ulug‘laymiz .Unga hech kim yolg‘on gapira olmaydi: uyda oila boshlig‘i, urug‘ oqsoqoli, kabilia yo‘lboshchisi va mamlakat hokimi ham yolg‘onchi bo‘lsa, g‘azablangan Mitra butunlay oilani, urug‘ni, kabilani, mamlakatni va ularning boshliqlarini ham tamoman yo‘q qiladi.”

Ayrim tadqiqotchilar ilmiy tahlillarga asoslanib Avestoda tasvirlangan va O‘rta Osiyo hududida shakllangan ilk davlatchilik asoslarining vujudga kelish jarayonini quyidagi uch davrga ajratadilar: Birinchi davr – eng qadimgi davr bo‘lib, bundaadolat va insoniy baxt-saodat hukmron bo‘lgan. Ikkinci davr – yaxshilik ruhlari bilan yomonlik ruhlari o‘rtasidagiadolat uchun kurash davom etgan. Uchinchi davrda – aql-idrok vaadolat tantana qilib, dehqonlar badavlat, davlatning siyosiy va qonunchilik tizimi mustahkam bo‘lgan. A. S. Sagdullaev uzoq yillik qiyosiy tadqiqotlar asosida Avesto davri davlat boshqaruvini quyidagicha izohlaydi:

Boshqaruv tizimi	Avesto tushunchalari
Uy qo‘rg‘on jamoasi	Uy egasi
Qishloq jamoasi	Qishloq oqsoqoli
Tuman – bir necha qishloq jamoalari	Oqsoqollar kengashi
Viloyat (bir necha tuman)	Viloyat hokimi
Mamlakat	Mamlakat hokimi

Shuningdek, olimning fikricha, Avestoning Yasht kitobida keltirilgan ma'lumotlar O‘rta Osiyoda kabilalar siyosiy birlashmasining tarkib topgan davrlariga mansub bo‘lishi mumkin. Avesto davrida xususiy mulk

quyidagilardan iborat bo‘lgan: uy-joy, chorva, tomorqa erlari, ishlab chiqarish qurollari, barcha ro‘zg‘or va shaxsiy buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari.

Avesto madhiyalarida ma’lum ijtimoiy bosqichlardagi izchillik va ierarxiyani ham ajratish mumkin. Shuningdek, Avestoda ilk shaharlar shakllanish bosqichlari Axuramazda farmoni bilan dastlabki odam Yima tomonidan mustahkamlangan «vara» bunyod etishi misolida kuzatiladi. Bunday «vara» lardan biri arxeologlar tomonidan Janubiy Ural – Qozog‘istondagi «shaharlar o‘lkasi» dan topilgan bronza davrida oid Arkaim yodgorligida bo‘lishi mumkin. Arkaim yodgorligi bir nechta mustahkamlangan manzilgohlardan iborat bo‘lib, xandaqlar va qatorli mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan, kirish qismi himoyalangan. Yodgorlik murakkab va aniq tuzilishga ega. Yodgorlik hududlaridan, hunarmandchilikning avvalo, metall eritish va unga ishlov berishning izlari, bronzadan yasalgan buyumlar, turar-joylarning Avesto madhiyalarida eslatilgan «vara» shaklidagi bunyod etilishi shahar madaniyati belgilarini, ijtimoiy va madaniy tarqqiyotining yuqori darajasini, nom-davlatlar ko‘rinishidagi shaharlar shakllanishini o‘zida aks ettiradi. Bu jarayonning bosqichma -bosqich rivojlanishi esa, O‘rta Osiyoning janubiy va markaziy hududlarida kuzatiladi.

Mil avv. VI asrning o‘rtalariga kelib Erondagি Ahamoniylar sulolasи hukmdorlari Qadimgi SHarqdagi ko‘pgina mamlakatlar ustidan, jumladan, O‘rta Osiyodagi Parfiya, Marg‘iyona, Baqtriya, So‘g‘diyona, Xorazm, “Saklar o‘lkasi” ustidan o‘z hokimiyatini o‘rnatdilar. Ahamoniylar davrida bitilgan mixxat manbalarda O‘rta Osiyo xalqlari va viloyatlari haqida turli ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Bu yozuvlar mil avv. VI-IV asrlarga oid bo‘lib, Eron hududlarida, xususan, Behistun va Naqshi Rustam qoyalarida, Suza, Persepol va Hamadon shaharlaridan topib o‘rganilgan. Bular orasida eng muhimi Behistun yozuvlari bo‘lib, u Doro I davrida yozilgan. Bu yozuvlarda Doro I bosib olgan o‘lkalar sanab o‘tiladi. SHuningdek, bosib olingan hududlarda forslarga qarshi qo‘zg‘olonlar haqida ma’lumotlar beriladi. Behustun qoyalariga bitilgan

yodnomalarda jangovor saklar haqida “... ularning o‘zлari cho‘qqi qalpoq kiyib yuradilar. Men daryoga etib keldim. Ularning sardori Skunxa ismli odamni tutib, mening huzurimga keltirdilar. Men o‘z hohishim bilan saklar yurtiga yangi boshliq tayin qildim” degan jumlalarni ham o‘qishimiz mumkin²⁴.

Suza shahridan topilgan yozuvlarda Doro I bunday e’lon qiladi: “Suzadagi saroyni men bino qilganimda uning bezaklari uzoq yurtlardan olib kelingan. Uaka yog‘ochi Ganxaradan, oltin - Sard va Baqtriyadan, yaltiroq toshlar va lojuvard So‘g‘diyonadan, feruza-Xorazmdan, kumush va bronza Araxoziyadan, tosh ustunlar - Elamdan yetkazib kelingan.” Podshox saroyida o‘rnatilgan haykalidagi yozuvlarda esa, Baqtriya, So‘g‘diyona va Xorazmdan tashqari “balchiq va tuproq o‘lkasi saklari” ham tilga olinadi²⁵.

Persepol shahridagi saroy devorlarida baqtriyaliklar, xorazmliklar, so‘g‘dlar va saklarning o‘yib ishlangan rasmlari topilgan. Bu rasmlarda So‘g‘diyona, Baqtriya, Xorazm va saklar o‘lkasidan bo‘lgan soliq to‘lovchilarning ahamoniylarga turli xil buyumlar (hunarmandchilik, tikuvchilik, zargarlik, harbiy qurollar), hamda qadimgi Sharqda mashhur bo‘lgan otlar va tuyalarni soliq sifatida olib kelayotgani tasvirlangan. Xullas, ahamoniylar davri yozuvlarida o‘lkamiz xalqlarining qadimgi tarixiga oid quyidagi ma’lumotlar saqlangan: viloyatlar va xalqlarning nomlari, ayrim siyosiy jarayonlar, saklar yurtiga qarshi yurishlar, iqtisodiy tuzum va moddiy madaniyat ma’lumotlari.

Naqshi Rustam yozuvlarida mamlakatlar ro‘yxati Midiya va Elamdan so‘ng sharqiylar viloyatlardan boshlanadi: “Baqtriya, So‘g‘diyona , Xorazm, Saka Xaumavarka, Saka tigraxauda...dengizdan narigi erdagи saklar”, tarzida²⁶. K. Shoniyoзовning yozishicha saklarning yirik uchta guruhidan tashqari to‘rtinchи guruhi “So‘g‘diyonadan keyin, uning narigi tomonida (Ustrushona hududlarida F.T.) yashovchi saklar haqida Persopoldagi hamda Ekbotandagi yozuvlarda ham aks ettirilgan”²⁷. Ular eron-fors manbalarida qayd etilishicha, Osiyo qit’asidagi

²⁴ Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи... –Б.100.

²⁵ Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи... –Б.101.

²⁶ Ўша манба... Ўша жойда...

²⁷ Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 112.

yirik qabila birligi bo‘lgan. Persepol devorlaridagi eron ahomoniylariga tobe mamlakatlardan hiroj olib kelgan vakillar suratlari bo‘rtma uslubda ishlangan. Uning o‘n birinchi qatorida cho‘qqi qalpoq kiygan tigraxauda saklari dasht otini etaklab kelayotgan holda tasvirlangan²⁸. Ushbu bitiklardan saklarning kiyinishi, xo‘jalik mashg‘ulotlari va siyosiy hayoti haqida ma’lumot olishimiz mumkin.

Qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida ham O‘rta Osiyo xalqlari haqida ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Yunon-rim tarixchilaridan birinchi bo‘lib “tarixning otasi” Gerodot (mil.avv. V asr) O‘rta Osiyo xalqlari haqida ma’lumotlar beradi. Gerodot o‘zining mashhur “Tarix” kitobini mil. avv. 455-445 yillarda yozgan. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, Gerodot O‘rta Osiyo viloyatlarining birortasida ham bo‘lmagan. SHuning uchun ham O‘rta Osipyodagi xalqlar, viloyatlar joylashuvidan nafaqat aniq, balki umumiylar chegaralaridan ham bexabar bo‘lgan. O‘rta Osiyo viloyatlari haqida esa, o‘zi eshitgan hikoyalari, surishtirib bilganlari asosida yozgan.

A.Sagdullaevning hisobiga qaraganda, Gerodot “Tarix” kitobida Baqtriya, Baqtra, baqtriyaliklarni 45 marta, so‘g‘dlarni 2 marta, xorazmliklarni 3 marta, saklarni 11 marta, massagetlarni 19 marta tilga olib ularning moddiy madaniyati, urf-odatlari, dini va tarixi haqida hikoya qilgan.

Gerodotning O‘rta Osiyo to‘g‘risidagi asosiy fikrlari forslarning sak-massagetlarga qarshi yurishlari, Kir II va To‘maris o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar, ahamoniylar harbiy qo‘shinlari safida yurtimiz xalqlari jangchilarining ishtiroki, ularning yarog‘-aslahalari, yo‘lboshchilari, fors-yunon urushlarida ularning jasorat ko‘rsatganligi, xalqlarning ahamoniylar davlatiga bo‘ysunishi va soliq tartibi, sak-massagetlarning turmush tarzi va diniy e’tiqodi va boshqa ayrim ma’lumotlardan iborat.

Misol uchun Gerodot massagetlar haqida shunday xabar qiladi: “Bug‘doyni massagetlar ekmaydilar, chorvachilik va baliqchilik bilan (Araks daryosida baliq serob) shug‘ullanadilar hamda sut ichadilar. Massagetlar ichida ulug‘langan yagona xudo - bu Quyoshdir, Quyoshga ular otlarni qurban

²⁸ Ўша манба. Ўша жойда...

qiladilar, chunki xudoga dunyodagi eng chaqqon - tezchopar jonliqni qurban qilish lozim deb o‘ylaydilar”.

Asli Kichik Osiyodagi Knid shahrilik bo‘lgan yunon tarixchisi Ktesiy ahamoniylar podshosi Artakserks (mil.avv. 404-359 yy.) saroyida tabiblik qilgan. Ktesiy qalamiga mansub “Persika” asarining katta bir qismi baqtriyaliklar tarixiga bag‘ishlangan.

Ktesiy Ossuriya podshosi Ninning Baqtriyaga qilgan yurishlari, Baqtrianing poytaxti va ko‘p sonli mustahkam istehkom va shaharlar haqida ma’lumotlar berib jumladan shunday yozadi: “Baqtriyadagi ko‘pdan-ko‘p shaharlar orasida Baqtra nomli mashhur bir shahar bo‘lgan. Bu shahar mamlakatning markazi bo‘lib, ko‘p shaharlar o‘rtasida, baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o‘ralgan, unda podsho qal’asi joylashgan”.

YAna bir yunon muallifi Ksenofont “Kiropediya” nomli asarida Ktesiy xabarlariga o‘xhash, Baqtra shaharlarining ossuriyaliklar tomonidan qamal qilinishi to‘g‘risida ma’lumot beradi. SHuningdek, Ksenofont Kir II va Baqtriy urushlari haqida ham yozadi.

Mil. avv. IV asrning ikkinchi yarmida Aleksandr Makedonskiyning SHarqqa qilgan yurishlari natijasida O‘rta Osiyodagi qadimgi viloyatlar haqida ko‘plab yangi tarixiy-geografik ma’lumotlar paydo bo‘ldi. Keyingi antik davr mualliflari (Arrian, Kursiy Ruf, Strabon va boshq.) asarlaridagi ma’lumotlar ilk antik davr mualliflarinikiga nisbatan kengroq berilgan. Aleksandr yurishlari haqida yozgan tarixchilar asarlarida qadimgi O‘zbekiston viloyatlari, shaharlar, qal’alar, manzilgohlar, himoya devorlari, xo‘jalik va madaniy hayot haqida kengroq va batafsilroq ma’lumotlar olish mumkin.

O‘zbek davlatchiligi tarixining dastlabki bir yarim ming yilini yoritishda Xitoy manbalarining ham o‘rni katta. Biz bu yerda “Tarixiy guvohliklar” (miloddan avvalgi Q asr), “Ulug’ Xan xonadoni tarixi” (1 asr). “Kichik Xan xonadoni tarixi” (V asr). Vey xonadoni tarixi (VI asr), Shimoliy podshohliklar (Beyshi) tarixi” (VII asr), “Suy xonadoni tarixi (VII asr), “Xan xonadoni tarixi” (X asr) kabi xitoy talidagi birlamchi manbalarni ham nazarda tutilgan.

Tadqiqot mavzusi manbalariga biz shuningdek arman, suriyallik, rumlik (Vizantiya) mualliflari asarlarini ham kiritamiz. Ammo davlatchalik tarixini, ayniqsa, o'rta asrlar davrini keng va har tomonlama o'rganish va yoritib borishda turkyy, fore, arab manbalarinikg o'rni beqiyosdir. Albatta, biz hozir ularning barchasiga birma-bir, batafsil to'xtalib o'taolmaymiz. Chunki siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy hayot, elchalik aloqalariga oid ma'lumotlarni o'zida jamlagan tarixiy asarlarning soni juda ham ko'p.

Boshqa so'z bilan aytganda, tarixnavislikning rivojlanib borishi va ularda jamiyat hayotining turli yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlarning o'z aksini topishining o'ziyoq o'zbek davlatchaligi boy taraqqiyot yo'liga ega bo'lib kelganini ko'rsatadi. Buning ustiga tadqiqotchinilg vazifasini ma'lum ma'noda yengallashtiradigan jixatlar ham yo'q emas. Biz bu yerda o'rta asrlar tarixnavisligidagi sulolaviy tarixlarga bag'ishlangan asarlar silsilasini nazarda tutmoqdamiz. Bu borada Abul Fazl Bayhaqiyning "Tarixi Bayhaqiy", Muhammad ibn Sulaymon ar-Rovandiyning "rohat as-sudur", Sadriddin Ali al-Xusayniyning "Zubdat at-tavorix", Muhammad ibn Ahmad an-Nisoviyning "Sirat as-sulton Jaloliddin Mankbo'rni", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Tojiddin as Salmoniyning "Tarixi Toji Salmoniy", Abdurazzoq Samarcandiyning "Matlayin sa'dayn va majmai bahrain", Fazlulloh Ro'zbexonning "Mehmonnomayi Buxoro", Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma", Muhammadyor ibn Arab qatag'onning "Musaxxir al-bilod", Mahmud ibn Valining "Bahr al-asror fi manoqib al-axyor", Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy", Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanova", Abdurahmon Davlatning "Tarixa Abul Fayzxoniy", Mulla Vafo Karmanagiy va Olambekning "Tuhfat al-xoniy", Niyoz Muhammad Xuqandiyning "Tarixi Shohruxiy", Ahmad Donishning "Risola yo muxtasari az torixi sultanati xonadoni Mang'itiya" kabi asarlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Mazkur asarlar orqali muayyan sulola faoliyat ko'rsatgan zamonlardagi ijtimoiy-siyosiy hayot, davlat boshqaruvi, tashqi siyosat masalalari to'g'risadagi tasavvurlarni ixchamlashtirib olish mumkin. Ammo bu mintaqaviy

(masalan, “Tarixi Buxoro”, “Tarixi Seyiston”), umumtarix (masalan, “Tarixi Tabariy”, “Tarixi Ya’qubiy”, “Muruj az-Zahab”, “Tajorib al-umam”, “Tarixi komil”, “Majma al-ansob”, “Zayn al-axbor”, “Jome at-tavorix”, “Muntaxab at-Tavorix”, “Habib as-siyar” va boshqalar) uslubida bitilgan asarlarni kamsitmaydi, albatta. Har birining o’z o’rni bor. Masalan, sulolaviy tarixlardan Shomiy “Zafarnoma”sida Amir Temur taxt uchun kurash boshlagan yillar dan to 1404 yilgacha bo’lgan voqealar bayoni to’liq berilgan. Xam ichki, ham tashqi siyosat. Unda biz mamlakat, mintaqalari va dunyodagi jarayonni Amir Temur va temuriylar faoliyati orqali ko’ramiz. Umumtarix uslubidagi “Habib as-siyar”da esa umuman temuriylar, xususan, Amir Temur faolayatidan tashqari, misol uchun, kurtlar, sarbadorlarning tarixi va o’z o’rnida ularning, aytaylik, yana o’sha temuriylar xonadoni bilan munosabatini ko’rish mumkin. Natijada bir asar orqali ularni taqqoslash, jarayoni yaxlit ko’rish imkoni tug’iladi.

Ma’lumki, o’rta asrlar tarixnavisligi an’analariga ko’ra siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayot, tashqi aloqalarga oid ma’lumotlar alohida bir asarda yoki muayyan bir tartibda berilmay, asar uzra sochilgan bo’ladi. Bayon yilma-yil davrma-davr, yo biron katta voqealari ustida ketarkan, bir yil yoki biron sulola namoyondasi faoliyati bilon bog’liq sharhda tilga olingan mavzularning barchasi, yo faqat bir-ikkiasi bo'yicha ma'lumotlar uchrashi mumkin. Bu, albatta, tadqiqotchi ishini mushkullashtiradi. Masalan, saljuqiylar davrini olsak, Rovandiy Sulton Alp Arslonga bag’ishlangan bayonida asosan siyosiy munosabatlarga to’xtaladi. Aksincha, Xusayniy esa Sulton Alp Arslon bobida boshqaruv (vazir, devon, oxur, salor, amil, amit va boshqalar), harbiy tizim (maymana, maysara, lashkarboshi, qalb va boshqalar), etnik, tarixiy geografiya, tashqi siyosatga oid ko’plab ma’lumotlar bergen. Bir so’z bilan aytganda, har bir muallif va asarning imkoniyata har xil. Shuning uchun ham tegishli tasavvurga ega bo’lish uchun har bir manbani boshdan oyoq o’qib chiqish talab qilinadi. Chunonchi, Shahobiddin Nisoviyning asaridagi boblardan birida (85-bob) nafaqa (idror) haqida shunchaki so’z boradi. Biroq boshqa bir yerda (103-bob) xorazmshohlarning (anushteginiylar) nafaqa to’lash bilan bog’liq o’ziga xos

ananasiga ishora qilinadi. U ham bo'lsa, xorazmshohlarning o'zlarigacha bo'lgan va tayinlangan nafaqalarni bekor qilmasliklari, bu tartibni hatto nafaqani dushmanlari tayinlagan holda ham buzmasliklari to'g'risidagi qimmatli guvohliklardir.

Yuqorida biz bosh mavzuning manbaviy asoslarini iloji boricha kengroq olishga intilganimizni takidlagan edik. Buning sabablaridan biri shundaki, yurtimizda kechgan siyosiy jarayonlar xamma vaqt ham maxalliy manbalarda to'liq aks ettirilmagan. Masalan, Turk hoqonligining markaziy boshqaruv tizimi asosan yirik siyosiy davlat tadbirlari davlat osoyishtaligini saqlash, davlat sarxadlarini kengaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, diplomatik munosabatlar qabilardan iborat bo'lib, turklar o'zları zabit etgan hududlardagi boshqaruv tizimiga ma'lum darajada erkinlik bergenlar. Shuning uchun ham Farg'ona, Sug'd, Shosh, Ustrushona, Toxariston, Xorazm va boshqa mulklardagi boshqaruv tartibi asosan mahalliy sulolalar qo'lida bo'lган. Misol uchun, Sug'd va Farg'onada oliy hukmdor - "ixshid" Toxaristonda - "malikshox", Xorazmda "xorazmshox", Keshda "ixrid", Buxoroda "xudot", Ustrushonada - "afshin", Choch va Iloqda - "budun" deb atalgan²⁹.

Umuman olganda, jamiyatni qonunlar asosida boshqarish madaniyati bizda eng qadimgi davrlardan shakllanib kelgani haqida tarixiy guvohliklar yyetarli. Chunonchi, xitoy tilida bitilgan tarixiy asarlardan “Beyshi”da (VI asrga tegishli) yurtimizdagи bu boradagi ahvol haqida shunday ma'lumotlar bor: “Ularda ibodatxonada saqlanadigan turkiy tuzuklar to'plami bor. (Biron janoyatchiga) jazoni belgilashda mazkur tuzuklar (to'plamini) olib, (unga suyangan holda) hukm chiqaradilar”. Ya'ni qilingan jinoyat uchun jazoni biron-bir shaxs emas, balki muayyan huquqiy normalar belgilagan va u hamma uchun barobar kuchga ega bo'lган.

O'lkamizga islom dini kirib kelishi munosabati bilan jamiyat huquqiy hayotida yanga hukmron mafkura asoslari bilan bog'liq muayyan o'zgarishlar ro'y bergani shubhasiz. Ammo dastlabki yillardanoq, usuliy ziddiyatlar

²⁹ Баҳодир Эшов. Ўзбекистон давлатчилик тарихи. Т., Маърифаат, 2009, 199-бет

bulmagan hollarda islom makalliy huquqiy normalarga qarshi chiqmagan, ular saqlangan. Shu o'rinda bir gapni aytmasdan iloj yo'q. Mamlakatimizda islom dani qaror topgandan keyingi davrlardagi taraqqiyotning ba'zi yo'naliishlarini islom tushunchasi bilan bog'lash odati bor. Masalan, islom madaniyati, musulmon qonunchiligi, degan gaplar. Mazkur tushunchalarga e'tiqodi islom bo'lgan xalq madaniyati, jamiyat qonunchiligi nuqtai nazaridan yondashish to'g'ri, albatta. Ammo ba'zan uchrab turadigan holatlar, chunonchi, madaniy rivoj belgisi sifatida dinni asos qilib olish haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Zero, Turkistonda madaniyat, qonunchilik islomga qadar o'z yo'lida rivoj topib kelgan va bu o'ziga xoslik VII asrdan keyin ham mohiyatan o'zgarish topgani yo'q.

Qonunshunos olimlarimiz faoliyati keyingi asrlarda ham hech bir susaymagani aniq. Bunga hozirda o'zimizda va chet el kutubxonalari, jamg'armalarida saqlanayotgan fiqhga oid yuzlab asarlar dalildir. Biz tanlagan mavzu uchun ularning ahamiyati shundaki, huquqiy davlat, huquqiy jamiyat tushunchasi O'zbekastonga kirib kelmaganini, hayotni huquqiy asoslarda tashkil qilish bizga ajdodlardan qolgan madaniy meros ekanligini amalda ko'rsata olamiz.

Xullas, ko'rib o'tganimizdek, mavzuning manbaviy asoslari keng. Davlatchiligidan tarixini yoritish uchun turli tillarda bitilgan tarixiy asarlar soni ko'p. Ularda jamlangan hujjatlar, materiallar o'zbek davlatchiligi qadimiy tarix va uzoq taraqqiyot yo'liga ega ekanligini ilmiy ravishda isbotlaydi.

1.3. Mamlakatimiz hududida tashkil topgan ilk davlat uyushmalarida boshqaruvi tizimi va ijtimoiy munosabatlar

Jaxon tarixidagi Ilk davlatlar dexqonchilik yuzaga kelgan hududlarda – Ikki daryo oralig'i, Misrda paydo bo'ldi va asta-sekin qo'shni hududlarga ham (Kavkazorti, Eron, O'rta Osiyo, Xindiston, Xitoy) yoyila boshladi. Davlatchilik shaklanish jarayonini turli hududlarda turli davrlarda kechishi, o'sha joylardagi tabiat, iqlim, yer unumdarligi va shu kabi xususiyatlar bilan izohlanadi. Iqlimi

bir muncha qulay bo‘lgan Misr va Shumerda davlatchilik ertaroq paydo bo‘lgan. Bunga bu erlardagi yirik, sersuv daryolar mavjudligi sababdir. Bu daryolar yilning ma’lum paytlarida toshib, ham yaqin atrofdagi yerlarni sug‘organ, shu bilan birga u yerlarni o‘g‘itlagan ham. Bu holat yerga ishlov berishni osonlashtirgan, yerlar unumdor, hosildorlik yuqori bo‘lgan. Hosildorlikning yuqori bo‘lishi bu yerlarda davlatchilik shakllanishi uchun zarur, shart bo‘lgan qo‘srimcha mahsulotning tezroq to‘planishiga olib keladi. Natijada bu hududlarda davlatchilik juda erta, mil. avv. IV-III ming yilliklarda paydo bo‘ladi.

O‘rta Osiyo hududida bu jarayon bir muncha sekinroq borgan. Zero, O‘rta Osiyoda xo‘jalikning asosiy tarmog‘i—qishloq xo‘jalignining rivojlanishi sun‘iy sug‘orishning qanchalik taraqqiy etganligiga bog‘liq edi. Sun‘iy sug‘orishni yo‘lga qo‘yish esa bir muncha ortiqcha ishchi kuchi hamda harajatni talab etadi. SHuning natijasida O‘rta Osiyoda davlatchilik sun‘iy sug‘orish bir muncha taraqqiy etgan bronza davri o‘rtalarigagina kelib shakllanib boradi. O‘rta Osiyo shimolda Qozog‘iston cho‘llari, g‘arbda Kaspiy dengizi, sharqda Xitoy va Sibir, janubda Eron bilan chegaralangan yagona tarixiy-jo‘g‘rofiy hudud hisoblansada, uning ichida ham ayrim rayonlarning o‘ziga xosligi kuzatiladi. Bu o‘ziga xoslik har xil tabiiy sharoitlar, aholining etnik tarkibi, tashqi omil ta’sirida yuzaga kelgan.

Bronza davriga oid O‘zbekiston xududlaridan topib o’rganilgan, turli davrlarga oid Kaltaminor, Zamonbobo, Sopollitepa, Jarqo’ton, Mo’minobod, Gujayli, Chust, Burgulik kabi dexqonchilik va chorvachilik madaniyatları usha davr taraqqiyotidagi muxim xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan. Shu davrdagi O‘zbekiston tub axolisi xayotida katta ijtimoiy, iqtisodiy va madniy o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. O‘zbekistonning dastlabki davlat uyushmalari ham dexqonchilik vohalari axolisini chetdan bo‘ladigan bosqinlardan himoya qilish

va jamoadagi muosabatlarni huquqiy jixatdan boshqarib turish uchun tashkil topdi³⁰.

Arxeologik ma'lumotlarga asosan, miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarida O'zbekistonda (Surxon vohasi) dexqonchilik madaniyati ta'sirida ilk davlatchilikka o'tila boshlandi. Dastlabki davlatlar alohida makonlar yoki ilk shaharlar hamda ishlov beriladigan yerlar va sug'orish tizimi maydonlari bilan chegaralanganligi bois, kichik xududlarda, axoli zikh joylashgan voxalarda paydo bo'ldi. Bunday voxalar axolisi uchun tashqi xarbiy bosqinlardan himoyalanish, makonlar va manzilgoxlar xududini mudofaa qilish, sug'orish va dexqonchilik ishlarini tashkil qilish jamoaning ichki va tashqi aloqalarini boshqarib turish masalalarini yechish muxim va xayotiy zaruriyat edi. Bu vazifalarni hal etish zururiyati, turli vazifalarni amalga oshirish maqsadida qabila orasidan xurmatga loyiq kishilar-yo'lboshchilar ajralib chiqqa boshladи. Shu tariqa, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarqqiyoti aloxida o'ringa ega bo'lgan, qabiladagi ijtimoiy va xo'jalik xayoti ustidan nazorat qiluvchi kishilarning ajralib chiqishiga olib keldi, biroq bular hali xukumron tabaqaga aylanmagan edilar. Jamiyatda dastlab axloqiy va obro' nuqtai nazaridan ajralib turgan kishilar asta-sekin jamiyatdagi otadan o'g'ilga meros qoluvchi xokimiyat egalariga aylanib bordilar.

Ilmiy adabiyotlarda O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan Aryoshayyona – O'rta Osiyodagi qadimgi viloyatlar uyushmasi, Aryonam Vayjo yoki markazi Ariya va Marg'iyonada bo'lgan «Katta Xorazm» yoki Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm va Qadimgi Baqtriya ilk davlat uyushmalari xaqida so'z yuritiladi. Olimlarning fikricha, Aryoshayyona, «Avesto» da tilga olingan Kavi Vishtaspning podsholigi bo'lib, miloddan avvalgi IX-VIII asrlarda Drangiana, Satagadiyab Ariya, Marg'iyyona, Amudaryo o'rta oqimidagi yerkarni birlashtirgan.

G'arb olimlari V.B.Xenning va I.Gershovichlarning fikricha, Kavi Vishtaspning davlati Marv va Xirot atrofida joylashgan «Katta Xorazm»

³⁰ Кудратов С.С. Ўрта Осиё илк шаҳарлари ва давлатлари (ўкув қўлланма). Гулистан, 2007.

bo'lgan. Bu masala hali to'liq o'z yechimini topgan. Biroq, S.P.Tolstov va Ya.G'.G'ulomovlar Xorazm davlati qadim zamonlardanoq aynan Amudaryoning quyi oqimlarida yuzaga kelgan degan fikrni ilgari surishgan. Bu davlat xududi xozirgi Xorazmdan ancha katta bo'lgan. Miloddan avvalgi 700-540 yillarda Qadimgi Baqtriya davlatining (Baqtriya, Marg'iyona, So'g'diyonaning bir qismi) ancha rivojlangan davri bo'lib, uning xududlari Murg'ob vohasi, Xindiqush tizmasi, Badaxshon, Nurota tizmasi va Buxoro xududlarigacha borib yetgan deb taxmin qilinadi.

O'zbekistonning bronza davriga oid ilk davlatchiligi xaqida faqatgina arxeologik manbalar mavjud bo'lsa, miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmiga oid tarixi voqealar haqida «Avesto», Axamoniylar davri mixxat yozuvlari, antik davr Rim va Yunoniston tarixchilari asarlarida ma'lumotlar jamlangan. Biroq, faqatgina yozma manbalar yordamida bu masalaning to'la moxiyati ochib berilishi imkonsiz bo'lgani uchun bu davrdagi davlatchilik tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy turmush tarzi arxeologik manbalar yordamida ham o'r ganiladi.

Qadimgi davlatlar tipologiyasi tarix fanida nisbatan kam o'r ganilgan masalalardan hisoblanadi³¹. Ilk davlatlar rivojlanishi asosiy bosqichlari to'g'risida hozirgi zamon tarixchilari o'rtasida jiddiy kelishmovchiliklar yo'q. Deyarli barcha yirik mutaxassislar ilk davlatlarning quyidagi rivojlanish bosqichlarini tan oladi:

1. Davlatning eng qadimgi formasi – «shahar-davlat» yoki «nom».
2. Podshohlik (hududiy davlat).
3. Imperiya (yirik davlat).

Lekin yuqoridagi terminlarning aniq mazmuni va izohi borasida tarixchilar o'rtasida bahslar mavjud. Vaholanki, aynan ushbu vaziyat u yoki bu ilk davlatning davlatchilik rivojlanishining qaysi bosqichiga to'g'ri kelish-kelmasligini aniqlash imkonini beradi. Eng qadimgi shahar-davlatlar qadimgi

³¹ Дьяконов И. М., Якобсон В. А. «Номовые государства», «территориальные царства», «полисы», «империи». Проблемы типологии. // ВДИ. 1982. №2.

Shumerda nisbatan yaxshi o'rganilgan. Bu erda shahar-davlatlar miloddan avvalgi IV-ming yillikda paydo bo'ladi. Ular uncha katta bo'lмаган hududda, aniqrog'i, yo bir jamoa egallagan hududda yoki bir-biri bilan uzviy bog'liq bir necha jamoa hududlarida tashkil topadi. Aksariyat hollarda shahar-davlatlar biror bir tabiiy chegara (tog', dengiz, cho'l) bilan chegaralangan bo'lgan. Mana shunday aniq chegaralangan rayonga ega bo'lgan davlatlar «nom»lar deb yuritiladi. Bunday shahar-davlatlar markazida shu hududning bosh «iloh»iga bag'ishlab qurilgan ibodatxona bo'lgan. Uning atrofida saroy, oziq-ovqat omborlari, qurol-yarog' omborlari, hunarmandchilik ustaxonalari joylashgan. Ularning hammasi himoyalanish maqsadida mudofaa devori bilan o'rabi olingan bo'lgan. Shunday qilib, kichik davlat markazi – shahar yuzaga kelgan. Uning atrofida bir nechta qishloqlar joylashgan bo'lgan. Ular birgalikda ilk davlatlarning birinchi bosqichi «shahar-davlat» larni tashkil qilganlar. O'rta Osiyo hududidagi Oltin-depe, Namozgoh-depe, Ulug'-depe, Gonur-1, Togolok-1, Dashli-3, hamda Jarqo'ton barcha belgilariga ko'ra yuqoridagi shahar-davlatlarga mos keladi³². Ular kichikroq bir voha miqiyosida tashkil topgan shahar-davlatlar formasida bo'lib, ular miloddan avvalgi III ming yillik oxiri II ming yillikda paydo bo'ladi.

Qadimgi davlatchilik rivojlanishning 2-bosqichi podshohliklar hisoblanadi. Bu podshohliklar «shahar-davlatlar»ning xarbiy ittifoqi xarakterida bo'lgan. Bunda kuchsizroq shahar-davlatlar o'z ichki muhtoriyatini saqlagan holda, o'zidan kuchliroq markaziy davlatga hiroj yoki xarbiy yordam berishga majbur bo'lganlar. O'rta Osiyo hududida miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda paydo bo'lgan shahar davlatlar konfederatsiyalari ko'rinishidagi Katta Xorazm va Qadimgi Baqtriya podshohliklari shunday podshohliklarga to'g'ri keladi. Demak, Katta Xorazm va Qadimgi Baqtriya davlatlari shu vaqtgacha aytilib kelinganidek O'rta Osyoning eng qadimgi davlatlari emas, balki davlatchilik tariximizning 2-bosqichiga mansub davlatlardir.

³² Кудратов С.С. Ўрта Осиё илк шаҳарлари ва давлатлари (ўқув кўлланма). Гулистан, 2007. Б. 32.

Davlatchilik rivojlanishining 3-bosqichi – «imperiya» deb nomlanadi. «Imperiya» lar uchun yagona davlatga zo‘rlik bilan biriktirilgan iqtisodiy, jo‘g‘rofiy, madaniy va etnik jihatdan bir xil bo‘lmagan ulkan hududlar xarakterlidir. Ushbu hududlar yagona markazdan boshqarilgan. SHuningdek, podshohliklardan farqli ravishda «imperiya» uchun bir xil ma’muriy bo‘linish (viloyat, o‘lka, satraplik) xos bo‘lgan. «Imperiya» ning bo‘lishi uchun yaxshi qurollangan va ta’lim ko‘rgan doimiy qo‘shtinning bo‘lishi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘rta Osiyo tarixida «imperiya» larga er. avv. VI-IV asrlarda hukmronlik qilgan dastlabki Ahomoniylar, so‘ngra Aleksandr Makedonskiy davlatlari misol bo‘ladi.

Ilk davlatlardi boshqaruvi tizimiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, dastlabki jamoalar qanday boshqarilgan bo‘lsa (ya’ni oqsoqollar Kengashi tomonidan) ularda ham shunday boshqarilgan. Keyinchalik ishlab chiqarishning rivojlanishi yangidan-yangi sug‘orish inshootlarini qurishni taqozo etadi. Urug‘ jamoalarining bunday suv inshootlarini qurish va ular faoliyatini ta’minlashga imkonlari etmagan³³. Zero, o‘sha davrda bunday keng miqiyosdagi sug‘orish inshootlari qurilishini faqatgina kuch ishlatish yo‘li bilangina hal etish mumkin bo‘lgan. Bu vaziyatda amaldor shaxs, aniqrog‘i jamoada hukmron shaxs hisoblangan kohin muhim rol o‘ynay boshlagan.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, ilk davlatlar shakllanish davrida jamoalarda kohinlarning – diniy yetakchilarning mavqeい ustun bo‘lgan. Aksariyat hollarda ular jamoaning siyosiy va xarbiy yetakchilari ham hisoblanishgan. Ular o‘z mavqelarini mustahkamlab borganlar. Masalan, dastlab kohinlar jamoa a’zolari orasidan saylangan bo‘lsa, keyinchalik bu lavozim otadan bolaga meros bo‘lib o‘ta boshlagan. Asta-sekin ular bosh bo‘lgan ulkan ibodatxona xo‘jaliklari tuzila boshlanadi. Dastlab bunday xo‘jaliklar jamoaga qarashli bo‘lgan bo‘lsa, asta-sekin bunday xo‘jaliklar oqsoqollar Kengashi nazoratidan chiqib kohin-shohga tegishli bo‘lib qolgan.

³³ Струве В.В. Проблема зарождения, развития и упадка рабовладельческих обществ Древнего Востока. // ИГАИМК, 77. Л., 1934.

Kuchayib ketgan shoh-kohinlar o‘z hokimiyatlarini kengaytirib, yon atrofdagi yerlarni bosib olib, o‘z hokimiyatlarini butun daryo havzasiga yoyyadilar. Shunday qilib, kichik vohalarda dastlabki davlat birlashmalari paydo bo‘ladi. Bunday birlashmalar shoh-kohinning kuchli lashkari yordamida boshqarilgan. Ma’lum bir davrga kelib, shoh-kohin hokimiyati jamoa oqsoqollari Kengashi ustidan ham xo‘jayinlik qila boshlagan. Oqsoqollar Kengashi bundan keyin jamoaga tegishli ichki ishlarnigina hal qila olgan, xolos. Demak, bunday ilk davatlarda jamoa boshqaruvi (oqsoqollar Kengashi) davlat ma’muriyati formasi hisoblangan³⁴.

Mil.avv.VIII asrning oxiri – VII asrga kelib O‘rta Osiyoning janubidagi qishloqlar rivojlanishiga jadallik bilan o‘zgarishlar boshlanib Baqtriya va So‘g‘diyona hududlarida o‘zida shaharsozlik belgilarini (mustahkam devorlar, saroylar, burjlar, xandaqlar, devorlardagi o‘q otish yo‘laklari va boshq.) aks ettiruvchi makonlar paydo bo‘ladi. Ilk temir davriga oid bunday manzilgohlarning soni Baqtriya, Marg‘iyona va So‘g‘diyonada 20 tadan ziyodroq. Asosiy manzilgohlar esa (maydoni 5 gadan kam) qishloq qo‘rg‘onlari, uchun katta bo‘lmagan alohida qal’alar va dexqonchilik qishloqlaridan iborat. SHaharlar turiga kiritish mumkin bo‘lgan, kattagina qo‘rg‘onli mustahkamlangan manzilgohlar ayrim qadimgi dexqonchilik viloyatlarida (Surxon, Qashqadaryo, Zarafshon havzalari va boshq.) bitta yoki ikkitadan ko‘p bo‘lmagan.

Ilk davatlarning asosiy belgilari quyidagicha ko‘rinishda bo‘lgan

Ijtimoiy-iqtisodiy belgilari	Arxeologik belgilari
Aholi sonining oshishi va ijtimoiy tabaqlanishni ko‘rsatuvchi belgilari	Turar joy manzilgohlarning oshishi; manzilgohlarning hududdiy kengayishi; qabrlar va ularda uchraydigan topilmalarning son va sifat ko‘rsatgichlari.
Ilk davlat markazi-	SHaharlarning paydo bo‘lishi; shahar atrofida qishloq-

³⁴ Дьяконов И. М. Община на Древнем Востоке в работах советских исследователей. // ВДИ, 1963. №1.

shaharning mavjudligi	manzilgohlarning jamlanish jarayoni.
Hunarmandchilikning rivojlanishi	Hunarmandchilik sohalarining markazlashish jarayoni; hunarmandchilik mahsulotlari turlarining oshishi, sifatiy o‘zgarishlar.
Dexqonchilikning rivojlanishi	Mehnat qurollarning takomillashuvi; sun’iy sug‘orish shahobchalalari va kanallarning paydo bo‘lishi; ekin turlari sonining oshishi.
CHorvachilikning rivojlanishi	Uy hayvonlari suyaklari sonining oshishi.
Harbiy ishlarning takomillashuchi	Harbiy istehkomlar mavjudligi; qurollarning takomillashuvi; mudofa inshoatlar, burjlar.
Kishilarni ruhiy birlashtiruvchi markazlashgan din	Oila altarlarining mavjudligi; monumental ibodatxonalar.
Savdo va madaniy aloqalar	Boshqa madaniyatlarga xos bo‘lgan moddiy madaniyat namunalari; qadimgi aloqa yo‘llarining takomillashuvi.
Xususiy mulk, siyosiy birlashma belgisi	Muhr.
Jamiyatning ssivilizatsiyasi darajasi	YOzuv.

Davlatchilik paydo bo‘lishidagi ayrim nazariyalar va ularga qisqacha ta’rif

Teologiya nazariyasi. Tarafdorlari: XIII asr, Foma Akvinskiy, XIX asr Jozef Mestr, islom mafkurasi va katolik cherkovi. Bu nazariya davlatlar kelib chiqishini ilohiylik bilan bog‘laydi. Qadimgi davrdayoq paydo bo‘lgan bu nazariya ilk davlatlarning diniy boshqaruv shakllarini (teokratik) qattiq turib himoya qiladi.

Patriarxal nazariya. Bu nazariya dastlab Aristotel asarlarida aoslanib, XIII asr

R.Fil'mer tomonidan rivojlantirildi. Bu nazariya tarafdrorlari dastlabki davlat bevosita oiladan o'sib chiqqan deb hisoblaydi. Unga ko'ra davlat hokimiyati otaning oila a'zolari ustidan hokimligini belgilab beradi.

Patremorial nazariya. XIX asrda yashagan fransuz olimi A.Galler tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariya tarafdrorlari davlat erga mulkchilik huquqidan kelib chiqqan (patrimorum) deb hisoblashadi. Ya'ni, hokimiyat, erga egalik qilish huquqidan bevosita u erda yashovchi odamlarga yoyiladi.

Shartnomaviy nazariya. XVII-XVIII asrlada keng yoyilgan bu nazariya tarafdrorlari A.Gorsiy, J.Lokk, T.Gobs, J.Russo, D.Didro, Sh.Monteske kabilalar edi. Bu nazariyaga ko'ra davlat-odamlar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida odamlarning ongli ravishda birlashishidir. Odamlar shartnomaning kuchi bilan o'z erkinligi, o'z hokimiyatining bir qismini davlatga beradilar.

Zo'ravonlik nazariyasi. Tarafdrorlari: E.Dyuring, L.Gumilovich, K.Kautskiy. bu nazariya tarafdrorlari davlat cheksiz va himoyasiz kabilalarning kuchli va uyushgan kabilalar tomonidan bosib olinishi yo'li bilan zo'ravonlik yoki kuch ishlatish yo'li bilan paydo bo'lgan deb hisoblaydilar.

Irrigatsiya nazariyasi. Nemis olimi K.Vittfogel tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariyaga ko'ra, davlatlarning paydo bo'lishi, ularning birlamchi despotik shakllari sharqiy agrar viloyatlarda ulkan inshoatlar qurilishi bilan bog'lanadi.

Psixologiya nazariyasi. Tarfdorlari: L.Petrajetskiy, Z.Freyd, G.Tard. bu nazariya tarafdrorlari davlatning paydo bo'linishi inson psixologiyasi, shaxsning jamoada yashashga ehtiyoji, obro'li kishilarni izlash, buyruq berish va itoat istagi bilan izohlaydilar.

Sinfiy nazariya. Tarafdrorlari: K.Marks, F.Engel'ss, V.Lenin, G.Plexanov. Bu nazariyaga ko'ra, sinflar paydo bo'lishi va ular o'rtasida sinfiy kurash keskinlashuvining yakunidir. Davlat bir sinfning boshqa sinf ustidan hukmronlik qurolidir.

O'cta Osiyodagi ilk davlatlar qanday ijtimoiy xarakterda bo'lganligi masalasi tarix fanida aniq echimiga ega emas. Ushbu masala XX asr 30-yillarida

sharqshunos olim Struve tomonidan ko‘tarilgan edi. Olim qadimgi Misr va Messopotamiya tarixiga oid yozma manbalarni o‘rganib, qadimgi Sharq davlatlarida quldarlik munosabatlari bo‘lgan degan fikrni ilgari suradi³⁵. Xuddi shu davrda S.P. Tolstov qadimgi O‘rtta Osiyodagi ko‘chmanchilar va dehqonlarning uzviy aloqada yashaganliklarini hamda miloddan avvalgi II asrdan to eramizning VIII-IX asrlarigacha ko‘chmanchilar quldarlik bosqichini (jamiyatini) bosib o‘tganliklari to‘g‘risidagi o‘zining mulohazalarini o‘rtaga tashlaydi. Uning yozishicha, quldarlik bosqichidagi ko‘chmanchi-chorvadorlar jamiyati xarbiy quldarlik demokratiyasi formasida rivojlangan³⁶. Masalaning bunday tarzda qo‘yilishi o‘sha davrdayoq ma’lum qarshiliklarga duch kelgan. Masalan, A.N. Bernshtam «Osiyoning katta qismi (jumladan, O‘rtta Osiyo ham.) quldarlik jamiyatini chetlab o‘tib, iqtisodiy kommunizmdan feodalizm jamiyatiga o‘tgan», degan fikrni bildiradi³⁷. Keyinchalik S.P.Tolstov «O‘rtta Osiyo Misri» deb nomlangan Qadimgi Xorazmdan topilgan arxeologik materiallar asosida yuqoridagi o‘z fikrlarini rivojlantirib, «O‘rtta Osiyo antik davri» to‘g‘risidagi konsepsiyasini yaratdi. Uni qisqacha qilib quyidagicha berish mumkin:

Arablar bosqinigacha bo‘lgan davrida Sug‘d zodagonlari o‘zlarida quldarlar va qabila-urug‘ boshliqlariga xos bo‘lgan ko‘rinishlarni jamlagan. So‘g‘d zodagonlari hokimiyati, arab-fors va xitoy manbalariga ko‘ra, qul-chaqirlarning xarbiy otryadlari va zodagon yoshlarning imtiyozli otliq lashkarlariga tayangan.O‘rtta Osiyo vohalarining qadimgi madaniyati o‘ziga xos «shahar» qiyofasiga ega bo‘lgan.

O‘rtta Osiyoning Ahamoniylar davlati tarkibiga kirganligi, Sosoniylar davri solnomalaridagi, xitoy va sug‘d yozma manbalaridagi qullar to‘g‘risidagi ma’lumotlar qulchilik o‘troq va ko‘chmanchi aholi o‘rtasida keng tarqalgan degan fikr yuritishga imkon beradi.

³⁵ Струве В.В. Проблема зарождения, развития и упадка рабовладельческих обществ Древнего Востока. //ИГАИМК, 77. Л., 1934.

³⁶ Толтов С. П. Генезис феодализма в кочевых скотоводческих обществах. // ИГАИМК.Вып. 103. 1934.

³⁷ Бернштам А.Н. Вступление. // ИГАИМК. Вып. 103. 1934.

Arxeologik izlanishlar natijasida ochilayotgan qadimgi suv inshootlari qurilishida hech shubhasiz qullar mehnat qilgan. Aks holda yirik hajmdagi qadimgi suv inshootlari qurilishi o'sha davrdagi ibridoiy texnikani hisobga olganda qishloq xo'jaligini normal faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ko'plab sug'd va xorazmlik dehqonlarni jalg qilgan bo'lardi. Bu esa, o'z navbatida, qishloq xo'jaligini (ishchi kuchi etishmasligi oqibatida demoqchi) izdan chiqargan bo'lur edi. Garchi ibridoiy jamiyat qoldiqlari O'rta Osiyoda yana ko'p asrlar mobaynida ham saqlanib qolsada, u mil. avv.I ming yillikning boshlaridan Qadimgi Sharq klassik quldorlik sistemasiga tortila boshlaydi³⁸.

Avval boshida Xorazm uchun taklif qilingan bu konsepsiya keyinchalik butun O'rta Osiyo tarixiga tadbiq qilina boshlandi. Agarda dehqonchilik manzilgohlari bo'lgan ekan, sug'orish bo'lgan, demakki, qulchilik bo'lgan degan fikr shakllanadi³⁹. Kezi kelganda shuni ham ta'kidlash joizki, olimning ushbu konsepsiysi Qadimgi Rim va Gretsiya (Yunoniston)tarixi ta'siri ostida shakllangan. Ammo 50-yillarning o'rtalariga kelib, qo'lga kiritilgan yangi ma'lumotlar natijasida yuqoridagi konsepsiyaning «zaif» tomonlari ko'rina boshlandi. Shuning uchun 1954 yili N.A. Kislyakov «daliliy materiallarning yetarli emasligi O'rta Osiyoda quldorlik tuzumi va uning bosqichlari haqida so'z yuritishga imkon bermasligi»ni ta'kidlaydi. V.A. Shishkin «antik» terminining O'rta Osiyo tarixi uchun qo'llanilishi to'g'riligiga shubha bildiradi. E.M. Jukova ham O'rta Osiyo xalqlari tarixini qadimgi Evropa tarixi tizimiga sun'iy ravishda kiritilayotganligini tanqid ostiga oladi⁴⁰.

Keyinchalik S.P. Tolstovning o'zi ham Xorazm va O'rta Osiyoda quldorlik munosabatlari to'g'risida so'z yuritish uchun bevosita dalillar yo'qligini tan olsada, eraning birinchi ming yilligi 2-yarmida O'rta Osiyoda feodalizm tuzumi bo'lganligi shubha to'g'dirmas ekan, undan oldingi davr

³⁸ Толстов С. П. Основные вопросы древней истории Средней Азии. // ВДИ.1938. №1.

³⁹ Толстов С. П. Периодизация древней истории Средней Азии. // КСИИМК.Вып.28. М. – Л., 1949.

⁴⁰ МОНС – Материалы объединенной научной сессии, посвященной истории Средней Азии и Казахстана в дооктябрьский период.- Т., 1955.

faqatgina quldorlik jamiyatni bo‘lishi mumkin, deb, o‘z konsepsiyasini himoya qiladi⁴¹.

S.P.Tolstovning ushbu fikri asosida yaqin yillargacha O‘rta Osiyodagi ilk davlatlar quldorlik munosabatlari xarakterida bo‘lgan deb kelindi va kelinmoqda. Masalan, I.S.Braginskiy «ham yer usti, ham yer osti yirik sug‘orish inshootlari qurish faqat qul mehnati bilangina amalga oshirish mumkin bo‘lgan», deb yozadi. Shimoliy Parfiyyada arxeologik izlanishlarni olib borgan G.A.Koshelenko ham bu yerda parnlar bosqini (eradan avvalgi III asr) oqibatida asosiy aholi qul darajasiga tushib qolganligini yozadi⁴². A.Asqarov O‘rta Osiyodagi ilk davlatlar Yunoniston va Rimdagidek klassik quldorlik ko‘rinishida emas, balki «patriarxal qulchilik xarakterida» bo‘lgan degan fikrni bildiradi.

B.G‘ofurov O‘rta Osiyodagi ilk davlatlar quldorlik jamiyatlarini bo‘lganligini, lekin bu jamiyatlar ko‘p ukladli bo‘lib, ularda etakchilik rolini butun davr moboynida jamoa a’zolari saqlab qolgan, degan xulosa qiladi⁴³. S.P.Tolstov konsepsiyasiga A.M. Belenitsskiy qarshi chiqadi. A.M. Belinitsskiy suv inshootlari qurilishida yuz minglab qul mehnatlari feodalizm davrida ham qo‘llanilganligini ta’kidlab, S.P.Tolstov konsepsiyasida jamoa va jamoa a’zolariga yetarli e’tibor berilmaganligini uqtiradi.

Olimning fikrlarini quyidagicha tezis holida bildirish mumkin: Ahamoniylar hukmronligi davrida o‘rnatilgan doimiy ravishda «o‘lpon» to‘lab turish tizimi jamiyatda feodal munosabatlarni (aslzodalar va dehqonlar sinfini) shakllantirdi. Qulchilik munosabatlari shakllanganligi guvohi sifatida qaralayotgan shaharlar O‘rta Osiyoda bronza davrining so‘nggi bosqichlarida paydo bo‘lgan. O‘rta Osiyoda qullarning bo‘lganligi hech kimda shubha uyg‘otmaydi. Biroq, qul mehnatining keng miqiyosda ishlab chiqaruvchi kuch sifatida yoyilganligi to‘g‘risida ma’lumot yo‘q. Hukmron sinf foydasiga doimiy ravishda soliqlarning

⁴¹ Толстов С. П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1949-1953 г. // ТХАЭ.Т.2. – М., 1958.

⁴² Брагинский И.С. К вопросу о периодизации истории народов Средней Азии и Казахстана в досоветскую эпоху. – Ташкент, 1942., Кошленко Г.А. Заключение. Средняя Азия в античную эпоху. // Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. – М., 1985.

⁴³ Аскarov А. Узбекистон тарихи. – Тошкент, 1994., Гафуров Б. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. – М., 1972.

tushib turishi qul mehnatining keng yoyilishiga imkon bermagan. Qullar uy cho‘risi, enaga, xizmatkor va shunga o‘xshash kishilar bo‘lganlar⁴⁴.

A.P. Novoselov bu bahslarga o‘zgacha yo‘nalish kiritadi. U Kavkazorti va O‘rta Osiyoning bizni qiziqtirayotgan davrini tahlil qilib, bu yerlarda feodalizm tomon sekin evolyusionlashadigan o‘ziga xos «arxaik» formatsiya bo‘lganligini yozadi. G‘arb olimlari Kichik Osiyodan O‘rta Osiyogacha bo‘lgan ilk davlatlar ijtimoiy munosabatlarini «OsiyoCHA ishlab chiqarish usuli» ko‘rinishida bo‘lgan deb hisoblaydilar. So‘nggi yillarda ushbu fikr tarix fanida tez-tez tilga olinmoqda. SHu sababli bunga kengroq to‘xtalishni lozim topdik.

Tarix fanida hanuzgacha «OsiyoCHA ishlab chiqarish usuli» bu nima o‘zi? – degan masalada bahslar davom etmoqda. Bir guruh olimlar «OsiyoCHA ishlab chiqarish usuli» sinfsiz jamiyatdan sinfiy jamiyatga o‘tish davrini egallovchi alohida bir bosqich, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, bu bosqichni Sharq va G‘arbning barcha xalqlari bosib o‘tganlar.

Ikkinchi bir guruh olimlar «OsiyoCHA ishlab chiqarish usuli» hamma joylarda emas, faqat tabiy sharoiti yerni sun’iy sug‘orishni talab etadigan mamlakatlarda bo‘lgan deb hisoblaydilar. Yerni sun’iy sug‘orishga ehtiyoj sababli, bu mamlakatlarda davlat to‘g‘onlar va kanallar qurishdek yirik hajmdagi jamoat ishlarini uyuştirishdek muhim funksiyani bajargan. Davlat bu mamlakatlarda barcha yer va unda ishlovchilarning oliy hukmdori hisoblangan⁴⁵.

Uchinchi bir guruh olimlarining fikricha, «OsiyoCHA ishlab chiqarish usuli» insonning inson tomonidan eksplutatsiya qilishning alohida «zulm» (ruscha «kabalnaya») formasi hisoblanadi. Boshqa bir guruh olimlar «OsiyoCHA ishlab chiqarish usuli» tushunchasini butunlay inkor etadilar. Ularning fikricha, bunday usul tarixda hech qachon bo‘lmagan⁴⁶.

⁴⁴ Беленицкий А.М. О «рабовладельческой формации» в истории Средней Азии. – Проблемы археологии Средней Азии. – Л., 1968.

⁴⁵ Варга Е.С. Очерки по проблемам политэкономии капитализма. – М., 1965.

⁴⁶ Семенов Ю.И. Проблема социально-экономического строя древнего Востока. // Народы Азии и Африки. 1965. №4. Гарусянц Ю.М. Об азиатском способе производства. // Вопросы истории. -М., 1966. №2.. Струве В.В. Понятие «азиатский способ производства». // Народы Азии и Африки. 1965. №1. Массон В.М. Становление раннеклассового общества на Древнем Востоке. // Вопросы истории. 1967. №5. Качановский Ю.В. Рабовладение, феодализм или азиатский способ производства? – М., 1971.

O'rta Osiyo ilk davlatlardagi ijtimoiy munosabatlar borasida bildirilgan fikrlarga munosabat bildirishdan oldin shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida bildirilgan fikrlar asosan Qadimgi Xorazm, Yunon-Baqtriya, Parfiya, Kushon podshohliklari davriga (mil. avv.IV- eramizning IV asrlari) tegishli bo'lib, bizni qiziqtirayotgan davr davlatlaridagi ijtimoiy munosabatlar masalasi ko'rilmagan. Yuqorida bildirilgan fikrlarda asosan quldarlik munosabatlari bo'lganligi ta'kidlanadi. Biroq, qul mehnati hamma yerda ham jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchisi (faqat shunday jamiyatnigina quldarlik munosabatlari jamiyati deb atash mumkin) darajasiga ko'tarilmagan. Bizning nazarimizda, O'rta Osiyoda qul mehnati jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi bo'lмаган. Sababi, O'rta Osiyoda xo'jalikning asosiy tarmog'i qishloq xo'jaligi bo'lib, unda qul mehnati jamoaning erkin, ozod a'zosi mexnatiga qaraganda unumsiz bo'lgan, buning ustiga qulni sotib olish ham uning egasidan xarajat talab etgan. Umuman, qul mehnati iqtisodida tovar ishlab chiqarish ustivor bo'lgan, xo'jaligining asosiy tarmog'i hunarmandchilik va savdo xisoblangan ayrim qadimgi jamiyatlardagina keng qo'llanilgan.

O'rta Osiyo hududida quldarlik munosabatlari bo'lganligi to'g'risidagi fikrlar ko'proq klassik quldarlik jamiyatları - Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi ta'sirida yuzaga kelgan. Biroq, O'rta Osiyo o'z hususiyati va an'analariga ega bo'lgan o'ziga xos tarixiy-jo'g'rofiy hudud va sun'iy sug'orish bizning hududda o'ta muhim o'rin egallaydi. Xatto ma'lum ma'noda jamiyatdagi yuksalish va inqirozlar ham u bilan bog'liq holda kechadi. Sun'iy sug'orishga asoslangan xo'jalik sug'orish inshootlarining doimiy ravishda yangilanib, ta'minlanib turishini talab qilgan. Yirik daryolarda to'g'onlar qurish orqali suv olish, va, nixoyat, yangi kanallar qazish aholining yalpi safarbarligini talab qilgan. Buni faqatgina davlat xal qila olishi mumkin bo'lgan. Shuningdek, suvning jamiyatda tutgan o'rni (uning barchaga taalluqli ekanligi) yerning ham xususiy lashishiga imkon bermasdi. Ushbu o'rinda O'rta Osiyoda yerga egalik qilish munosabatlari eraning V-VI asrlariga kelibgina qaror topganini eslatib o'tish o'rnlidir. Qul

mehnati esa ko‘proq xususiy xo‘jaliklarda taraqqiy qilgan⁴⁷. Shunday ekan, O‘rta Osiyo ilk davlatlari hayotida sun’iy sug‘orishning qanchalik muhim tutganligini inobatga olib, ularni «osiyocha ishlab chiqarish usuli» munosabatlari qaror topgan davlatlari deb xisoblash to‘g‘ri bo‘ladi.

Arxeologik manbalarga ko‘ra Xorazmda miloddan avvalgi IX-VIII asrlarda paxsa va xom g’ishtdan qurilgan uy-joylar, mudofaa inshootlari va boshqalar topilmagan. Shuningdek, bunday narsalar Baqtriya va So‘g’diyona xududlarida ham uchramagan. Miloddan avvalgi VII asrga oid Ko‘zaliqir va Baqtriyadagi Qiziltepa shaharlari mudofaa devorlaridagi o‘xshashliklar shu davrda bu yerlarda yirik shahar markazlari bo‘lganligidan dalolat beradi.

Miloddan avalgi VI asrdagi Xorazm sopol idishlarining Marg’iyona, Baqtriya, So‘g’diyonadagi shunday buyumlargacha o‘xshashlik jixatlari ko‘p bo‘lgan. Bu umumiyligiga o‘xshashlik yuqoridagi davlatlarning umumiyligi madaniyatga mansub bo‘lganliklaridan dalolat beradi. Miloddan avalgi VII-VI asrlarda shakillangan va ancha yirik bo‘lgan Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya davlatlarining axolisi til, urf-odatlari, madaniy xayot tarzi jixatidan umumiyligiga ega bo‘lgan. Bu davrda jamiyatning xududiy bo‘linishi shakillanib, o‘troqlashuv jarayoni kuchaydi, shaharlari, qal’alar paydo bo‘ldi, xo‘jalik tarqqiy etdi. Shaharlari atrofida dexqon xo‘jaliklari va ekin maydonlari, bog’lar joylashgan. Ilk davlatlarning xududiy asosini aloqador dexqonchilik tumanlari tashkil qilgan. Xo‘jalik yuritish maqsadida o‘zlashtirilgan yerlarda axoli zinch joylashib, ular «madaniy-xo‘jalik» vohalari deb yuritilgan. Manzilgoxlarning soni va o‘zlashtirilgan yerlarning umumiyligi maydoniga qarab, madaniy-xo‘jalik vohalari bir necha guruxlarga bo‘lingan va ularning chegaralari sug‘orma dexqonchilik xududlari va sug‘orish tarmoqlari chegaralari bilan bog’liq bo‘lgan.

Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda aholi nisbatan zinch joylashgan o‘troqvohalarda dexqonchilik jadal rivojlangan. Axoli asosiy mashg’ulotidexqonchilikdan tashqari xunarmandchilik va chorvachilik bilan ham

⁴⁷ Дьяконов И.М. Община на Древнем Востоке в работах советских исследователей. // ВДИ, 1963. №1.

shug'ullangan. Ayrim uy xonalaridan topilgan ustaxonalar shundan dalolat beradi. Qishloq jamoalari o'rtasida tovar ayirboshlashda «pul» vazifasini kulolchilik va temirchilik buyumlari, qishloq xo'jalik (chorva) maxsulotlari egallangan. Tashqi savdo (viloyatlar, mamlakatlar o'rtasidagi) pul o'lchovini xom ashyo, qimmatbaho xunarmandchilik buyumlari (metall idishlari, qurol-yarog'lar, zeb-ziynat buyumlari), qimmatbaho tosh, oltin va kumush bajargan. O'rta Osiyoda miloddan avvalgi VII-VI asrlarda qulchilik munosabatlari deyarli rivojlanmagan, uning eng ko'p tarqalgan ko'riniish «uy qulchiligi» bo'lgan. Bunday uy qullari «Avesto» da «vaysa» lar deb atalgan. Yuqoridagilardan ko'rinaradiki, o'zbek xalqining shakillanishida va uning davlatchiligi paydo bo'lishida tub o'troq dexqon axoli o'rinn tutgan. O'zbek xalqi ajdodlarining ilk davlatchiligi taraqqiyoti, qadimgi shaxarlar tarixi va tarqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

Shunday qilib xulosa qiladigan bo'lsak, sug'orma dexqonchilikning rivojlanishi va hunarmandchilik natijasida bronza davridayoq O'rta Osiyo hududlarida ijtimoiy tabaqalanish va mulkiy tengsizlik paydo bo'ladi. Janubiy hududlaridagi bu jarayon faqat ichki sabablarga bog'liq bo'lmay, YAqin Sharqdagi yuqori darajada rivojlangan an'anaviy tarixiy-madaniy aloqalarga ham bog'liq edi. Har bir jamoaning rivojlanishi ichki qonuniyatlaridan kelib chiqsa ham, dastlabki markazlardan kelib chiqqan tashqi ta'sir chetdagi viloyatlarning taqdirida katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin edi. Qadimgi davlatlar o'z rivojlanish bosqichlarida turli xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlarga ega bo'lgan. Dastlabki davlatlar xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari-dexqonchilik va chorvachilik qaerda oldinroq rivojlangan bo'lsa, o'sha hududlarda paydo bo'lgan. Davlatchilik jahon tarixida mil.avv. IV ming yillikning oxirida vujudga kelgan bo'lib, insoniyatssivilizatsiyasining so'nggi 5 ming yili bilan bog'lanadi. O'zbekiston xududlarida esa ilk davlatlarning shakillanishi va rivojlanish jarayoni bosqichlari quydagi davrlar bilan belgilanadi: Bronza davri, miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmi va o'rtalari. Unchalik katta bo'lмаган dexqonchilik voxalari asosida ilk

davlatchilik tizimiga o'tish davri. Bronza davridan temir asriga o'tish, miloddan avvalgi IX-VIII asrlar. Mayda davlat tashkilotlarining rivojlanishi va yirik harbiy-siyosiy uyushmalarning vujudga kelishi. Ilk temir davri, miloddan avvalgi VII- VI arlar. Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya kabi yirik davlat uyushmalarining shakillanishi.

II BOB ANTIK VA O'RTA ASRLARDA USTRUSHONADA KECHGAN SIYOSIY JARAYONLAR

2.1. Ustrushonada antik davrda kechgan siyosiy jarayonlar tahlili

Ustrushonaning geografik qulayliklari tufayli uning ilk o'zlashtirilish tarixi uzoq o'tmis bilan bog'liq. Dastlabki urug' jamoalar chorvador hamda o'troq dehqonlar uchun qulay tabiiy shart-sharoit va unumdon yerlar, ayniqsa oqar suv manbalari mavjudligi vohada inson faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlarning o'zaro moddiy va boshqa madaniy turlarning baravj rivojlanishiga asosiy sabab bo'lgan. Bir paytning o'zida chorvani mavsumiy tarzda qishda – cho'lli mintaqada, yozda esa–tog‘ o'tloq yaylovlari mintaqasida boqish imkoniyati chorvachilik xo'jaligining ham rivoj topishiga imkon yaratgan. Yaylov (o'tloq) imkoniyatlarining har tomonlama qulayligi bu erda chorvachilik madaniyatining ham o'troq dehqonchilik madaniyati bilan hamohang tarzda taraqqiy etishiga sabab bo'lgan.

Ustrushona hududida ilk temir davriga kelib o'zida shahar belgilarini mujassam qiluvchi yirik manzilgohlar barpo etila boshlanadi. Inson faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlar tufayli Ustrushonada ham ilk temir davri, xususan, mil. avv.gi VII-VI asrlarda shahar qurilishiga asos solinib, fanda "Nurtepa madaniyati" nomi bilan qayd etilgan, ilk shaharmonand manziloh Nurtepa vujudga kelgan. O'rtalik Sirdaryo havzasida o'troq turmush tarziga o'ta boshlagan ko'chmanchi qabilalar, vaqt o'tishi bilan esa Ustrushona hududining boshqa qismlariga, xususan tog‘ oldi hududlariga (Xontepa, Qo'rg'ontepa) ham yoyila boshlagan. Hududda joylashgan arxeologik yodgorliklarda (Nurtepa,

Xontepa, Qaliyatepa va boshqalar) aniqlangan me'moriy inshootlar: erto'la, yarim yerto'la va er usti inshootlari ham so'nggi bronza, ilk temir davrlarida bu yerda ko'chmanchi aholining o'troqlashuv jarayoni boshlanganligidan dalolat beradi. Nurtepa madaniyatning ta'siri ostida Kiropol deb e'tirof etilgan, mil. avv.gi VI asr boshlarida asos solingan Mug'tepa, Aleksandr Makedonskiyga qarshi qo'zolon ko'targan shaharlar sifatida qayd etilgan, Kurkatdagi Shirin, Savatdagi Xontepa, Sog'anoqtepa I, II kabi ilk shahar yodgorliklari bunyod etilgan. Tabiiyki, qadimdan voha va uning atrofidagi dashtliklarda yashovchi chorvador aholining Ustrushonadagi madaniy taraqqiyot jarayonlariga ta'siri katta bo'lган. Bu aholi avvalo, Evro Osiyoning bepoyon kengliklari va bu ulkan hududlarda yashovchi ko'chmanchilar olami bilan kuchli bog'langan edi. Mavsumiy tarzda ko'chuvchi chorvadorlar uzoq shimol o'lkalarigacha borar, qishda esa qishlovlariiga qaytib, Ustrushonaning dehqonchilik vohalari va hatto janubiy mintaqalar bilan ham bog'lanib turardi.

Antik davrda kechgan ijtimoiy siyosiy va ekologik vaziyat bilan bog'liq ulkan migratsiya jarayonlari ko'plab ko'chmanchi chorvador aholining voha va uning atroflariga kirib kelishi va o'troqlashishini yanada tezlashtirgan. Bu mavzuda arxeolog M.H. Pardayevning ta'kidlashicha, "ilk antik davrda Ustrushonada aholining shaharlashuvi, demografik o'sish jarayonlari natijasida, yangi shaharlarning paydo bo'lishi mamlakatning shimoliy, shimoliy-g'arbiy qismida – Zominsuv va Sangzor daryolari havzasida izchil suratda amalga oshgan. Mil. avv. IV-III, II-I asrlarda eski Xovos, O'rdatepa, Qaliyatepa, Oydisoytepa, Qo'rg'ontepa shahar yodgorliklari vujudga kelgan"⁴⁸. Ta'kidlash lozimki, bu paytda, nafaqat, Sangzor yoki Zominsuv kabi vohalar balki, dehqonchilik uchun sharoit mavjud bo'lган mikrovohalarda ham aholining yanada gavjumlashuvi, yangi yerlarning jadal o'zlashtirilishi va bu erlarda mustahkamlangan jamoa manzilgohlari – qishloq makonlari soni tezlik bilan ko'payib borgan.

⁴⁸ Пардаев М.Х. К вопросу об эволюции планировки замков- рабатов в Северо-Западной Уструшане // Тез, докл.науч.конф. посвящ.80-летию акад. Я.Г.Гулямова,-Т.: 1988. -С.72.

Qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida O‘rta Osiyo xalqlari siyosiy hayoti haqida ma’lumotlar uchraydi. Bu xalqlar tarixini yozish, Gomer, Esxil, Aristey kabi adiblar tomonidan boshlangan, lekin skif(sak va massaget)lar haqida keng va ancha aniq ma’lumotlarni birinchi bo‘lib Mil. avv. V asrda yashagan yunon tarixchisi Gerodot beradi. Gerodot o‘zining “Tarix” asari (I, III, VII, IX jildlari) da, sak (skif), massaget, xorasmiy, margush, sug‘d, parikan kabi O‘rta Osiyoda qadimda yashagan o‘troq va ko‘chmanchi xalqlar, Kir II va To‘maris o‘rtasidagi munosabatlar, massagettarning xo‘jaligi, turmush tarzi, urf-odat va marosimlari haqidagi ma’lumotlari qimmatlidir⁴⁹. Muarrixning yozicha, “Massagetlar skiflar singari kiyinadilar. Turmush tarzlari bir-xil. Ular otda va piyoda jang qiladilar. Odatda o‘q-yoy, bolta va nayzalar bilan qurollanadilar. Ularning barcha buyum va asboblari oltin va misdan ishlangan. Massagetlar g‘alla ekishmaydi, chorvachilik va baliq ovlash bilan kun kechiradilar. Araksda baliq ko‘p. Sut ichadilar. Ular ibodat qiladigan yagona tangri-quyoshdir. Quyosh xudosiga otni qurbanlik uchun keltiradilarki, g‘ayratli tangriga shiddatli va tez chopar jonlikni qurban qilish lozim deb hisoblaydilar. Massagetlar, Sharqda quyosh chiqishi yo‘nalishida, Araks daryosining narigi yog‘ida joylashganlar”. Yoki ... Massagetlar oddiy kishilar, Fors to‘kin-sochinliklaridan bexabar... Ahamoniylar tomonidan tuzilgan 20 ta satraplikning 3tasi O‘rta Osiyodan tuzilgan bo‘lib, 15-satraplik saklar va kaspiyliklardan iborat bo‘lgan”, deb ma’lumot beradi.

Antik davr muarrixlaridan Arrian (milodiy 90/95–175 yillar), skiflarning jangovarlik jasorati, ularning Iskandar qo‘singa kutilmaganda paydo bo‘lib, ilk bor zarba bergen jasur xalqlar ekanligi haqida noyob ma’lumotlar beradi. Ushbu muarrix o‘z asarida, ayniqsa, o‘lka xalqlarining Iskandarga qarshi ozodlik kurashlari, jumladan, So‘g‘ddan Tanaisga qarab yurishda, (Ustrushona)tog‘lik qoyalarda bo‘lgan jang, Iskandarning mahalliy aholi tomonidan yarador qilinishi, qahramon vatanparvarlarning tengsiz janglarda, dushman qo‘liga tushishdan ko‘ra o‘zlarini halok etishni afzal ko‘rib, tog‘ qoyalaridan tashlab

⁴⁹ Геродот. История в девяти книгах. Книга четвертая. М., 1985, 219–232 с.

halok bo‘lishi⁵⁰, O‘z qo‘shini skif jangchilari bilan to‘ldirgan Spitamen, Iskandar qo‘shinlarining katta qismini o‘rab olib qirib tashlashi, boshqa bir qismini asir olib hammasini o‘ldirishi, kabi voqealarni ishonarli tarzda yozib qoldirgan⁵¹. Kvint Kursiy Ruf, “Makedoniyalik Iskandar tarixi” asarida, Baqtriyaning rang- barang tabiatni, hosildor bug‘doy eqiladigan erlari, Iskandarning harbiy yurishlari, uning skiflar bilan to‘qnashuvi, So‘g‘diyonanining keng dashtli mamlakat ekanligi, uning atroflari bo‘ylab yashaydigan ko‘chmanchilar haqida to‘xtaladi⁵². Pompey Trog, YUstin (mil. avv.gi II-I asrlar) kabi muarrixlar ham O‘rta Osiyo ko‘chmanchi qabilalarining turmush tarzi, urf-odatlari va mashg‘ulotlari to‘g‘risida ma’lumotlar beradi⁵³.

Antik tarixchilardan Strabon (mil. avv. I asr) birinchi bo‘lib O‘rta Osiyo ko‘chmanchi xalqlarini umumiyligida bitta (skif) nomi bilan emas alohida hududiy joylashishiga qarab, mayda guruhlarini ham sanab ko‘rsatadi. Uning yozishicha “Skiflarning katta qismi Kaspiydan boshlab sharqka tomon daxlar deyiladi. Ulardan sharqda esa sak va massaget yashaydi”⁵⁴. “... Baqtriyadan yuqorida Oks va Yaksart daryolari oralig‘ida so‘g‘dliklar va ko‘chmanchilar o‘rtasidagi chegara joylashgan”, “... saklar so‘g‘dliklardan Yaksart orqali, so‘g‘dliklar esa Baqtriyadan Oks orqali ajralib turadi”⁵⁵. Dionisiy Perieget ko‘chmanchilar haqida shunday ma’lumot beradi, “So‘g‘d ortida YAksart daryosi bo‘ylab barcha kamonda jang qiluvchilar orasida eng mohiri va bexato otuvchilari hisoblangan saklar yashaydi”. Yuqoridagi ma’lumotlardan So‘g‘diyonanining sharqiy chegaralari Sirdaryoning chap sohili bo‘ylab o‘tganligi ko‘rinadi. I.V. Ръйанков ma’lumotlariga ko‘ra, antik davr tarixchilari O‘rta Osiyo ko‘chmanchilarini quyidagicha tasavvur etgan: O‘rta Osiyoning g‘arbida cho‘l va dasht qismlarida ”Massaget“ (“Derbik”) qabilalari ..., sharqida tog‘ va dasht

⁵⁰ Арриан. Искандар юришлари. III китоб, 30, 11.

⁵¹ Арриан. Искандар юришлари. IV китоб, 5, 8.

⁵² Бойназаров Ф.Б. Ўрта Осиёнинг антик даври, Ўқитувчи, – Т.: 1991. – Б., 25-27.

⁵³ Юстин. Эпитета Помпей Трога, // Вестник древней истории, 1954, N2, N8, 212-215c.

⁵⁴ Страбон. География.XI, 8, 3,

⁵⁵ Страбон... VII, ,3,12.

qismlarida “Sak” qabilalari ..., Tanais (Sirdaryo) bo‘ylari va uning nariyog‘ida “Dai”lar istiqomat qilishgan⁵⁶.

Ustrushonada antik davrda kechgan siyosiy jarayonlar haqida bayon qiluvchi yozma xabarlar qadimgi yunon tarixchilarining Aleksandr Makedonskiy harbiy yurishlari haqidagi asarlarda yoritilgan. Bu manbalarning aksariyatida, Eron shohi Kir davrida qurilgan etti shahar va bu shaharlarning bir-biri bilan bog‘liq holda Aleksandrga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targanligi haqida maъlumotlar berilgan. Ularda yoritilishicha, Maroqand va uning atrofidagi qishloqlarni o‘ziga tobe qilgan Aleksandr ko‘p sonli armiyasi bilan Ustrushona orqali Sirdaryo tomon yurish qiladi. Oldingi pozitsiyadagi oziq-ovqat va otlarga em-xashak yig‘uvchi makedon otryadini mahalliy axoli (ustrushonlar) butunlay qirib tashlaydi va ko‘tarilish juda qiyin bo‘lgan tik qoyali tog‘ ustiga chiqib ketishadi. Aleksandr bu qoyani katta qiyinchilik va talofat bilan egallaydi. Jang paytida uning o‘zi ham qattiq yaralanadi. Ustrushonaning tog‘li qoyalarda ilk bor mag‘lubiyat alamini tortgan Aleksandr, o‘zining jahonda tengsiz hisoblagan armiyasini tog‘lik qoyalarda jang olib borish taktikasi kuchli emasligini anglab qolgan. Ustrushonaliklar esa bunday qoyalarda jang olib borishni nihoyatda yaxshi o‘zlashtirgan edilar. Biroq, Aleksandr qo‘sishinlarining bir necha baravar ko‘pligi va ularning zamonaviy qurollanganligi urush taqdirini hal qiladi. Arrianning yozishicha, - “Tog‘ cho‘qqisidagi ximoyachilarini bir qismi joyida qirib tashlanadi, ko‘plari dushman qo‘liga tushmaslik uchun qoyadan o‘zlarini tashlab halok bo‘lishadi”⁵⁷.

Nisbatan tezlik bilan Sirdaryo bo‘yiga etib kelgan Aleksandr bu erda qisqa muddatda o‘z qo‘smini uchun harbiy qarorgoh vazifasini o‘tagan Esxata (Chekka) Aleksandriya shahrini quradi. Arriannning yozishicha, bu vaqtida Ustrushonada mavjud bo‘lgan ettita shaharda isyon ko‘tarilib ular o‘zlarining mustaqilligini – Aleksandrga bo‘ysunmasligini e’lon qiladilar. Aleksandrning

⁵⁶ Пьянков И.В. Общественный строй ранних кочевников Средней Азии по данным античных авторов//

Ранние кочевники Средней Азии и Казахстана. ТД. Ноябрь 1975. – Л., 1975. - С. 84-91.

⁵⁷Ариан. Поход Александра // История Узбекистана в источниках. Тузувчи Б.В.Лунин. Т.: 1984. – С.104.

ularni yana qaytadan bo‘ysundirishiga to‘g‘ri keladi. Manbalarda ta’kidlanishicha ikki kun ichida besh shaharni vayron qilib tiz cho‘ktirgan Aleksandr, ”daryo bo‘yi varvarlari”ning eng katta shahri Kiropolga tomon yuzlanadi. U yaxshi mudofaa istehkomlari va ko‘p ming kishilik jangovar himoyachilar qarshiligin tezda sindirolmagach, shaxsiy jasorat ko‘rsatib oz sonli guruh bilan shahar ichkarisiga yorib kirib qo‘zg‘olonchilardan shafvqatsiz o‘ch oladi. Kiropolni o‘zida 8 ming tub aholi qirib tashlanadi⁵⁸.

Aleksandr olti shaharni vayron qilganidan so‘ng ettinchi shahar-Mamakena sari yul oladi. Kvint Kursiy Rufning ma’lumot berishicha, - “Makedoniyaliklar shaharni topshirmaslikka ahd qilishadi. Ularga taslim bo‘lishsa jonlari omon qolishiga va’da berib Aleksandr 50 otliq, jangchisini shaharga elchilikka yuboradi. Shahardagilar elchilarni barcha rasm- rusumlarga amal qilgan holda izzat bilan kutib olishadi, keyin esa, mehmondorchilik va sharobxo‘rlik taъsirida tezda uyquga ketgan 50 chavandozning hammasi qilichdan o‘tkaziladi. Bundan qattiq g‘azablangan Aleksandr darhol hujumga o‘tadi, hujum natijasiz tugagach, lashkarboshilar Meliogr va Perdikkega shaharni qamal qilishni buyuradi. Hech qachon, hech qaysi shahar qamalga bunchalik qahramonlarcha bardosh bermagan edi. Aleksandrning o‘zi ham boshidan tosh tegib qattiq, yaralanadi va hushidan ketadi. Ko‘plar uni o‘ldi deb hisoblashadi. Lekin, u hushiga kelgach qamalni yanada qattiq va shafqatsizlik bilan davom ettiradi. Mamakena shahri mudofaa devorlari ostidan lahm kovlanib, devorning bir bo‘lagi qulab tushgandan keyingina makedoniyaliklar shahar ichiga yopirilib kirishadi. Shahar zabit etiladi va vayron qilinadi”⁵⁹. N.N. Negmatovning yozishicha Aleksandrga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targanlar, Ustrushonaning tekislik qismida joylashgan Kiropol, Gaza, Baga, Kurkat, Sabat, Shavkat va Xovost

⁵⁸ Ўзбекистон ССР тарихи. Т.: 1970. –Б. 96-99.

⁵⁹ Квант Курций РуФ. История Александра Македонского // История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В.Лунин.Т.: Фан,1984.- С.125.

shahar aholisi bo‘lgan⁶⁰. A.A. Gritsinaning yozishicha “Aleksandrga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan shaharlardan biri Xantepa (Sobot) bo‘lgan”⁶¹.

Yunonlar boqinidan keyin salavkiylar davrida uning ta’sirida bo‘lgan buni yunon sarkardasi Demodamantning aynan Aleksandr Makedronskiy yurgan yo‘ldan o‘tib borganligi orqali tasdiqlash mumkin. Sirdaryo bo‘yidagi Aleksandriya Esxata bu paytda salavkiylarning tayanch punkti bo‘lgan. Demodamant asosiy kuchlarini bu shaharga joylashtirgach Choch va Farg‘onani qamrab olganva Yu.F. Buryakov fikricha, Yaksart ortidagi Antioxiya (Qanqa) shahri bunyod etilgan. Ustrushonada antik davrning miloddan avvalgi tarixiy voqealari haqida bizgacha, asosan, yuqorida keltirilgan ma’lumotlar yetib kelgan. Keyingi uzoq davr mobaynidagi tarixiy yozma manbalarda Ustrushona haqida xabarlar uchramaydi.

Shimoliy Ustrushonaning keyingi davr tarixida ko‘chmanchi xalqlar muhim o‘rin egallaydi. SHimoliy hududlardan ko‘p sonli ko‘chmanchi qabilalarning kirib kelishi va muttasil janglar oqibatida qator shahar – qishloqlarda hayot izdan chiqadi. Eramizdan avvalgi 2 asrda Savat atrofidagi yodgorliklarda, Xvatak, deb faraz qilingan Nurtepa shahrida hayot butunlay inqirozga yuz tutadi. va bu manzillar aholi tomonidan tashlab ketiladi. Lekin arxeologik qazuv ishlarining guvohlik berishicha bir muncha vaqt o‘tib, hozirgi Eski Hovos (Hovos), Mug‘tepa (O‘ratepa), Qaliyatepa (Jizzax) kabi yangi shaharlar, Xo‘jamushkentsoyning yuqori qismida Xitoytepa kabi qishloq makonlari tarix sahnasida o‘rin oladilar va antik davrning keyingi asrlarida rivojlanishning yuksak cho‘qqilariga erishadilar.

Demak mil. avv. 312 yilda Ustrushona O‘rta Osiyoning deyarli barcha madaniy o‘lkalari qatori Salavkiylar davlati tarkibiga qo‘shib olingan. Mil avv 250 yilda esa siyosiy hukmronlik Yunon-Baqtriya podshohlari qo‘liga o‘tgandan so‘ng, bu davrda Ustrushona unga faqat nominal ko‘rinishda tobe bo‘lgan, ya’ni

⁶⁰ Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Усрушаны с древнейших времен по Х в.н.э...- С.232-236.

⁶¹ Грицина А. А., Сверчков Л. М. Археологические исследования в Сырдарыинской области. // ИМКУ Вып. 23. Ташкент, 1990. – С. 117.

muayyan hajmdagi soliqni to‘lagan⁶². Bunday fikrga kelishimizga sabab Ustrushonadagi moddiy va ma’naviy manbalarning mahalliy xususiyatga ega bo‘lib, ellinlashmaganligidir. Bu paytda Baqtriya, So‘g‘d va Xorazmda ellin madaniyatining ta’siri kuchli bo‘lgan. Qadimgi Farg‘ona va Choch kabi Ustrushona madaniyati shakllanishi ham ham shimoli-sharq – turk olami bilan bog‘langan va tarixning barcha davrlarida turkiy xalqlar ta’siri kuchli sezilib turgan.

N. Negmatovning fikricha milodiy 1 asrdan Ustrushona Kushon sultanati tarkibiga qo‘shilgan. Bu borada arxeolog M.Pardayev, “... ushbu fikr ham munozaralidir. aslida bu paytda Ustrushona ham Sug‘d kabi Qang‘ itifoqi tarkibiga kirgan. Mantiqan olganda ham Kushon sultanatiga chegaradosh bo‘lgan Sug‘dni aylanib o‘tib, uning sharqiy qismida joylashgan Ustrushonani sultanat tarkibiga qo‘shib olinishi haqidagi fikrlar g‘ayritabiyyidir”⁶³, deb yozadi. Bu borada biz ham M.H. Pardayevning fikriga qo‘shilamiz va Ustrushona eramiz boshlarida Qang‘ ittifoqi tarkibida bo‘lgan degan fikrni ilgari suramiz.

Ma’lmki, chorvadorlarda davlat vujudga kelishi oqil, jasur, ishlarida omadli bir qabila boshlig‘ining o‘z qabilasi va keyin boshqa, qo‘shti elatlarni buysundira olgan sardorning etishib chiqishi bilan bog‘liqligi ko‘p kuzatilgan. Yagona sardor boshchiligidida bir nechta qabilani bo‘ysundirgan bir uruqqa mansub etakchilar boshqa qabililarni ham turli xil usullar bilan ittifoqchilikka kiritishgan. Noqulay tabiiy sharoit, yoki turli xil yuqumli kasalliklar natijasida, chorva mollarining qirilib ketishi kabi holatlar, boshqa qabililarning bunday ittifoqlarga ixtiyoriy kirishiga sabab bo‘lgan. Bu birlashuv ko‘pincha harbiy ittifoqlar shaklida bo‘lib, uning yiqilishi esa o‘zaro nizolar, urug‘ va qabilalarning mustaqillik uchun intilishining tobora kuchayib borishiga sabab bo‘lgan. Natijada, Sirdaryoning o‘rtta oqimlarida yashovchi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi sak qabilalarining Salavkiylar sulolasini bilan uzluksiz

⁶² Пардаев М.Х., Фофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). Тошкент,2016. Б.282.

⁶³ Пардаев М.Х., Фофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). Тошкент,2016. Б.283.

ravishda olib borgan kurashlari oqibatida, mil. avv. III asrda Qang‘ konfederativ davlati tashkil topadi⁶⁴. Bu davlat Sirdaryoning o‘rtta oqimida yashovchi tub yerli aholini va bir qancha o‘lkalarni birlashtirgan.

Sosoniylar davri (224-651) manbalarida Qang‘ning markaziy qarorgoh shahri “Qandiz” shaklida tilga olinadi. Shuningdek, Firdavsiyning “Shohnoma” asarida ham Kanka shahri bir necha bor eslatiladi⁶⁵. A.B.Litvinskiy qang‘uylarning yozgi manzilgohlari Sirdaryo bo‘ylab joylashgan. Hukmdorlarining poytaxt qarorgohi esa Toshkent yaqinida bo‘lgan. Shu sababli Qang‘uyning markazi ham Sirdaryoning o‘rtta oqimi degan fikrni ilgari suradi⁶⁶. Arxeologlar Toshkent vohasidagi Qovunchi madaniyatini Qang‘uy madaniyati deb hisoblashmoqda⁶⁷. Ushbu madaniyat mahalliy ildizlarga ega. Avestoda keltirilgan qanqa, qang‘a, qandiz toponimlari mil. avv. II –milodiy II asrlarga tegishli bo‘lib, aynan shu asrlarda Sirdaryoning o‘rtta havzasida kankilar bunyod etgan Qanqa shahri paydo bo‘ladi⁶⁸. Demak, tarixiy taqdiri Ustrushona chorvadorlari bilan tutashib ketgan, kang‘li (saklar avlodi) larda o‘troqlashuv va shahar madaniyatiga asos solinishi ancha erta paydo bo‘lgan.

Xitoy manbasi “Shiji” (Tarixiy xotiralar) da Kangkiya –Qang^{‘69}ga oid ilk ma’lumotlar nihoyatda qisqa bo‘lib, unda mazkur mamlakat Buyuk Parkona (Dayyuan-Davan)ning shimoli-g‘arbida joylashganligi, uning iqtisodiy asosi chorvachilik bo‘lib, urf-odatlari Ruzie (Yuechji)dan farq qilmasligi, ixtiyorida 80-90 ming kamonkashlari, ya’ni jangchilari bo‘lganligi, mazkur davlat sharqi-shimolda Hun imperiyasi, sharqda Buyuk Parkona, janubda Day-ruzie (Da-yuechji) davlatlari bilan qo‘shti ekanligi hamda ma’lum darajada hunlar ta’siri ostida ekanligi ta’kidlanadi⁷⁰. Keyinchalik mil. avv. II asr boshlarida Qang‘

⁶⁴ Шониёзов К. Қанғ давлати ва қанғлилар. – Т.,1990. –Б.26.

⁶⁵ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи.Т.,”Маърифат”2009. - Б. 118.

⁶⁶ Литвинский Б.А. Джунский могильник и некоторые аспекты кангюйской проблемы. // СА. 1967. №2.

⁶⁷ Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Т., 1982. – С.28.

⁶⁸ Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса... – С.106.

⁶⁹ А.А. Аскаров ва А. Хўжаевларнинг кейинги тадқиқотларида Қанг‘ атамаси “Кангкия”тарзида кўлланилмоқда. Бундан ташқари илмий адабиётларда қангуй, қангўй, қанғли, қанғар тарзидаги атамалар ҳам учрайдик, улардан қай бирини қўллаш лозимлиги борасида ягона илмий тўхтамга келинмаганлиги учун биз айни пайтгача кўп қўлланган (К.Ш.Шониёзов) “Қанг‘” ва “қангўйлар” атамасидан фойдаланмоқдамиз.

⁷⁰ Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар... – Б.146.

davlati Sirdaryoning o‘rta oqimini, SHimoliy-g‘arbiy Farg‘ona, Ustrushona, Sug‘d va Xorazmni bo‘ysundirgan. Bu davlatning asosiy markazi Sirdaryoning o‘rta oqimlarida bo‘lgan. Shimoliy-sharqda esa usun, yuechji qabilalari bilan chegaradosh bo‘lgan.

Bu paytda, Suse (Kesh-SHahrishabz), Fumu (Zarafshon vodiysi), Yuyni (Toshkent vohasi), Gi (Buxoro vohasi), Yuegyan (Urganch shahri va atrofi) kabi o‘lkalar uning asosiy hududini tashkil etgan⁷¹. Xitoyshunos olim Ablat Xo‘jayevning yozishicha Kangiya davlati hududida Mi (Maymurg‘), Shi (Kesh), Sao (Kebudxan, Keshbud) kabi yirik viloyatlar bo‘lib “ bu uchta davlat (hokimlik) qolganlariga nisbatan yirikroq bo‘lgan va Xitoyga bevosita elchilar yuborgan”⁷². Qang‘ hududi Orol dengizining shimoliy-g‘arbiy va Kaspiy dengizining shimoli (Yan va Yansay- sarmat) yerlarini ham o‘z ichiga olgan.

Xitoy manbasi “Xan-shu”da So‘nggi Qong‘o‘y davri haqida Farg‘ona-Xitoy urushlari munosabati bilan eslatiladi. Davon qo‘shnisi Qang‘ davlatining hukmdorlari qarorgohi Bityan va Sukek shaharlari bo‘lib, bu shaharlar hozirgi Toshkent atrofida joylashgan, ular orasidagi masofa 160-180 kmga teng kelgan⁷³. Keyingi ma’lumotlar milodiy 270 yil Qang‘ inqiroziga oid. Unda Qang‘ podshosi elchisining Xitoyga kelganligi yoziladi. V asrda Qang‘ hududlari eftalitlar tomonidan bosib olingan. Ustrushonaning keyingi tarixi sharqdan kirib kelgan xioniy, eftalit va turk hoqonligi bilan bog‘lanib ketadi.

Xullas, Ustrushonaning antik davrida davlat tizilmalarining o‘ziga xos boshqaruv tartiblari bo‘lib, ular qadimiylar turkiy boshqaruv udumlari bilan qorishib ketgan edi. Qadimiylar ildizga ega o‘zbek davlatchiligiga xos ayrim ijtimoiy-siyosiy munosabatlar keyingi davrlarda yanada sayqal topib davlatchilik an’analarda muhim ahamiyat kasb etgan. Bu an’analardan asosidagi boshqaruv tartiblari shunchalik mukammal ediki, natijada u ulkan hududlarni yagona tutumga keltirib tarqoq ellarni birlashtirdi. Manfaatlar mushtarakligini ta’minladi. Qang‘ konfederasiysi davrida kechan bu jarayonlar, keyinchalik

⁷¹ Шониёзов К.Ш. Қанғ давлати ва қанғлилар... – Б.41.

⁷² Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар... – Б.146..

⁷³ Хўжаев Аблат. Фарғона тарихига оид маълумотлар. “Фарғона” нашриёти 2013. – Б.146.

Ustrushonada ham mustaqil davlatchilik munosabatlarining shaklanishiga zamin hozirladi.

Yuqorida sharhlab o‘tilgan yozma manbalar va o‘rganilgan arxeologik yodgorliklar materiallari Qang‘ ittifoqi tarkibidagi Ustrushona xalqlarining antik davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini tahlil qilish imkonini beradi. Ustrushonada bu paytga kelib, yangi yerlarning faol o‘zlashtirilishi, aholi sonining ortishi, ko‘chmanchilarning qulay vohalarda o‘troqlasha borishi va buning natijasida tovar ayriboshlash – savdo va hunarmandchilik rivojlanib, ijtimoiy jarayonlar faollashganligi seziladi. Buni bir tomondan, dehqonchilik vohalarida vujudga kelgan yodgorliklar markaziy mudofaa qobiliyatlarining mustahkamlanishi, shahar arkining va uning markaziy qismida joylashgan diniy markaz-otashkadaning barpo etilishi, sun’iy suv inshootlarining qurilishi va boshqalarda, ikkinchidan o‘troq aholiga tegishli yodgorliklar va qishloq makonlari atrofidagi tog‘ yon bag‘irlari va dashtliklarida ko‘chmanchilarga oid mozorqo‘rg‘onlarning ko‘payib borganligida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Akademik K.Shoniyoзов yunonlar bosqini arafasida “Toshkent vohasida mavjud bo‘lgan shaklar qabila birligini sarkarda boshqargan bo‘lib, bu, o‘z navbatida, qabila va urug‘ boshliqlari oqsoqollaridan tashkil topgan kengash yig‘inida saylangan iqtisodiy va siyosiy masalalar ham shu kengash yig‘ilishida hal qilingan”⁷⁴ deb ta’kidlaydi. Demak, Ustrushonada hokimyatini boshqarishda umumiy demokratik qonuniyatlar mavjud bo‘lgan. Biroq, vaqt o‘tishi bilan, (aniqrog‘i, yunonlar bosqinidan keyin) dashtda amalda bo‘lgan harbiy qabila ittifoqi tarzidagi tuzum davr talabiga mos kelmay qolayotgan edi. U qabilalarni to‘liq ximoya qilishga qodir emas edi. Bu paytdagi ijtimoiy siyosiy jarayonlar ham qang‘arlar jamiyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

V.M. Masson ahamoniylargacha bo‘lgan O‘rta Osiyoning siyosiy xaritasida o‘troq vohalar hamda ko‘chmanchilar dunyosini tahlil qilib, chorvadorlarning har xil konfederatsiyasi bo‘lganligi va turli ko‘chmanchi qabilalarni birlashtirib turganligi, mil. avv. VI asr o‘rtalarida massagetlar boshqa

⁷⁴ Шониёзов К.Ш. Қанғ давлати ва қанғлилар... – 30-31 б.

qabilalar orasida yetakchilik rolini bajarganligini ta'kidlaydi⁷⁵. Ustrushonada yunon bosqinchilariga qarshi qo‘zg‘olonning kelishilgan vaqtda boshlanishi, sak qo‘shinlarining daryo ortida to‘planishi va nihoyat Maroqanddagi Spitamen boshchiligidagi qarshilik harakatlari kabi ko‘tarilishlarning ayni bir vaqtda sodir bo‘lishi kabi voqealar, bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bunda qabila yetakchilarining asosiy rol o‘ynaganligi shubhasiz. Bu voqealar ustrushonaliklar ijtimoiy tuzumi, davlatchilik boshqaruv tartiblari va qo‘shni hududlar bilan aloqalari haqida tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Ustrushona qabilalaridan birining nomi – memakenlar– bizgacha yunon manbalari orqali etib kelgan (Kursiy). Bu qabila nomi tilga olinganda, markazi Kiresxata (Kiropol) shahri bo‘lgan barcha viloyatlarning aholisi nazarda tutilgan. ”Memaken” so‘zining o‘zi esa o‘sha viloyat nomidan hosil qilingan bo‘lishi ham ehtimoldan uzoq emas. Aftidan bu Sirdaryoning o‘rta oqimi chap qirg‘og‘idagi tekisliklarda yashovchi eng yirik qabilalardan biri bo‘lib, ular makedon istilochilariga qarshi kurashga boshchilik qiladilar⁷⁶. Istilochilar bu yerga kelgan vaqtda, manbalarda qayd qilinganidek, allaqochon ularning ko‘p sonli manzilgohlari va o‘z shaharlari bo‘lgan. Ularning orasida kattaligi va tuzilishi haqida eng ko‘p o‘rganilgani Nurtepa shahriga oid ma’lumotlardan kelib chiqqan holda mulohaza yuritish mumkin. Uning maydoni qariyib 18 ga tashkil yetgan.

Milod boshlariga kelib, ijtimoiy munosabatlar shakllanishi jadallahganligini nafaqat, Ustrushonada o‘rganilgan mozorqo‘rg‘onlar ashyolari, balki, Qal’ai-Qahkaxa, Qaliyatepa, Xovos, O‘rdatepa, Oydinsoytepa, Qo‘rg‘ontepa va boshqalarda o‘rganilgan markazlashgan mustahkam harbiy mudofaa tizimlari, muhtasham ma’muriy inshootlar qoldiqlari va boshqa ko‘plab topilmalar ham tasdiqlaydi. Bu holat Ustrushonaga kirib kelgan aholining faol tarzda ishlab chiqarish munosabatlariga tortilishi bilan ham izohlanadi. Shu bilan birgalikda, Ustrushonada yirik, irrigatsiya inshootlari tizimining shu

⁷⁵ Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы // МИА, 1959. - № 73.

⁷⁶ Кадимий Зомин (тариҳ, археология, нумизматика, этнография). Тошкент, 2018. – Б. 147.

paytgacha aniqlanmaganligi va katta hajmdagi maydonlarda qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining bo‘lmanligi kabilar antik davrda siyosiy hokimyatning hali to‘liq shakllanmaganligini ko‘rsatadi.

Arxeologik yodgorliklarda o‘rganilgan materialar Ustrushonada ikkita ijtimoiy qatlam bo‘lganligi yaqqol seziladi. Bular ko‘plar yer mulkga ega bo‘lgan yirik boy – hukmdorlar va ular xizmatida bo‘lgan kambag‘al jamoachilar. Ta’kidlash lozimki, yashashning asosiy manbai dehqon jamoalarida yer, shaharda hunarmandchilik bo‘lgan bo‘lsa, chorvador-ko‘chmanchi qabilalarda chorva hisoblanadi. Qadimdan aholida chorva xususiy bo‘lib, yaylovlar urug‘ va qabilalarga qarashli bo‘lgan va undan barcha urug‘ a’zolari foydalanishda teng huquqli bo‘lgan.

Shaxsiy mulk qadimgi jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni belgilovchi muhim vosita hisoblanadi. Yer yoki Chorvaning kam yoki ko‘pligi jamiyat a’zolarining mavqeini belgilagan. Ustrushona yodgorliklarida ijtimoiy tafsizlik bilan bog‘liq katta farq kuzatilmaydi. Yodgorliklarda o‘rganilgan materiallar Ustrushona chorvadorlarida mulkiy tabaqalanish mavjud bo‘lsada, tabaqaviy va sinfiy differensatsiya sust rivojlanganligi, ijtimoiy differensiya jarayoni va sinflar tashkil topishi tugallanmagan ko‘rinishda bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Ustrushona yodgorliklarida o‘rganilgan boy ashyoviy manbalar hududda yashagan etnik guruhlarning ijtimoiy tarkibi haqidagi ma’lumotlarni yanada boyitadi. Masalan, G‘ulbodagi qabrlarning asosiy qismida marhumlar “to‘liq qurollangan holda” yoniga qilich, xanjar, kamon o‘qlari – umuman tirikligida ishlatgan jang qurolari qo‘yilib, olov bilan poklab (yoqib) marhumga ulug‘ hurmat ko‘rsatilib dafn etilgan. Qaysiki mozorqo‘rg‘onda harbiy qurollar jasad yoniga ko‘p qo‘yilgan bo‘lsa, u shunchalik kuchli yondirilgan. Fikrimiz tasdig‘i uchun, G‘ulbo 1- mozorqo‘rg‘onidagi marhum yonida jang qurollari yo‘q. Shunga bog‘liq holdadir, qabrdagi ham jasadda ham olov izlari umuman yo‘q. Demak, qadim ustrushonaliklar dafn udumlarida har kimni ham olov yordamida poklab dafn etish odati bo‘lman. Anglashimizcha, bu odat ko‘proq tirikligida

qahramonliklar ko‘rsatgan jamiyatdagi ijtimoiy mavqei baland, jumladan qabila boshlig‘i, harbiy sarkarda – jangchilar (va boshqa ulug‘ kishilar)ga qo‘llangan.

Strabonning ta’kidlashicha, sak qabilalarida erkaklarnig asosiy mashg‘uloti harbiy ish bo‘lgan. Bu barcha xususiyatlari va qatlami bilan professional yollanma qo‘shinga mos kelgan. Ular har qanday vaqtida yaqin atrofdagi shahar va qishloqlarni talash yoki tovon olish uchun bosqinlar yushtirishga tayyor bo‘lgan. Strabon so‘zlariga ko‘ra o‘xhash hayot tarzi saklarda “kimmeriyalar va trirlklarga qarshi kurashlarda sodir bo‘lgan” shunday janglarning birida ular Baqtriya va Armeniyaning bir qismini egallab unga o‘zlarining nomini Saksenani bergenlar⁷⁷. O‘rtalik Osiyodan chiqib Hindgacha borgan ritsarlar obrazi Vanon, Aza, Aziles va boshqa podsholarning tangalarida aks etgan⁷⁸. G‘ulbo 6- mozorqo‘rg‘oni yo‘lagiga qaram kishini, pastdagi asosiy qabrga sarkarda yoki qabila boshlig‘ini dafn etilishi Ustrushona chorvadorlarida ham ijtimoiy tabaqalar mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi.

A.N. Bernshtam Kenko‘l qabrlarida qo‘rg‘onnning kirish yo‘lagida bosh suyaklari evropoid irqiga mansubi ikkita jasad dafn etilganligi, lahad ichida esa ikkita mongoloid irqiga mansub jasadlarni qayd qilib yo‘lakda dafn etilgan jasadlar, xunlar tomonidan itoat ettirilgan evropoid irqiga xos bo‘lib, ular ichki kameradagi harbiylarning quli bo‘lgan degan xulosani beradi⁷⁹. Qadimgi saklar bo‘yicha maxsus izlanishlar olib borgan B.A. Litvinskiy ko‘pgina sak qabilalari, jumladan Yaksart orti saklarining sinfiylik belgilari mavjud bo‘lgan jamiyatda yashaganligini takidlaydi⁸⁰.

1938-39 yillar Baylikul ko‘li atrofidagi Berkarra mozorqo‘rg‘onlarini o‘rgangan A.N. Bernshtam bu yerdagi mozorqo‘rg‘onlarning barchasida bittadan jasad bo‘lsada, o‘lchamlarining har xil ekanligiga tayanib bu yerda mulkiy tabaqalinish belgilari mavjudligini bitta holatda esa majburlab o‘ldirish holatini

⁷⁷ Страбон, XI, VIII, 3

⁷⁸ Mitchiner M. Indo-Greek and Indo-Scythian coinage. Vol. 6. London, 1976. P.100, № 87.

⁷⁹ Бернштам. А.Н. Кенкольский могильник. Археологические экспедиции Государственного Эрмитажа. Вып. II. Л., 1940. С. 29.

⁸⁰ Литвинский Б.А. Древние кочевники «Крыши мира»... –С. 194.

qayd qilib, u qul bo‘lgan degan xulosaga keladi⁸¹. Yuqoridagi misollar ko‘chmanchilar ijtimoiy tuzumida ijtimoiy tabaqalar mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ustrushona chorvadorlarining o‘rganilayottgan davri uchun Yaksart saklariga xos ijtimoiy tuzum xos bo‘lgan.

Mayjud manbalarga tayanib, Ustrushona xalqlari jamiyatni mil. avv. II asrdan milodning VIII asrigacha ijtimoiy tabaqalar mavjud bo‘lgan, harbiy demokratiya shaklida rivojlanganligini⁸², o‘rta asr jamiyatini esa davlatchilik ko‘rinishiga ega bo‘lgan siyosiy tuzilma sifatida e’tirof etish mumkin. Aholi qabila va urug‘larga bo‘linib, urug‘ni boshqarish urug‘ oqsoqol (yetakchi)lari ixtiyorida bo‘lgan va ular yo‘lboshchi biyni saylashgan. Urug‘ yetakchilaridan o‘nlik, yuzlik boshqaruvchilari ham bo‘lgan. Qabilani boshqarish ko‘pincha bir urug‘(bir oila emas F.T.) qo‘lida bo‘lib u nasldan naslga o‘tgan. Bu kabi ijtimoiy munosabatlar o‘troq vohadan dasht hududlariga ham ta’sir qilgan yoki aks ta’sir ham sodir bo‘lgan.

Miloddan avvalgi I-ming boshlariga kelib Sirdaryo bo‘ylarida yashovchi ko‘chmanchi-chorvadorlar tomonidan ham dastlabki konfederatsiyalariga asos solinadi. «Avesto»da ular turlar deb nomlanadi. Unda yozilishicha, turlar podshohlari Frangrasyan boshchiligidagi deyarli butun O‘rta Osiyoni bo‘ysundirganlar. Faqatgina Drangiana hokimi Vishtasplar sulolasining asoschisi shoh Kavi Vishtaspgina Chaychasta ko‘li bo‘yida ularga zarba berishga muvaffaq bo‘ladi⁸³. “Avesto” oyatlarida ta’kidlangan ushbu voqealarning qanchalik haqiqat ekanligini tarixning o‘zi isbotlaydi. Ushbu noyob manbada Qang“ “Qangxa” deb atalgan va unga atab madhlar keltirilgan.

Hech bir jamiyat ishlab chiqarish sohasini yo‘lga qo‘ymay taraqqiy eta olmaydi. Ustrushonada qayd qilingan va o‘rganilgan yodgorliklarning geografik joylashishi daryo vodiylaridagi dehqonchilik mavzelari tabiiy chegaraga ega bo‘lgan. Voha atrofida yashovchi ko‘chmanchilar o‘z chorvalarini aralashtirib

⁸¹ Бернштам. А.Н. Археологические работы в Семиречье. КСИИМК. Вып. IV. С. 43.

⁸² Лашук Л.П.Исторический структура социальных организмов средневековых кочевников // СЭ –М.: 1967.–№4. –С. 25-27.

⁸³ А. Махкам, Авесто Тарихий – адабий ёдгорлик. Тошкент, 2001. М.Исхоков. “Авесто”. Яшт китоби. Тошкент 2001.

emas, alohida-alohida haydab boqqanligini ko'rsatadi. Bahorgi va kuzgi ko'chishlar belgilangan chegara bo'ylab kechgan, boshqa qabilaning bu erga egalik qilishga intilishi o'zaro nizolarga sabab bo'lgan. Ayniqsa qishlovlar qattiq ximoya qilingan. Dehqonlar kabi chorvadorlar xo'jaligi ham barqaror siyosiy vaziyat tufayli ravnaq topib borgan.

Etnografik ma'lumotlardan ma'lumki, yaylovlar daxlsizligini saqlash, vujudga kelgan nizolarni bartaraf qilish uchun maxsus "elbegi" mansabi joriy qilingan. Bu mansabga chorvadorlar orasida yuqori darajada obro'- e'tiborga sazovor oqsoqollar, aqli va haqiqatgo'y odamlar qo'yilgan⁸⁴. Ustrushonaliklarda oilaviy yer va yayovlarga alohida e'tibor qaratilgan. Ustrushonada har bir oila o'zining aniq qishlov, yaylov-ko'chish manziliga ega edi.

Dehqonchilikning har xil turlari yaylov chorvachiligidida ham etakchi mavqe egallagan⁸⁵. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi yarim ko'chmanchi aholi xo'jaligida chorvachilik ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Chorvadorlar qishda dasht va cho'l mintaqasida, yozda esa, Turkiston tog'larining alp (yaylov) o'tloqlarigacha bo'lgan masofalardan mavsumiy tarzda almashlab foydalanishgan. Tog'oldi hududlari sug'orma va lalmi dehqonchilik uchun qulay bo'lib, bu erda qishga ozuqa to'plab, uy chorvachilagini ham rivojlantirish mumkin bo'lgan. O'r ganilgan qabrlardan ko'plab qo'y suyaklari topilishi, mintaqa aholisi xo'jaligida asosiy uy hayvoni, tuya, yilqi va qoramollar ham bo'lishiga qaramay qo'y bo'lganligidan darak beradi. Ustrushona chorvadorlari iqtisodida chorvachilikning turli xil ko'rinishlari uy chorvachiligi, haydama chorvachilik va yaylov chorvachiligidan ko'chmanchilikka bo'lgan ko'rinishlar va dehqonchilikning lalmi va sug'orma shakllari ham ahamiyat kasb etgan.

Tadqiqotlar, Ustrushonaliklarining qishloqlari asosan, Sangzor, Zominsuv, Xo'jamushkentsoy kabi yirik daryo vohalari, suv manbalari mavjud bo'lgan tog' vodiylari hamda, qishning qahraton kunlaridan tabiiy himoyalangan manzillar

⁸⁴ Пардаев А.Х. Жиззах беклиги – Ўрта Осиё хонликлари даврида (XVI-асрдан XIX-асрнинг 60-йилларигача). автореф... т.ф.н. – Ташкент: 2004. –Б. 24

⁸⁵ Поляков С.П. Истографический этнография... – С. 51.

bo‘ylab joylashganligini ko‘rsatmoqda. Qishlov (qishloqlar) va yaylovlar orasidagi masofa hun, usun va qang‘arlarda odatda katta hududlarni (70-75 km.dan 200-250 km.gacha) o‘z ichiga olgan⁸⁶. Ustrushonada esa mozorqo‘rg‘onlar joylashishiga nisbat berib aytadigan bo‘lsak, qishloqlar masofasi yaqin biroq, uning chegarasi bo‘ylab joylashgan yaylovlar 50-100 kmgacha tog‘ va cho‘l tomonga qarab, kimsasiz va ochiq holda joylashgan. Ustrushona chorvadorlarning xo‘jalik yuritishida hozirgacha saqlanib qolgan an’ana mavjud, ung ko‘ra, qishloqning atrofi bo‘ylab uzoq masofalargacha shu qavm (qishloq) ning yaylovleri davom etadi. Bu yaylov qanchalik bepoyon bo‘lmasin o‘z chegarasiga ega bo‘lgan.

Ustrushonaliklar hayot tarzida asosan ovul xo‘jaligi (yaqin urug‘larning bir-biriga bog‘liqligi—F.T.) tizimi ham mavjud bo‘lib, unda, ko‘plab oilalar birgalikda ommaviy tarzda bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishgan. Boshqa bir tizim esa chayla deb atalib, uning iktisodiy birligi juft oila hisoblangan. Ovul va chayla tizimi asrlar davomida bir-biri bilan almashinib kelgan va urug‘chilik tizimining mustahkamlanishi yoki tanazzuli bilan bog‘liq bo‘lgan emas. Bu tizim asosan xavfsizlikni ta’minalash uchun zarur edi. Shuning uchun ham ovul tizimi dashtda qudratli hokimyat paydo bo‘lib, talonchilik va qabilalararo urushlarga barham bergan davrlarda mavjud bo‘lgan. Chorvadorlarning butun ovuli bilan bir paytda ko‘chishi erdan foydalanishga ham imkon yaratgan⁸⁷.

Xullas, Ustrushonada ham foydalanadigan yerlar, o‘tloqlar va suvlarni taqsimlab olib, chegaralar daxlsizligiga amal qilish aholini shafqatsiz, to‘qnashuvlardan saqlab qolishning yagona yo‘li bo‘lgan. Biroq, shuni ham ta’kidlash kerakki, biz bayon qilgan erdan foydalanishda erlar sotib olinmaydi, sotib yuborilmaydi. Yerlar qabila va urug‘larga qarashli bo‘lgan. Bu an’ana hozirgacha, Ustrushona (Zomin va Baxmal vohalari) da saqlanib qolgan bo‘lib, har bir qabila (joylashgan qishloq) ning o‘z yaylovleri mavjud. Yaylovlarni daxlsiz saqlash, xususiy chorvani asrash va ko‘paytirish maqsadida sodir

⁸⁶ Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Akademiya, 2008, – Б. 83.

⁸⁷ Федоров-Давыдов Г.А. Кочевники Восточных Европы под властью Золото Ордынских ханов...–С. 97.

bo‘lgan. Bunga xo‘jalikdagi ixtisoslashuv va ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishning alohida shakli deb qarash mumkin.

Ustrushona xalqlari siyosiy tuzumi masalasi ular ijtimoiy-iqtisodiy tuzumining qanday bo‘lganligi bilan ham bog‘liq. Mintaqa xo‘jaligi va siyosiy tuzilmasi butun tarixi mobaynida shakllanib, mukammallik kasb yetib borgan bo‘lsada, asl xususiyati va mohiyatiga ko‘ra deyarli o‘zgarmadi. Ustrushonaning o‘troq dehqonchilikka asoslangan vohalarida antik va ilk o‘rta asrlarda shahar madaniyati va davlatchilik an’analari faol kechga. Bunda vohaga kirib kelgan va uning atrofi bo‘ylab joylashgan chorvador aholining ham ta’siri bo‘lgan⁸⁸.

Qadimgi turkiy afsonalarda aytilishicha davlatchilikning markazi, hokimiyatni o‘z qo‘lida birlashtiruvchi shaxs hoqon hisoblangan. Boshqaruvda hoqonlikning hukmron sulolasi asosiy bo‘lib, u uchta kuch- osmon, yer-suvning kuch va irodasi hamda turk xalqining yaratuvchanlik faoliyati tufayli yuzaga keltirilgan⁸⁹. Harbiy boshqaruvchi-xon, qabila ittifoqlari bo‘lmagan paytlari oqsoqollar kengashida saylangan. Saylangan kishi shamanning tavsiyasi bilan shohlik unvonini qabul qilgan. Bunda hukmron unvonidan tashqari yangi davlat yoki ittifoq uchun nom ham qo‘yilgan. Masalan, hunlar jamiyati 24 urug‘ birlashmasidan tashkil topgan bo‘lib, har urug‘ni alohida boshqaruvchi oqsoqoli bo‘lgan.

Urug‘ oqsoqollari bir yilda uch marta yig‘ilib qurultoy o‘tkazganlar. Bu yig‘inda muhim davlat ishlari hal qilingan. Oliy hukmdorni ham shu qurultoyda saylaganlar. Demak hun podsholari hokimiyatga saylov yo‘li bilan kelgan⁹⁰. Bunday tizimda qabilalar ittifoqi bilan birga bo‘yinsundirilgan qabilalar va ittifoqqa asos solgan, etakchi qabilaning ham bo‘lishidir. Qang‘ davlatida Kengash muhim rol o‘ynab, unda qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashganlar va ularning fikri hal qiluvchi kuchga ega bo‘lgan⁹¹. Ko‘plab o‘lkalar qatori, Ustrushonani ham o‘z tasarrufida saqlagan podsho saroyi qoshida

⁸⁸Байпаков К.М., Подушкина А.Н Памятники земледельческо Скотоводчески культуры Южного Казахстана. Алма-Ата,Наука, 1984.

⁸⁹ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи.Т.,”Маърифат”2009, 196 б.

⁹⁰ Шониёзов К.ИШ. Қанг давлати ва қанглилар... – Б.73.

⁹¹ Шониёзов К.ИШ. Қанг давлати ва қанглилар... – Б.31

kengash mavjud bo‘lib, uning ichki va tashqi siyosati va boshqa davlat ishlaridagi muhim masalalar ana shu kengash majlisida maslahad bilan hal qilingan. Aniqrog‘i podsho hokimiyati maslahad majlisi bilan chegaralangan. To‘ng‘ich Xan sulolasi tarixida (mil. avv. 202-225 yillar) Qang‘o‘y podshosi o‘z oqsoqollari bilan maslahadlashib ish tutganligi eslatiladi⁹². Podsho hokimiyatining maslahad majlisi bilan hamkorlikda ish yuritadigan bu boshqaruv usuli tarixda harbiy demokratiya prinsiplari asosida tashkil topgan davlat tizimi deb nom olgan⁹³. Qang‘ davrida unga qarashli yerlar bir necha viloyatdan tashkil topib, ularni jabg‘u(yabg‘u)lar boshqargan. Jabg‘ular odatda, hoqonlarga yaqin kishilardan tayinlangan. Ustrushona kabi viloyatlarni boshqarish esa mahalliy hokimliklar tasarrufida qoldirilib, ular hoqon tayinlagan tudanlar nazoratida markaziy hokimiyatga muntazam soliq (boj) to‘lab turgan. Bunday tobe viloyatlarga Choch, Ustrushona, Sug‘d, Xorazm, Orol bo‘ylari va alanlar yurtlari kirgan.

Qang‘uylar, turli xil diplomatik va harbiy yo‘llar bilan mamlakat yaxlitligini saqlab qolgan va mamlakat sarhadlari daxlsizligini ta’minlay olgan. Natijada, shu davr voqelari arafasida (yoki undan oldinroq) kirib kelgan, til va yashash tarzi jihatidan o‘lka xalqlaridan kam farq qiluvchi turli xil nomlar bilan ataluvchi (turkiy – sarmat, yuechji, hun, usun va b.) qabilalar ham mamalakat ijtimoiy siyosiy va madaniy hayotida faol qatnasha boshlaganlar. Bu davrdagi barqaror ijtimoiy siyosiy vaziyat tufayli, uning tarkibiga kirgan ulkan hududlar, jumladan Ustrushonada ham o‘troq va ko‘chmanchi aholining bir-birini to‘ldiruvchi madaniyati shakllangan. Arxeologik tadqiqotlar, qang‘lilarning mustahkam ximoya inshoatlari va qa’lalarga ega bo‘lgan shaharlarida, yirik qishloq va qo‘rg‘onlarida nufuzli qabila boshliqlari, urug‘ yoki jamoa oqsoqollari, boy badavlat oilalar va qisman hunarmandlar yashaganligini ko‘rsatadi. Bu turar joylar asosan paxsa va xom g‘ishtdan qad ko‘tarib, aholining ko‘pchilik qismi tarqoq holda kichik-kichik qishloqlarda, erto‘la, kapa uylar va

⁹² Бичурин Н.Я.(Иакинф) Собрание сведений... 2- том. – Б. 184.

⁹³ Аскаров А.А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т.,”Университет”, 2007,167 6.

o‘tovlarda yashab, yarim o‘troq va ko‘chmanchi tarzda xo‘jalik yuritganlar⁹⁴. O‘rganilayotgan davrda Qonqa (Qang‘) davlatida pul muomalasi yuzaga keldi. Hukmdorlar o‘z tangalarini old tomonida shoh, orqa tomonida chavondoz tasviri bilan zARB etishdi. Qonqa (Qang‘) da ko‘pgina ilgari qurilgan shaharlar bo‘lib, yana yangilari ham barpo etildi. Turli hunarmandchilik sohalari rivojlandi, tijorat gurkiradi, sug‘orish inshoatlari qurildi⁹⁵. Bu jarayon o‘lka xalqlari moddiy va ma’naviy hayotiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Qang‘ davrida o‘troq dehqonchilik va shaharlar taraqqiy etishi bilan birgalikda, atrofda yashovchi chorvadorlar bilan ham har tomonlama aloqalar uyg‘unlashib boradi.

Tarixiy manbalarda yoritilishicha, Choch, Eloq, Ustrushona kabi Qang‘ konfederativ davlati tasarrufida bo‘lgan qadimiyligi dehqonchilik vohalarida nafaqat, o‘troq xo‘jalik taraqqiy yetib, shaharsozlik madaniyati yuksalib borgan balki, ikki xil xo‘jalik sohiblarining bir-birini to‘ldiruvchi madaniyati ham shakllanib, sayqal topib borgan. Bu vohalar atrofidagi bepoyon dasht, tog‘ va tog‘ oldi hududlarida qadimdan yashovchi va keyingi davrlarda kelib joylashgan chorvador aholining ijtimoiy siyosiy va etno-madaniy hayotga ta’siri ortib borgan. Ustrushonada o‘rganilgan mozorqo‘rg‘onlar ashyolari ko‘chmanchilarining Sirdaryo orqali kirib kelishi va janubga tomon o‘tib borishi o‘lka xalqlari madaniy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatganligini tasdiqlaydi. Bu holat Ustrushonaning muhim bog‘lovchi zona bo‘lganligi bilan izohlanadi. Kirib kelgan sarmat, yuechji, hun va usun kabi qabilalarining ba’zi guruahlari janubga o‘tib ketmasdan, vohaga tutash, chorva uchun qulay joylarda ham qolib ketgan va bu yerkarni o‘z qishlovlari sifatida makon tutishgan. Ular o‘tli yaylovlarni izlab, asosan tog‘oldi dasht zonalari, tog‘ daryo va jilg‘alari vodiylari bo‘ylab, hali mahalliy o‘troq va chorvador aholi tomonidan o‘zlashtirilmagan hududlarda o‘rnashganlar. Ular ixtisoslashgan xo‘jalik yuritish an’anasini davom ettirib, nafaqat yaylovlari chorvachiligi, balki metallurgiya va primitiv dehqonchilik bilan ham shug‘ullanaverishgan. Ma’lumki, Ustrushona tog‘larida juda ko‘p metall

⁹⁴ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. Т., „Маърифат“ 2009. – Б. 122.

⁹⁵ Аскаров А.А. Ўзбекистон халклари тарихи. 1.Т. – Тошкент: 1992. – Б. 45.

konlari zahiralari mavjud edi. Ularning mohir hunarmandlari bu konlardan unumli foydalana bilishgan va endi harbiy quollar ishlab chiqarish sohasi yanada kuchaygan. Asta-sekin kirib kelgan aholi bilan mahalliy (chorvador va o‘troq) aholi o‘rtasida ayirboshlash va savdo-sotiq aloqalari mustahkamlanib borgan. Moddiy madaniyatdagi sifat o‘zgarishlar bundan guvohlik beradi.

2.2. Ustrushonaning ilk o‘rta asrlar (kidariylar, xioniylar, eftaliylar va turk hoqonligi)dagi siyosiy hayoti

Milodning III asri oxirlarida qudratli Kushon sultanati va Qang‘ konfederativ davlati parchalanib ketdi. Bu uning tasarrufidagi katta geografik hudud, asosan, O‘rta Osiyoning ikki daryosi (Sirdaryo, Amudaryo) oralig‘idagi barqaror o‘troq hayot tarzidagi madaniy vohalarda mustaqil taraqqiyot jarayonlari boshlanishiga sabab bulgan. Bu Ustrushona mulklari uchun ham ta’lluqli bo‘lib bu erda ham IV-V asrlarda mustaqil boshqaruv tizimi qaror topa boradi. Ilk o‘rta asrlarga oid manbalarda O‘rta Osiyoning So‘g‘d, Choch, Farg‘ona kabi dehqonchilik mulklari qatorida Ustrushona haqida ham eslatiladi. Ilk o‘rta asrlarda ya’ni, milodiy IV-VI asrlar O‘rta Osiyo tarixida Movarounnahrning ichki viloyatlariga xiyoniy, kidariy, eftaliy va turk kabi ko‘chmanchi qabilalarning kirib kelishi hamda yangi siyosiy uyushmalarning yuzaga kelishi bilan izohlanadi.

Bu davrda O‘rta Osiyoga kelib joylashgan qabilalar Amudaryo va Sirdaryo hududlarida hayot kechirib kelayotgan chorvador xalqlarga madaniy va til jihatidan ancha yaqin elatlar edilar. IV asr o‘rtalarida o‘lkamizga shimoldan ko‘chmanchi xioniylarning hujumi boshlanadi. Ularga tadbirkor hukmdor Grumbat boshchilik qilgan. Xioniylar 353 yili So‘g‘dga yurish qiladilar, 359 yili esa Eron hukmdori Shopur II bilan ittifoqchilik burchini ado etib Suriyaning Amida shahri uchun bo‘lgan jangda qatnashadilar. Ushbu jangda Grumbatning o‘g‘li halok bo‘ladi. IV asrning 60-70-yillariga kelib xioniylarning forslar bilan munosabatlari buziladi. Eron shohi Shopur II xioniylarga qarshi kurashib, ikki

marotaba yengiladi. Ma'lumotlar yyetarli bo'lmasada, mutaxassislar xioniylar kidariylar bilan ittifoqda bo'lganligini taxmin qiladilar. Bunda ular shu davrda Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi yerlar xioniylar ta'siri ostida bo'lganligi hamda ba'zi manbalarda xioniylar kidariylar bilan yonma-yon tilga olinishiga asoslanadilar.

Ustrushonashunos olim M.H. Pardayevni ta'kidlashicha, "IV asrning o'rtalarida Sug'dni istilo qilishni boshlagan xioniylar dastlab O'rta Sirdaryoning chap qirg'oq havzasida joylashgan Ustrushona yerlarini istilo qilishgan va o'z hukmronliklarni o'rnatishgan. Hozirgi Jizzax vohasi xioniylar tomonidan istilo qilingan dastlabki madaniy vohalar sirasiga kiradi. Eng asosiysi bu davrda nafaqat, Ustrushonada balki, butun O'rta Osiyo ikki daryo oralig'ida xioniylarga munosib qarshilik ko'rsatadigan harbiy kuch yo'q edi. Ikkinchidan milodiy IV asr oxiri va asosan V asrdan boshlab Jizzax vohasida qishloq makonlari qurilishi ko'لامи keskin oshadi. Ko'п sonli chorvador qabilalar jamiyatida sodir bo'lgan ijtimoiy tabaqalashua sabab, ularning aksariyati, ommaviy ravishda o'troqlashadi. Bu esa sun'iy demografik to'lqin yuzaga kelishiga sabab bo'lardi va aholini qishloq turar joylari bilan ta'minlash vazifasini dolzarbligini ta'minlaydi. Sangzorning quyi oqimida joylashgan xususan, Qaliyatapa atrofidagi 30 ga yaqin qishloq makonlarining aksariyati (Pardaqultepa, Rasulboyqultepa...) IV asr oxiri va asosan V asrda bunyod etilgan. Nihoyat, uchinchidan, qishloq makonlari va hatto Qaliyatapa shahrining IV -V asrlarga oid madaniy qatlamlaridan olingan arxeologik materiallarda o'z xususiyatiga ko'ra cho'l-dasht chorvador aholi madaniyatining ta'siri sezilib turadi"⁹⁶.

Ilk o'rta asrda kirib kelgan elatlardan biri toxarlar (kidariylar) bo'lib, ular haqidagi asosiy ma'lumotlar Xitoyning Beyshi solnomasida hamda g'arb mualliflaridan Prisk Poniyskiy asarlarida uchraydi. Ushbu ma'lumotlarning tahlili kidariylar sulolasining asoschisi, dastlabki hukmdor Sidolo yoki Kidara IV asrda humronlik qilganligini ko'rsatadi. Ammo bu ma'lumotlar to'liq emas.

⁹⁶ Ушбу параграфни айниқса, араблар босқини билан боғлиқ воқеаларни ёритишда устозимиз М.Х. Пардаев материалларидан фойдаланмоқдамиз. Қараант: Пардаев М.Х., Фофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). Тошкент,2016. Б.285-286

Ba’zi manbalarda Kidara Kushonlar davlatining so’nggi hukmdori sifatida tilga olinadi. Ushbu ma’lumotlardan kidariylar kushonlarning bevosita davomchilari bo’lganligini taxmin qilish mumkin. O’sha davr tangalarini o’rgangan olimlar fikricha, kidariylar Tohariston va Gandxarani 412-437 yillar oralig’ida o’z qo’llari ostida birlashtirganlar. Akademik A.Muxammadjonovning fikricha, “toxarlar kushonlarning avlodlari bo‘lib, kidar ismli hukmdor ularga yo‘lboshchi edi. Shu boisdan manbalarda ular kidarlar, kidariylar nomi bilan tilga olinadi”. Aftidan kidariylar xioniylar bilan ittifoqchi sifatida harakat qilgan va o‘z tajovuzlarini Xuroson tomonga kengaytirishga harakat qilgan va Ustrushona siyosiy hayotiga ta’sir ko‘rsata olmaganlar. Chunki manbalarda ularning asosan, janubiy o‘lkalar (Eron)tomon ko‘plab yurishlar qilganligi eslatiladi. Shunday janglardan biri Marv vohasida kidariylar bilan sosoniylar shohi Varaxron V (420-438) o‘rtasida sodir bo‘lgan. Bu jangda shohning qo‘li baland kelgan va o‘z kidariylar ustidan g‘alaba qozongan. Bu jangdan so‘ng kidariylar mamlakati bilan sosoniylar davlati o‘rtasida chegara belgilanib, uning ramziy belgisi sifatida Tolixon yaqinida toshdan chegara minorasi o‘rnataladi. Sosoniylar bilan tinimsiz urushlar olib borgan kidariylar goh g‘alaba qozongan goh mag‘lub bo‘lgan. SHunday bir paytda V asrning 50- yillarida shimoldan janubga siljigan eftallar bilan to‘qnashadi. Natijada markaziy hokimiyat barqarorligini mustahkamlab olishga ulgurmagan kidariylar shimoliy Hindistonga chekinadilar. O‘rta Osiyoda esa eftalitlar hukmronligi o‘rnataladi.

V asrning o‘rtalarida diyorimizga shiddat bilan kirib kelgan yangi ko‘chmanchi aholi yozma manbalarda eftal, xafkal, xaytal degan nomlar bilan tilga olinadi. Eftaliylar manbalarda dastlab 453-454 va 457 yillar voqealari bilan bog‘liq tarzda tilga olinadi. Ularda keltirilishicha, eftaliylar ularga hujum qilgan Yazdigerd II qo‘sishini tor-mor keltirib, Eronning ichkarisiga ham talon-taroj yurishlarini amalga oshirganlar. Mazkur voqealar 453-454 yillarda sodir bo‘lganligi qayd qilinadi. Shuningdek, 457 yilda eftaliylar hukmdori Vaxshunvar Chag‘oniyon, Toxariston va Badaxshonni o‘ziga bo‘ysundirgan. 456 yilda eftaliylardan Xitoyga dastlabki elchilar kelgan.

Eftaliylar, ularning etnik tarkibi, davlat tashkil etishlari xususida tarixiy manbalarda turli xil qarashlar mavjud. Eftaliylar haqidagi ma'lumotlar Rim, Vizantiya, Suriya, Arman, Xitoy va Fors manbalarida hamda Firdavsiyning “Shohnoma” asarida uchraydi. Eftaliylarning kelib chiqishi haqida yagona fikr mavjud emas. Ba’zi tadqiqotchilar eftaliylarni O’rta Osiyo-ning janubiy viloyatlarida yashovchi qadimgi mahalliy elatlardan, boshqalari esa ularni Orol oldi va Xorazmdan kelib chiqqanligini qayd qiladilar. Manbalardan birida (Lazer Parbskiy, V asr) eftaliylar etti xonadondan iborat massagetlarning etakchi urug‘laridan biri sifatida bayon qilinadi. Xitoy manbalarida eftaliylar yuechjilarning boshqa bir shoxobchasi, ya’ni gaogyuy qabilasining tarmog‘i, yoxud Qang‘yuy avlodlari sifatida talqin qilinadi. O‘zlarini alxonlar deb atagan eftaliylar Baqtriya-Toxariston erlarida yashagan azaliy boxtar qavmidan chiqqan etnik guruh ekanligini qayd qiluvchi fikrlar ham mavjud. Zamonaviy tadqiqotlar eftaliylarning haqiqiy vatani Baqtriya-Toxaristonga muvofiq kelishini ko‘rsatmoqda.

Milodiy V va VI asrning birinchi yarmida, Toroman va Mihraqula ismli podsholar davrida ushbu davlat gullab yashnagan. Ikkinci davlat O’rta Osyoning janubi va Shimoliy Afg‘oniston hududlarida tashkil topgan. Bu erdan eftaliylar Sharqiy Turkiston yerlarini zabit etganlar. Eftaliylar davlati ulkan hududni qamrab olgan bo‘lib, O’rta Osyoning asosiy qismi, Sharqiy Turkiston hamda Shimoliy Hin-distonning yarmi Gadxara bilan birgalikda mazkur davlat tarkibi-ga kirgan. Asli eftaliylarda ikkita davlat mavjud bo‘lib, ulardan biri Afg‘onistonning janubi-sharqiy qismi, Pokiston va Shimoliy Hindiston hududlarini qamrab olgan.

Eftaliylar davrida shaharlar ravnaq topib, ularning ahamiyati ortadi. Kushoniya (Kattaqo‘rg‘on yaqinida), Rivdad, Poykend, Tallikon, Termiz, Gurgon, Varaxsha shaharlari shular jumlasidandir. Eftaliylar davlati hukmdorining qarorgohi Varaxsha saroyida bo‘lganligi taxmin qilinadi. Eftaliylar qudratli va ulkan davlat barpo etdilar. Uning hududlari Kushon davlati hududlaridan ham katta edi. Eftaliylar Eron sosoniylarining harbiy qudratini

sindira oldilar. Sosoniylarning sharqqa yurishlari eftaliylarning qarshiligi tufayli to‘xtadi. Ular Eron shohlarining ichki siyosatiga ham aralashib, hatto kimni taxtga o‘tzazish masalasini hal qilish ularning qo‘lida bo‘lgan. Eron davlati har yili eftaliylarga katta miqdorda o‘lpon to‘lab turgan.

Bu sulolalart davrida qishloq jamoalari bilan chegaradosh hududlarda , tog‘ oldi, cho‘l-dasht mavzelarda O‘rta Osiyoni boshqa o‘lkalarida bo‘lgani kabi Ustrushonada ham chorvadorlar uchun hayotiy zaruriyat hisoblangan yaylovlarning asosiy qismi qabila va urug‘ jamoalari oqsoqollar – biylarning qo‘l ostida bo‘lgan. Ustrushonaning markazi shimoliy va g‘arbiy viloyatlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha V –VI asrlarda dehqonchilik vohalari atrofiga kelib o‘rnashgan eftal qabilalarining ommaviy ravishda o‘troqlashuvi kuchayadi. Bunday holatni Shahristonsoy, Zominsuv, Sangzor daryosi havzasidagi gavjum ko‘rinishda joylashgan va ushbu davrga oid qishloq yodgorliklari misolida ko‘rishimiz mumkin⁹⁷.

V-VI asrlarda dehqonchilik vohalarida eftaliylarning o‘troqlashuvi kuchayadi. Buning oqibatida sug‘oriladigan yerlarga bo‘lgan talab ortadi. Mazkur ehtiyojni qondirish maqsadida kichik-kichik zovur va anhorlar qazilib, ko‘plab yangi erlar o‘zlashtiriladi. Hozirga qadar saqlanib qolgan Zog‘ariq, Bo‘zsuv, Darg‘om kanallari V asrda barpo etilgan yirik sug‘orish tarmoqlarining namunalaridir. Jizzax vohasida ham yangi o‘zlashtirilgan yerlarda o‘troqlashgan chorvadorlar yoki mahalliy dehqonlarning ko‘shklari atrofi mustahkam devorlar bilan o‘ralgan qo‘rg‘onlari, mukammal istehkomga ega, hashamatli qasrlari qad ko‘taradi. Keyinchalik vohada ustivor mavqega ega, mamlakatda katta imtiyoz va harbiy kuchga ega bo‘lgan zamindor dehqonlar qo‘l ostidagi rustoqlarga asos solinadi. Aynan shu davrda O‘rta Osiyoga navbatdagi yangi siyosiy kuch Turk hoqonligi qo‘shinlari kirib kela boshlaydi.

Bu darda ya’ni VI asr boshlarida Oltoy o‘lkasida siyosiy jarayonlar faollashadi. O’sha paytda hozirgi Mo‘g’uliston va qisman Xitoyning shimoliy

⁹⁷ Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). Тошкент,2016. Б.289

hududlari ustidan Jujan xonligi hukmronlik qilardi. VI asr boshlarida Oltoydag'i turkiy qavmlar orasida Ashin urug'ining mavqyei ko'tariladi. Ashin urug'iga mansub Asan va Tuu 460-545 yillarda boshqa urug'larni o'zlariga bo'ysundiradilar va Oltoyda turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuuning o'g'li Bumin Telye qabilasini ham bo'ysundiradi. Bumin Jujan xonligiga tobelikdan chiqish uchun kurashadi va 551 yilda Jujan xonining qo'shinlarini yengib, ularni o'ziga bo'ysundiradi. Bumin 552 yilda Xoqon deb e'lon qilinadi va yangi davlat - Turk hoqonligiga asos soladi. Uning poytaxti Oltoydag'i O'tukan shahri yedi. Xoqonlik tez orada kuchayib, uning dovrug'i ortib borgan.

563-567 yillar davomida Istami yabg'u qo'shinlari eftaliylar davlatiga ketma-ket zarbalar berib, O'rta Osiyo va Kaspiy dengizigacha bo'lган yerkarni yegallashga muvaffaq bo'ladi. Buning oqibatida eftaliylar davlati qulaydi. Turk xoqonligi O'rta Osiyo yerlarini ishg'ol yetgach, uning hududlari bevosita Yeron chegarasiga tutashadi.

Xoqonlik Eron bilan yaxshi qo'shnichilik, savdo-sotiq aloqalarini o'rnatishga intiladi. Shu maqsadda Eron shohi Xusrav 1 Anushirvonga turk malikasi uzatiladi, Yeronga yelchilar yuboriladi. Biroq Turk xoqonining Yeronga ikki bor yuborgan yelchilari faoliyati muvaffiyasiz chiqqach, Yeronning xoqonlik bilan murosaga bormasligi, uning qat'iy dushmanligi ma'lum bo'ladi. Buning boisi Yeron shohining O'rta Osiyo hududlariga da'vogarligida yedi. Bu yesa, shubhasiz, bir necha bor xoqonlikning Yeron bilan urushlar olib borishiga sabab bo'ladi. Istami qo'shinlari Yeron shohi Xisrav I ni yengadi. Yeron shohlari Turk xoqonligiga 400 ming Vizantiya tillosi hajmida tovon to'lashga majbur bo'ladi. Mug'anxon va uning avlodlari g'arbda Qora dengizga qadar hududlarni zabit yetib o'zlariga bo'ysundirganlar.

Turk xoqonligi 568-569 yillarda o'sha davrning qudratli davlati – Vizantiya bilan iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalarini o'rnatishga intilib, sug'd savdogari Maniak boshchiligidagi yelchilarni u yerga yuboradi. Yelchilar imperator Yustinian II qabulida bo'ladi. Shundan so'ng Vizantiyannig Zemarx boshliq yelchilari xoqonlik davlatiga keladi. Bu yesa shu davlatlar o'rtasida o'zaro

ishonch va savdo-tijorat munosabatlari o'rnatishda muhim ahamiyat kasb yetgan.

Qabila va urug‘ aymoqchilikka bo‘lingan Turk hoqonligi 603 yili ikkita mustaqil davlatga bo‘linib ketadi. Ulardan biri Mo‘g‘ulistonda tashkil topgan SHarqiy Turk hoqonligi, ikkinchisi esa O‘rta Osiyo, Jung‘oriya va Sharqiy Turkistonning bir qismini o‘z ichiga olgan G‘arbiy Turk hoqonligi edi. Ettisuv G‘arbiy Turk hoqonligining markazi edi. Ikkala hoqonlik ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan bir-biridan ajralib turardi. Sharqiy hoqonlik aholisining asosiy qismi ko‘ch-manchi chorvadorlardan iborat bo‘lib, G‘arbiy hoqonlik aholisining kattagina qismi esa o‘troq dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanardi. Turk hoqonligida ko‘chmanchi chorvador aholi “budun” yoki “qora budun” nomlari bilan yuritilardi. Budun qabilalar ittifoqini tashkil etardi. Elning hokimi ”yabg‘u” yoki ”jabg‘u” unvoni bilan atalardi.

Turk xoqonligining sharqiy yerlaridan farqli o’laroq G‘arbiy hududda aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi, madaniy darajasi nisbatan yuqori bo‘lgan. Negaki, sharqiy hududlarda yashagan ko‘pchilik ko‘chmanchi turkiy yelatlarda urug‘-qabilachilik munosabatlari hamon kuchli saqlangan. Aholining quyi tabaqasi budun yoki qora budunlar deb atalgan. Urug‘-qabilaning nomdor vakillari «beklar» deb yuritilgan. Jamoani xoqon va zodaganlar kengashi - «Qurultoy» boshqargan. O‘rta Osiyo yerlarida yesa bu davrda dehqonchilik, bog‘dorchilik va uzumchilik sohalari yuksak darajada rivojlangan. O’lkaning Farg’ona, Xorazm va Zarafshon vohalarida ko‘plab suv ayirg‘ichlar, kanallar, suv havzalari bunyod yetilgan.

Hoqonlik davrida Farg’ona, Sug’d va Ustrushonada aholining bir qismi tog‘-kon ishlari bilan ham mashg‘ul bo‘lgan. Bu yerdarda oltin, mis, temir yeritish, ulardan kerakli asbob-anjomlar ishlash yaxshi yo’lga qo‘yilgan. Shuningdek, Iloqda qo’rg’oshin, kumush, Ustrushona tog‘larida (Mink) temir, Shahrisabzda yesa qizil tuz qazib olingan.

VII asr boshlariga kelib, Xitoyda Suy sulolasasi hukmronligi-ning tugashi bilan G‘arbiy Turk hoqonligi yana taraqqiyotga yuz tutadi. Tan sulolasining

hokimiyatga kelishi bilan O‘rta Osiyo va Xitoy o‘rtasida aloqalar jonlanadi. Elchilik munosabatlari yangidan yo‘lga qo‘yiladi. VII asrning birinchi choragida G‘arbiy hoqonlik nihoyatda kuchayadi. Uning sharqiy chegarasi Oltoyga, Janubiy chegarasi esa Hind daryosi bo‘ylariga borib taqaladi. Hoqon To‘nyabg‘u davrida (618-630) boshqaruv tartiblari isloh qilinadi⁹⁸. O‘troq viloyat hokimlarini hoqonlik ma’muriyati bilan bevosita bog‘lash va ularning ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida, mahalliy hukmdorlarga hoqonlik-ning “yabg‘u” unvoni beriladi. Shu bilan birga O‘rta Osiyo, SHarqiy Turkiston, CHoch, Farg‘ona, Ustrushona, Sug‘d va Toxaristonning deyarli mustaqil hokimliklari ustidan siyosiy nazorat kuchaytirilib, ular huzuriga hoqonlikning vakillari yuboriladi. Bunday vakillar “tudun” deb yuritilgan. Bo‘ysundirilgan hududlarni mahalliy hokimlar orqali boshqarish tartibi hoqonlikni zaiflashtira bordi.

VI asrning ikkinchi yarmiga kelib Turkarning harbiy-siyosiy hukmronligi va turkiy davlat tuzilishiga xos bo‘lgan hokimiyatni tashkil etish mayda, mustaqil hududlarga bo‘linib ketgan O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘ining o‘troq dehqonchilik rayonlarining siyosiy va ma’muriy tuzilishi an’analari bilan o‘zaro qo‘shilib ketishi zarur edi. O‘rta Osyonini zabit etgan turklarning siyosati, dastlab, mahalliy hukmdorlardan xiroj olishdan iborat bo‘ldi, ilgarigi sulolalar saqlab qolindi, u yoki bu viloyatda mavjud bo‘lgan tartiblar ham o‘zgartirilmadi. Turkarning sug‘d va ustrushonaliklarga munosabati xuddi bundan oldingi eftallarning munosabati singari davlatning oliy vasiyligi xususiyatiga ega bo‘ldi.

Turk hoqoni Tun yabg‘u hukmronligi davrida amalda mustaqil bo‘lgan O‘rta Osiyo davlatlari ustidan nisbatan qattiq siyosiy nazorat o‘rnataladi. Chunki bu davlatlarning vassalligi faqat o‘lpon to‘lash bilan chegaralanan edi. Bu paytda mahalliy viloyatlarga hoqon Tun yabg‘uning ishonchli vakillari-tudunlar yuborilib, ular soliqlar yig‘ish va hoqon qarorgoxiga yuboriladigan o‘lponlarni qattiq nazoratga oldilar. Mahalliy hokimlarga ularni hoqonlik ma’muriy

⁹⁸ Ўзбекистон тарихи давлатчилиги очерклари, Т, Шарқ, 2001 46 бет

boshqaruviga qo'shilganlik ramzi sifatida turk unvonlari berildi. Shu bilan birgalikda To'n yabg'u nisbatan kuchli bo'lgan mahalliy hukmdorlar bilan shaxsiy munosabatlarini mustahkamlashga harakat qildi. Bu paytda Ustrushona ichki boshqaruviga ko'ra mustaqil bo'lgan bo'lsa, arablar bosqini bu boshqaruv tartiblariga zarba berdi va keyinchalik uning mustaqil mulk sifatidagi maqomini yo'qotdi.

Bu davrda ham yurtimizda moddiy va ma'naviy madaniyatning yangi-yangi betimsol namunalari yaratildi. Turli olimlar mutaxassislar bahsiga sabab bo'lgan Turk-ruin, Urxon-Yenasoy yozuvi, Kultegin bitiklari, Bilga xoqon yodnomasi va shu singari noyob topilmalar turk yozma madaniyatning qadimiyligi va rang-barangligiga guvohlik beradi. 1970 yilda Almati yaqinidagi «Issiq» degan joydan topilgan va fanga «Issiq yozuvi» nomi bilan kirgan turkiy yozuv ham bizning yozuv tariximizga oid qarashlarimizni yanada boyitadi. Yendilikda topilgan noyob ashayoi dalillar asosida turkiy yozuvning tarixi miloddan avvalgi II-I asrlarga borib tutashishi ma'lum bo'ldi. VI-VII asrlarda savdo sotiq ishlarida janubdan shimolga tamon ko'chgan. Bunga vositachilik qilish so'g'diy larning qo'liga o'tadi. Ular nafaqat quriqlikda, balki shu bilan bir qatorda Kaspiy dengizi orqali ham savdo ishlarida faol qatnashgan. Bu borada Poykant shahrini aloxida tilga olish lozim, chunki mazkur joyda savdogarlar ko'p istiqomat qilganlar va o'sha vaqtdagi oldi sotdilarni ular amalga oshirganlar. Shu boisdan ham bu shahar savdogarlar shahri yani "Madinat at-tujor" deb bejiz aytilmagan.

Urug' aymoqchilikka asoslangan boshqaruv tartibi hoqonlikning siyosiy jihatdan zaiflashuviga sabab bo'ladi. VII asr ikkinchi yarmida ancha kuchaygan Xitoy O'rta Osiyo hududlarini ham o'z qo'l ostiga kiritish payiga tushadi. Biroq 670 yilda tibetliklar bosh ko'tarib, sharqiy Turk xoqonligini yangidan tiklaganlaridan so'ng va bu davlat Xitoy uchun kutilmagan xavf-xatarni keltirib chiqargach, endilikda Xitoy O'rta Osiyoga bo'lgan o'z da'vosidan vaqtincha voz kechadi. Uning yendigi butun diqqati Tibetga qaratiladi. Bu davrda O'rta Osiyo hududlarida G'arbiy Turk xoqonligi ta'siri tobora zaiflashib boradi. Bunga mahalliy hokimliklar o'rtasidagi ichki ziddiyatlar, yer-mulk uchun o'zaro

kurashlar ham sabab bo'ladi. Bu yesa pirovardida bu hududlarning arab istilochilari tomonidan bosib olinishiga sabab bo'ldi.

O'rta Osiyo hoqonlik boshqaruviga o'tgan bo'lsada, turk harbiy boshliqlari eftalitlardan farqli tarzda mahalliy hokimliklarningsh ichki ishlariga deyarli aralashmaydilar. Bu davrda Ustrushona mamlakati ma'muriy hududiy jihatdan 18 ta rustoqqa ya'ni qishloq xo'jaligi tumanlaridan tashkil topgan. Mazkur rustoqlar mahalliy zadagon –dehqonlar, urug‘ jamoalarining sarkorlari tomonidant boshqarilgan. Har bir rustoq sarkori o'zining harbiy qo'riqchi otryadiga ega bo'lgan. Barcha rustoqlar sarkorlari tepasida mamlakat hukmdori , butun Ustrushona afshini turgan. VIII asr boshlarida Ustrushonada kelib chiqishiga ko'ra turkiy bo'lgan, Xarabugra (Qora Bug'ro F.T.) hokimyatni o'z qo'liga oladi va taxtga yangi afshinlar sulolasini keladi. Bu sulola davrida Ustrushona yanada gullab yashnagan. Afshin qo'l ostida tqisman cheklangan – fuqorolar, harbiy va diniy-ro'xoni yukmronlik to'plangan. Mamlakat hukmdori afshin yirik er egasi bo'lgan.

Ko'p sonli qishloqlarni birlashtirgagn rustoqlarning sarkori ancha cheklangan huquqlarga ega bo'lgan.. Ustrushonadagi hukmron tabaqaning ierarxiyasi haqida aniq ma'lumotlar yo'q.. Biroq, afshin, qishloq xo'jaligiga asoslangan mahalliy amloq-rustoqlar boshlig'i sarkolrlar va qishloq oqsoqollari –kadxdudolardan tashkil topgan.\Ustrushonsunos N.Negmatovning yozishicha,Ustrushona qo'shnlari engil va og'ir qurollangan, otilq suvoriy va piyoda askarlardan tashkil topgan. 9-10 asrlarda bu qo'shning soni 20mingdan ancha oshgan.. Qo'shin Ustrushona afshinichaqiruvi bilan rustoqlardan yig'ilgan. Bu qo'shin tarkibiga sarkorlarning xususiy chokar otryadlari ham qo'shilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Ustrushona hukmdorlari "afshin" nisbasi bilan atalgan. Bu nisba O'rta Osiyoda keng tarqalgan hukmdor tabaqa atamalaridan biri bo'lib, u Ustrushonadan tashqari markaziy Sug'd, Samarqand, Kichik Osiyo, Kavkaz kabi o'lkalarda uchraydi. At- Tabariyning "Tarixi-at Tabariy" asarida mamlakat hukmdorlari "malik" va "dehqon" nomi bilan e'tirof etilgan. Keyingi

davrarda yozilgan arab muarixlarining asarlarida ham Ustrushona afshinlari afshin nomi bilan qayd etiladi.

Siyosiy vaziyatlar taqozosi bilan Ustrushona mustaqil davlat sifatida V asrning birinchi yarmidan boshlab faoliyat yurita boshlaydi. Bu haqda Xitoy manbalari ma'lumot beradi. Lekin bu davrdagi Ustrushona hukmdorlari, ularning sulolasi, nomlari haqida ma'lumot yo'q. Bu mamlakat hududidan topilgan numizmatik topilmalarni mutaxassislar dastlab kushon podshohlarining so'ngi davridagi hukmdorlari deb talqin qilishgan. Lekin Ustrushona poytaxti Qalayi-Qahqaxadan topilgan tangalarni alohida xususiyatlariga qarab ularni mahalliy hokimyatga molik ekanligi aniqlangan. Bu erda VII arning boshi VIII asrning birinchi choragi (600-725) oralig'ida hukmronlik qilgan va ular tomonidan zarb qilingan tangalarni to'liq asos bilan afshinlar sulolasi vakillari, deb e'tirof etishga hozircha ma'lumotlar yetarli emas.

Numizmatik topilmalar bo'yicha Ustrushonaning birinchi hukmdorlaridan biri CHirdmish nomi bilan tarixga kirgan. Mavjud manbalar Ustrushonada ikkita sulola hukmronlik qilganligini ta'kidlaydi. Birinchi sulolaga mansub Chirdmish, Satachari I, Raxanch I, Satachari II, Satachari III, Raxancha II va Raxancha III kabi humdorlar, ikkinchi sulolaga mansub afshinlardan Xarabugra (720-738), Xanaxara (738-800), Kovus ibn Xanaxara (800-825), Haydar ibn Kobus (825-840), Hasan (840-869), Abdulloh (860-880), Sayr (880-893) kabilar eslatiladi⁹⁹. Birinchi sulola (IV-VIII asrlar)ga mansub hukmdorlar haqida yozma manbalar saqlanmagan. Hozircha, ular tomonidan zarb qilingan tangalar asosiy manba bo'lib qolmoqda. Ushbu hukmdor – afshinlardan Chirdmish, Satachari III va Raxancha III tomonidan zarb etilgan tangalar o'r ganilgan¹⁰⁰. Ayniqsa, A.A. Gritsina tomonidan, ushbu tangalardagi tasvirlar va hukmdorlarning qiyofasiga ilmiy nazar bilan yondashib berilgan ta'riflar (Chirdmish – kuluvchi shoh, Satachari III – o'qituvchi va h...), tarixiy voqealarni yanada jonli tasavvur etishga xizmat qiladi.

⁹⁹ Грицина А.А. Уструшанские были... –С. 53.

¹⁰⁰ Грицина А.А. Уструшанские были... –С. 38-42.

VII asrning boshidan oxiriga qadar Ustrushona hoqonlik tasarrufidagi nominal davlat maqomida faoliyat ko'rsatgan. N. Negmatovning fikricha, "turk hoqonlarining Ustrushona ustidan hukmdorligi kuchsiz edi.. Ustrushonaliklar hoqonlik xazinasiga doimiy ravishda o'lpon to'lamaganlar. Turk hoqonlari o'zlarining harbiy qo'shinlarini Ustrushonada saqlamaganlar, davlat boshqaruvigv o'z noiblarini yubormaganlar, Shunga qaramasdan , mamlakatning siyosiy hayotiga, ayniqsa tashqi siyosatiga hoqonlikning bir qadar ta'siri bo'lgan. Turk hoqonligi Xitoya bo'ysunganidan keyin nominal holatda Ustrushona Xitoy hukmronligini tan olgan. Xitoyda hokimyat tepasiga Tan sulolasini kelganidan so'ng (618-907) Ustrushona hukmdori 618-626 yillarda Xitoy imperatori huzuriga o'z elchilarini yuboradi va u orqali o'zini uning bayrog'i ostida xizmat qilishga tayyor ekanligini bildiradi"¹⁰¹.

Chorvador turkiy aholida urug'-jamoachilik an'analari nihoyatda kuchli bo'lib, qabila va urug' jamoalarining negizi katta oilalardan iborat edi.¹⁰² Qonunchilik, ijtimoiy hayotda u yoki bu masalalarni hal etish uchun «turkiy tuzuklari» yoki «Turolari» bo'lgan, Xitoy tarixchisi shunday tuzuklardan biri Sug'ddagi ibodatxonalardan birida saqlanishini yozadi. Qonunlarga ko'ra, eng og'ir gunox qilgan odam urug'-aymog'i bilan yo'q, qilib yuborilgan. Qolgan jazolar O'LIM va turli miqdordagi tovon to'lash usullari bo'lgan.(Masalan, birovni o'ldirsa buzuqchilik qilsa, ot o'g'irlasa, o'lim jazosi, birovning mol-mulkini o'g'irlasa yoki kishiga lat etkazsa tovon to'lagan va hokazo.

Turkiy hoqonlik ulkan hudud ichida zarur tinchlikni ta'minlaganligi natijasida «Buyuk Ipak yo'li» samarali ishslashda davom etdi. O'lkaning asosiy savdo hamkorlari Eron, Xitoy, Xindisgon va Vizantiya edi. Bu mamlakatlarga to'qimachilik, ipakchilik mahsulotlari, qimmatbaho toshlar va ulardan ishlangan buyumlar, taqinchoqlar, dorivorlar, nasldor arg'umoqlar, bir necha xil tuz, sharob, bog'dorchilik mahsulotlari, qazilma boylik va

¹⁰¹ Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Усрушаны с древнейших времен по Х в.нэ. М. 1957. С. 132.

¹⁰² Ўзбекистон тарихи. Т., Янги авлод нашриёти, 2003, 138-бет

hokazolar olib borilgan. Bu jarayon Ustrushonada iqtisodiy hayotning jonlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

2.3. Ustrushonaning arablar tomonidan zabit etilishi va bu davrdagi siyosiy hayot

VI asrning birinchi yarmida Arabiston yarim orolida asosini ko'chmanchi semit qabilalari tashkil etgan Arab xalifaligi paydo bo'ladi. Arabiston yarim orolida islom dinini yoyish orqali mustahkamlangan bu davlat VII asrning boshlaridan boshlab o'z hududlarini g'arb va Sharq tomonga kengaytirish harakatini boshladi. Xususan 642 yilda Naxavanddagi jangda Eron sosoniyari tor-mor etilgach, O'rta Osiyo erlariga hujum uchun imkoniyat yaratiladi.

Arablarining O'rta Osiyoga dastlabki yurishlar Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligidagi 651 yilda Marvni egallash bilan boshlandi. 652 yilda arablar Balx shahrini egallahsga muvaffaq bo'ldilar. O'sha yili Amudaryodan o'tib Movaraunnahrga hujum qilish rejasi arablar uchun muvaffaqiyatsiz tugaydi. Ammo, Xuroson noibi Abdulloh ibn Amir 652 yilda Chag'aniyonni egallahsga muvaffaq bo'ldi. Bu esa ilk bor Movaraunnahr erlarini egallah edi. 654 yilda Sug'ddagi Maymurg' qal'asiga arablarining birinchi hujumi bo'ladi. 657 yilda arablar Cpag'aniyonga qayta yurish qilib eftalitlarga kuchli zarbalar berdilar. Arablar keng miqyosdagi hujumlarga tayyorgarlik ko'ra boshlagan edilar. Manbalarning ma'lumot berishicha, Movarounnaxrga yurish qilishdagi harbiy-siyosiy tayyorgarlikdan biri, xalifalikning Basra va Kufa shaharlaridan 50 ming arab oilasi ko'chirib keltirilishi va Xurosonning turli shaharlariga garnizon sifatida joylashtirilishi bo'ldi.

673 yilning oxiri 674 yilning boshlarida arablarining Xurosondagi noibi Ubaydulloh ibn Ziyod Movaraunnahrga hujum qilib Romiton va Poykandni egallaydi hamda Buxoro shahrini qamal qiladi. Ammo, buxoroliklar va

turklarning ittifoqchi qo'shinlaridan qattiq qarshilikka uchragach, sulk tuzishga majbur bo'ladi.

676 yilda Xurosonning yangi noibi Said ibn Usmon Buxoroga yurish qilib Buxoro malikasi Xutakxoto'n qo'shinlarini tor-mor etadi va Samarqandga hujum boshlaydi. Ammo, bir oy davom etgan bu urushda Sug'diyilar arablarga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Natijada arablar sulk to'zib orqaga qaytadilar va yo'l-yo'lakay Termizni talon-taroj etadilar. 683 yilda xalifa Yazid vafot etganidan so'ng xalifalikda toj-taxt uchun kurash boshlanib ketadi. Bunday vaziyatda arablar yana Movaraunnahrga hujum qilishdan deyarli to'xtab, o'z ichki nizolari bilan band bo'lib qoladilar. Xalifa Abdumalik ibn Marvon (685-705 yy.) davrida o'zaro ichki kurashlarga chek qo'yilib arablar Movaraunnahrga jiddiy harbiy xarakatlar boshladilar.

Bunday siyosi jarayonlardan Ustrushona ham chetda qoimadi va uning keyingi siyosiy hayoti O'rta Osiyoning boshqa viloyatlari kabi asosan Arab xalifaligining bosqinchilik yurishlariga qarshi kurashlar, diplomatik munosabatlar tarixidan iborat bo'ldi. Ustrushonada arablarning ilk marotaba paydo bo'lishi Xuroson noibi Salm ibn Ziyod (680-683) davrida, xalifalikning Movaraunnahrga uyushtirgan uchinchi talonchilik yurish davriga to'g'ri keladi. Samarqandga etib kelgan Salm ibn Ziyod qo'shinni yordamchilari ixtiyorigat topshirib uni Xo'jand yo'nalishiga tomon safarbar qiladi va bu qo'shin Ustrushona hududi orqali Xo'jandga etib keladi va shahar ostonasida mahalliy aholi tomonidan qattiq mag'lubiyatga uchraydi.

Arablarning Ustrushonaga ikkinchi harbiy yurishlari Muhallab ibn Sufra (697-701) qo'mondonligida uyushtirilgan. Xo'jandga borgan ushbu qo'shin shahar va uning atrofidagi mavzelarni talon-taroj qiladi. Xurosonning navbatdagi noibi Yazid ibn muhallab (701-704) va uning o'g'li Muhallad davrida Buttam viloyati istilo qilinadi. Lekin oradant ko'p o'tmay Buttam (Burgar va Mastchoh) aholisi qo'zg'olon ko'taradi va arablar tomonidan qoldirilgan garnizon haydab yuboriladi. Al-Balazuriyning xabar berishicha, Qutayba ibn Muslim davrida (704-715) lashkarboshi Jahma ibn Zahr qo'shinlari tomonidan Buttam qayta

bo‘ysundiriladi. U yerdan katta miqdordagi boylik jumladan oltindan yasalgan sanamlar tashib ketiladi. Tog‘li hududda joylashgan Burgar va Mastchoh rustoqlariga qarashli qishloq manzillari–qa’la va qo‘rg‘onlarning chiqish qiyin bo‘lgan qoyalar ustidat joylashganligi, vohalarning tog‘lar bilan o‘ralganligi, yo‘llardagi qiyinchiliklar mahalliy aholiga o‘zlarining mustaqilligini uzoq vaqt saqlab qolishlariga, arab qo‘sishnari g‘olib kelib o‘z hukmronliklarini o‘rnatganlaridan keyin ham bu hukmronlik ramziy ma’nolda o‘rnatilganligiga sabab bo‘ladi¹⁰³. Bu holatlar esa Ustrushonada Arab xalifaligiga tobelikni imkon qadar kuchsizlantirishga, nisbatan mustaqillikni IX asrga qadar saqlab qolishga imkoniyat yaratgan.

N. Negmatovning fikricha, Qutayba arablarningit navbatdagi yurishini Ustrushonaga 713 yilda, Farg‘onaga yurish uyuştirgan paytda amalga oshirgan. 713-714 yillarda Qutayba bir necha marta Choch va Farg‘onaga hujum qilgan va har safar g‘alaba qozongan. Bu paytda u nafaqat Ustrushonganing tekislik hududlarida joylashgan aholi manzillariga, balki, tog‘ va tog‘oldi hududlaridagi shahar, qishloqlarga ham hujum qilgan. Xususan, ibn Havqal va al- Istahriyning e’tirofiga qaraganda Qutayba Mink qa’lasida qora libos kiygan odamlar bilan jang qilgan, al-Afshinni qamal qilgan¹⁰⁴. Mutaxassislarinig aksariyati Minkda Qutayba tomonidan qamal qilingan al-Afshininni IX asrning 20-30 yilari xalifa Mutasim davrida xizmat qilgan Ustrushona valiahdi Haydar al-Afshin bilan chog‘ishtirib o‘rta asr mualliflarini xatoga yo‘l qo‘yanlikda gumon qilishadi. Aslida esa mualliflar xatoga yo‘l qo‘ymagan, balki Minkda qamal qilgagn afshin Ustrushonaning nomi bizgacha etib kelmagan boshqa hukmdori , Haydar al-Afshinning ajdodi bo‘lgan. Shuningdek, arablarga qarshilik ko‘rsatgan “qora kiyimlilar” masalasida ham manbalar ma’lumotiga bepisand qarab, ulargat ishonmovchilar ham bor. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, qadim va o‘rta asr janglarmida kurashga kirgan ko‘p sonli qo‘sishnlar o‘z safdoshlarini dushmandan

¹⁰³ Пардаев М.Х., Фофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). Тошкент,2016. Б.307-308.

¹⁰⁴ Сверчков Л.М. Поселение Мык - источник по истории средневековой Уструшаны: Автореф.дисс. ...канд.ист.наук.- Самарканд,1991. С. 60.

ajratish uchun bir xil rangli kiyim kiyishgan va bunday holat Ustrushona (Mink qa'lasi)da ham sodir bo'lgan.

Ustrushonasunoslikning ayrim masalalariga doir Sug'd Ustrushona munosabatlari ilk o'rta asrlarning aynan mana shu davriga ta'lluqlidir. Bu o'rinda Sug'd hokimi G'urakning nasliy kelib chiqishiga ko'ra, Ustrushona hukmdorlari xanodoni afshinlariga mansubligi¹⁰⁵ va 721- 722 yillarda bo'lib o'tgan Sug'd qo'zg'oloni Ustrushona tarixi bilan bog'lanib ketganligi bilan izohlash mumkin.

737 yil Xuroson noibi Asad ibn Abdulloh al-Qushayriy (735-738) Xuttalon viloyatini zabit etish uchun qo'shin tortadi. Vaxsh vohasi va uning atroflaridagi mavzelarni o'z tasarrufiga olgan Xuttalon viloyati shu paytgacha o'z mustaqilliganini saqlab qolgan, arablarning bir necha hujumlarini muvaffaqiyat bilan qaytarib, hatto ularni og'ir mag'lubiyatga uchratgan ham edi. Xuttalonning o'sha paytdagi hokimi Badr Tarxonga shut paytda Turk hoqoni va Ustrushona afshini Hara Bug'ro katta qo'shin bilan yordamga keladi. Amudaryo yaqinida bo'lgan bu jangda ittifoqchilarining qo'li baland keladi. va Asad ibn Abdulloh qo'shini mag'lubiyatga uchrab daryoning narigi qirg'og'iga qochib o'tadi. At-Tabariyning xabariga ko'ra, ushbu g'alabadan quvonib, xushyorlikni yo'qotgan hoqon qo'shini jangchilari g'alabani nishonlash uchun qishloqlarga tarqab ketadi. Bu vaziyatdan Asad foydalanadi, tezlik bilan qo'shinini ortga qaytarib bu paytda ortga qaytmoqchi bo'lib turgan ittifoqchilar qo'shiniga qattiq zarba beradi. Turk hoqoni o'z yurtiga Ustrushona orqali qaytadi, uni afshin Hara Bug'ro katta izzat ikrom bilan kutib oladi. Hoqon va uning qo'shini tashrifi munosabati bilan dovul qoqildi, zotdor tulporlar va turli sovg'alar hoqonga va uning qo'shiniga tortiq qilinadi, mehmonnovozlik ko'ratiladi¹⁰⁶.

Arablar bosqinidan keyin ko'plab xuttalonlik aslzodalar, boy badavlat dehqonlar va podshoh as-Sabalning valiahdi Axa Jish "Xitoy tomonga" qochishni ixtiyor etadilar. 738-739 yillarda Xroson noibi Nasr ibn Sayyor (738-

¹⁰⁵ Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср кишлоқ маконлари... Б.297.

¹⁰⁶ Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср кишлоқ маконлари... Б.302.

748) tomonidan Farg‘onaga hokim qilib tayinlangan Muhammad ibn Holid qochoqlarni Farg‘ona hududidan haydab chiqaradi. O‘z yurtiga qaytishning iloji yo‘qligidan Axa Jish va uning aslzoda hamrohlari strushonada to‘xtaydilar. At – Tabariyning yozishicha xuttalonlliklar o‘zlari bilan ko‘p sonli sanamlarni Ustrushonaga olib kelishganva shu erga o‘rnatishgan. N. Negmatovning fikricha, Xuttalonlik qochoqlarning sanamlari bilan birga Ustrushonaga qochib kelishlari bejiz emas edi. Ustrushona aholisining diniy e’tiqodida zardo‘shtiyoslikning O‘rta Osiyocha tizimi alohida ahamiyat kasb etib, unda olov bilan birga sanamlarga ham sig‘inilgan. Sanamlarga sig‘inish Desi ruhiga sig‘inish sifatida talqin qilingan. Eng asosiysi esa bu davrda Ustrushona nafaqat siyosiy, balki, diniy-ma’naviy hayot bo‘yicha panoh mamlkat rolini bajargan.

Ustrushona tarixi bo‘yicha yirik mutaxassis M.H. Pardayevning yozishicha, “Xuttalon viloyati mudofaa janglarida Ustrushona afshini Xara Bug‘roni o‘z qo‘smini bilan qatnashishi arab siyosatdon harbiylariga yoqmagan va bu omil 739 yilda Nasr ibn Sayyorni Ustrushonaga qo‘smin tortishiga bahona vazifasini o‘tagan”¹⁰⁷. Al-Balazuriyning yozishicha, arablarning bu yurishi muvaffaqiyatsiz yakunlangan, amo at-Tabariyning yozishicha, Ustrushona hukmdori Nasrga o‘lpon to‘lagan hamda Qarsul qo‘mondonligidagi turk qo‘sminlari bilan Sirdaryo kechuvi yaqinida bo‘lgan jangda ustrushonaliklar arablar tomonida turib urishganlar. Shuningdek bu davrda Nasr ibn Ahmadni Ustrushonaning Shavgar rustoqiga qilgan hujumi haqida ham al-Istahriy va Yoqut xabar berishadi. N.Negmatov fikriga ko‘ra bu voqeа ham 739 yilda sodir bo‘lgan.

Shunday qilib, arablar qisqa muddat ichida Movaraunnahr hududlarini bosib olishining sabablari quyidagicha edi: O‘lkada hukm surayotgan siyosiy tarqoqlik va mahalliy hukmdorlarning o‘zaro kurashlari arablarga juda qo‘l kelgan edi. O‘zaro birlashish harakatida bo‘lgan va ittifoqchilik uchun harakat qilgan mahalliy hokimlar orasiga Qutayba turli nayranglar bilan rahna solishga erishgan edi. Arablar o‘zaro kurashayotgan hokimlarning biriga ikkinchisini

¹⁰⁷ Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари... Б.303.

yengishi uchun yordam ko'rsatib, keyin ularning har ikkisini ham birin-ketin buysundirdilar. Misol uchun, Sug'dni zabit etishda Qutayba arab qo'shini bilan bir qatorda Xorazm, Buxoro va Nasafning kuchlaridan foydalangan edi. Arablar Movarounnahrga qadar juda katta hududlarni bosib olgan bo'lib, katta boylik va harbiy zahiralarga ega edilar. Arablar qo'shiniga muntazam ravishda bosib olingan erlar va ichki viloyatlardan yangi harbiy kuchlar safarbar kilinib turilar edi.

Arablar olib borayotgan bosqinchilik siyosatiga qarshi birinchi bo'lib, 720 yilda Sug'd aholisi bosh ko'targan va bu harakatta Samarqand ixshidi Gurak va Panjikent hokimi Devashtichlar boshchilik qiladilar. Bu harakat umumxalk ko'zg'oloniga aylanib ketganligi bois, Xuroson noibi Sayd ibn Abdulaziz bu ko'zg'oloni bostirishga muvaffaq bo'la olmadi. 721 yilda xalifa YAzid ibn Abdumalikning tavsiyasi bilan Sayd ibn Amir al-Xaroshiy Xuroson noibi etib tayinlanadi. U ko'zg'olonchilar bilan mo'zokaralar olib borishi natijasida ko'zg'olonchilarning bir kismi arablar tomoniga (Gurak boshchiligidagi) o'tgan bo'lsa, bir qismi shafqatsizlarcha bostiriladi.

VIII asrning mobaynidagi Movaraunnahrda juda ulkan xalq Qo'zg'oloni ko'tariladi. Ularning eng yirigi tarixda "oq kiyimlilar" qo'zg'oloni" deb nom olgan bu harakatga asli kelib chiqishi Marv atroflari yoki Balxdan bo'lган Muqanna taxallusli Xoshim ibn Hakim boshchilik qiladi. Qo'zg'olon 776 yilda boshlanib, o'sha yili Muqanna Amudaryodan o'tib Kesh viloyatiga keladi va Kesh yaqinidagi Sanam qal'asini o'ziga qarorgoh, qiladi. Qo'zg'olon tez orada Sug'd, Iloq Shosh, Naxshab va Chag'aniyon hududlariga yoyiladi. Arab qo'shinlari bir necha yil davomida Muqanna qo'zg'oloniga qarshi qaqqashatqich kurash olib borib, VIII asr 80-yillari boshlarida qiyinchilik bilan qo'zg'oloni bostirishga muvaffaq bo'ldilar.

Muqanna qo'zg'oloni va undan keyingi xalq harakatlari bostirilganidan so'ng Movaraunnahrda bir muncha muddat osoyishtalik hukm surganday bo'ladi. Lekin ko'p o'tmay ya'ni, 806 yilda arab lashkarboshisi Rofe ibn Lays boshchiligidagi xalifalikka qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. Qo'zg'oloning markazi

Samarqand shahri bo‘lib, bu erda hokimi o‘ldiriladi, shahar qo‘zg‘olonchilar qo‘liga o‘tadi. Qo‘zg‘oltonni bostirishga xalifaning o‘g‘li Ma’mun boshchilik qiladi. U So‘g‘d, Ustrushona va Farg‘onaga qo‘shin yuboradi. O‘rtaga vakolatli odamlarni qo‘yib qo‘zg‘olon rahbarlari bilan muzokaralar olib boradi. Biroq bu chora tadbirlar natija bermagach Ma’mun (806-813) mahalliy zadogon dehqonlardan somonxudotning nabiralari Nuh, Ahmad va Yahyolardan yordam so‘raydi. Ular Rofe bilan kelishib uni taslim bo‘lishga ko‘ndiradilar va shu tariqa qo‘zg‘olon bostiriladi. Bu xizmatlari evaziga Choch va Ustrushonaga Yahyo ibn Asad noib etib tayinlanadi. Uning noiблиgi 855-856 yilargacha davom etadi.

822 yilda Ustrushona tohiriylar tomonidan istilo qilinadi. V.V.Bartoldning ta’kidlashicha, bu arab xalifaligining Movaraunnahrga uyushtirgan eng oxirgi katta harbiy yurishlaridan biri edi. Xuroson noibi Talxa ibn Toxir (822-828)ning ko‘rsatmasi bilan unga xalifalik markazidan yordamga kelgan Ahmad ibn Abu Holid al-Ahval katta yordam ko‘rsatgan.

Bu pay tda Ustrushona afshini abbosiyilar xalifaligi tarixidagi mashhur lashkarboshilardan biri Haydar al-Afshinnig otasi Kobus edi. Arab istilochilari Qobusni xalifalik bilan Ustrushona o‘rtasida tuzilgan shartnomani buzganlikda, al- Mamun xazinasiga kam xiroj to‘laganlikda ayblaydilar. Shuningdek bu paytda Ustrushona afshini xanodoni o‘g‘illari o‘rtasida ham turli nizolar yuzaga kelgan edi. Manbalarda yoritilishicha Kovusning to‘rt – Haydar, Fadl, Xasha, Rashid ismli o‘g‘illari bo‘lib, ular biri-birlari bilan dushmanlik holatida edilar. Kovusning ikkinchi o‘g‘li Fadlni qaynotasi, afshin saroyi ish borshqaruvchisi, taniqli zadogon Taradis o‘z panofiga olib valiahdlikka uning nomzodini suradi. Barcha sa’yi harakatlari bilan Fadlni qo‘llagan Taradis Haydarni sha’nini erga uruvchi bo‘lmag‘ur bo‘hton va ig‘volarni tarqatadi. Bundan darg‘azab bo‘lgan Haydar jahl ustida Taradisga poytaxt Bunjikatning Kunb darvozasi oldida hujum qiladi va uni o‘ldiradi¹⁰⁸. Bu voqeadan so‘ng Haydar Xuttal hukmdori Hoshim ibn Muxavvar al- Xuttaloniy huzuriga qochib ketadi va xat orqali bo‘lgan

¹⁰⁸ Пардаев М.Х., Фофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари... Б.308-309.

voqeani otasi Kovusga tushuntirib uni o‘z tomoniga og‘irib olmoqchi bo‘ladi¹⁰⁹. Otasidan ijobiy mazmundagi xatni ololmagan Haydar Xalifalik poytaxti Bag‘dodga jo‘naydi. N. Negmatovni yozishicha, u erda Haydar xalifa Ma‘mun qabulida bo‘ladi va unga Ustrushona mamlakatining engilmas, istilo qilib bo‘lmasligi haqidagi fikrlarni afsona ekanligini ttushuntiradi. Shu asosda 822 yilda qisqa tog‘ yo‘li orqali Ahmad ibn Abu Xamid al- Ahval boshchiligidagi katta qo‘shinni o‘z vatani istilosini uchun boshlab keladi. Bundan xabar topgan Kovus turklardan yordam so‘rab o‘g‘li Fadlni jo‘natadi. Lekin turklar etib kelmasidan arab lashkarlari poytaxt Bunjikat mudofaa devorlari oldida paydo bo‘ladi. Afshin Kovus bu kutilmagan al- Ahval qo‘shinlari oldida ojiz qoladi va taslim bo‘ladi. Bu voqealardan xabar topgan Fadl tunda turklar lagerini tashlab cho‘lga qochadi va arablar qarorgohiga keladi. Manbalarda turklarni suvsiz cho‘lda chanqab halok bo‘lganligihaqida ma’lumotlar mavjud. Biroq, bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki turklar cho‘l va sahrolarda suv manbalarini topishda mohir bo‘lishgan.

Arablarga taslim bo‘lgan Kovus va Fadl Bag‘dodga yuboriladi va u erda ikkalasi ham islom dinini qabul qiladi. Kovus Ustrushona hukmdori sifatida o‘z o‘rnini saqlab qoladi.Uning valiahdi qilib o‘g‘li Haydar tayinlanadi. U xalifa qo‘shinda xizmatda qoladi va al- Mutasim (833-842) davridva amir al-mo‘minining mashhur, bosh sarkarsi bo‘lib etishadi.Ustrushonaning tamomila zabit etilishi xalifalikning Ma‘mun davridagi tashqi siyosati uchun shunchalik ahamiyatga molik bo‘ldiki, at-Tabariyning yozishicha, bunday muvaffaqiyatdan mamnun bo‘lganXuroson noibi tohiriy Talxa lashkarboshi Ahmad ibn Abu Xamid al- Ahvalga 2 million, uning kotibi Ibrohim ibn al- Abbosga 500 ming dirham va yana behisob sovg‘alar in’om qiladi.

Shunday qilib, Ustrushona mamlakati, ayniqsa uning tog‘li mavzelerida joylashgan qa‘la qo‘rg‘onlarda yashovchi aholisi Qutayba ibn Muslim davrida boshlangan istilochilik yurishlaridan keyinig yuz yil davomida ham o‘z

¹⁰⁹ Пардаев М.Х., Фофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлариБ. 308.

mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldilar. Manbalarda ustrushonaliklar istilochilarga shubha uyg‘otmaslik uchun islom dinini xo‘ja ko‘rsinga qabul qilib, asl ro‘honiy hayotda o‘zlarining ajdodlaridan qolgan avvalgi “oq din” lariga sig‘inishni, qadimgi urf-odatlarga amal qildishni davom ettirishgan. Ustrushonada 822 yilgacha bo‘lgan arab xalifaligiga bir zaylda hech qachon hiroj to‘lamagan. Islomni qabul qilmagan ustrushonaliklardan jo solig‘i, jiz’ya olingani haqida ham hech qanday ma’lumotldar yo‘q. Bunga sabab, qachonki arablar Buxoro, Samarqand kabi markaziy shaharlardagi aholi xanodonlarining muayyan qismida muqim yashab, u erdag'i iqtisodiy va ma’naviy hayot tizginini o‘z qo‘llariga olganlar. Keyin esa, mahalliy xalqning ruhoniy turmush tarzini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lganlar¹¹⁰. Natijada jiz’aga tortilgan yoki undan ozod qilingan aholi tarkibi aniqlangan. Ustrushonada esa 822 yilda uzil kesil zabit etilib, Arab xalifaligi tarkibiga butunlay qo‘shib olinguncha arablarni bu mamlkatda muqim joylashib, mahalliy aholi bilan birga yashaganliklari manbalarda qayd etilmagan.

822 yildan boshlab Ustrushona afshinlari xalifalikning nominal tarkibiy qismi tohiriyalar davlatiga qo‘shib olinadi va tobe mamlakatga aylanadi. Ustrushona shu davrdan boshlab barcha arabzabon tarixchi, geograflarning asarlaridan munosib o‘rin egallay boshlaydi¹¹¹. U Xuroson va Movaraunnahrni birlashtirib boshqargan tohiriyalar davlatining siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim strategik ahamiyatga ega viloyatlardan biriga aylanadi. Shu davrdan boshlab Ustrushona tohiriyalarga muntazam ravishda 50 ming (shundan 48 ming muhammadiy, 2 ming musayyabiy) dirham hiroj to‘lay boshlagan. Somoniylar davlati davrida Ustrushonada hukmronlik qilgan afshiniylar sulolasiga 893 yilda tugatiladi. Keyingi yozma manbalarida qayd etilgan Ustrushona atamasi siyosiy tuzulma davlatni emas, balki muayyan viloyatnng geografik nomi smfatida qo‘llana boshlagan. Demak, Ustrushona somoniylar va undan keyingi davlatlar tarkibida viloyat maqomini oladi.

¹¹⁰ Пардаев М.Х., Фофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари... Б. 310.

¹¹¹ Пардаев М.Х., Фофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари... Б. 311

Arablar Ustrushonani ham ulkan qudratga ega bo‘lgan turk olami – ko‘chmanchilar dashtidan ajratib tashlashga harakat qilganlar va buning uchun Ustrushonanining dasht hududlari bilan chegaralarida ulkan mudofaa devorlarini qayta tiklaganlar. Turklar tomonidan harbiy va siyosiy maqsadda qurilgan istehkom va qa’lalarni buzib tashlaganlar. Biroq, Ustrushonanng ko‘chmanchilar olami bilan aloqlari shunchalik bog‘lanib ketgan ediki, uni na devor na boshqa kuch bilan ajratib bo‘lmas edi. Bu madaniy aloqalar ko‘p vaqt o‘tmasdan yana qaytadan tiklangan.

2.3. Ustrushonaning siyosiy va ijtimoiy hayoti yozma manbalar talqinida

Ustrushona hududi va ularning chegaralari haqidagi ma’lumotlar IX-X asrlarga taalluqli arab geograflarining asarlarida mufassal berilgan bo‘lib, unda ta’riflab va sanab o‘tilgan joylar, ancha oldin yoritilgan manbalar hamda ilk o‘rta asrlardagi chegarasidan deyarli farq qilmaydi. X asrda yashagan arab geografi, Abul-Qosim Muhammad ibn Havqalning yozishicha “Ushrusana – bu (bir) viloyatning nomi, xuddi as-Sug‘d ham viloyat nomi (bo‘lganidek). Unda bu nomli shahar yo‘q. Ushrusanani Movaraunnahrning boshqa viloyatlari o‘rab turadi: sharqdan Farg‘ona va Fomirning bir qismi, g‘arbdan Samarqand hududlari, shimoldan ash-Shosh va Farg‘onaning bir qismi, janubdan esa Kesh, as-Sag‘oniyon, Shumon, Voshjird va ar-Roshtning ba’zi hududlari tutashgan”¹¹². Al- Istahriyning (Mamlakatlarning masofalari kitobi) asarida keltirilgan Ustrushona chegaralari haqidagi ma’lumotlar, ibn Havqal estaliklariga mos keladi. Unda yozilishicha, “Ustrushona mamlakatning nomi, bu nom bilan ataluvchi shahar yo‘q, katta qismi tog‘lardan iborat. Ustrushona sarhadlari g‘arbda Samarqand, shimoldan Shosh va Farg‘onaning bir qismi, janubdan

¹¹² Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард (Араб тилидан таржима ва изохлар муаллифи Ш.С. Камолиддин). Тошент: ”Узбекистон миллый энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011. –Б: 68.

Kesh, Sag‘aniyon, Shuman Vashxird va Rashtning ayrim hududlari, sharqdan Farg‘onaning bir qismi bilan chegaralanadi”¹¹³.

Ustrushonaning chegaralari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilgan V.V. Bartolbd “Samarqand va Xo‘jand o‘rtasidagi deyarli barcha kenglik Osrushana yoki Sutrushana mamlakatini tarkibiga kirgan” deb ta’kidlagan edi¹¹⁴. M.E. Massonning yozishicha “Aynan Ustrushona nomi bilan Jizzax va O‘ratepa oralig‘idagi keng maъnoda tushuniladigan hududlar atalgan. Unga janub tomondagi tog‘lik viloyat Buttam qo‘shilganidan so‘ng mazkur nom boshqa o‘lkalarga nisbatan ham qo‘llanilgan”¹¹⁵. N.N. Negmatov Ustrushona hududiga hozirgi O‘zbekiston respublikasining Jizzax, Sirdaryo viloyatlari, Tojikiston respublikasining O‘ratepa, Xo‘jand viloyatlari va Qirg‘iziston respublikasining Laylak tumanlari to‘g‘ri kelishini ta’kidlagan¹¹⁶. Biz ham ushbu ko‘rsatilgan hududlar qadimgi Ustrushona mulklariga to‘g‘ri keladi degan fikrdamiz.

Ustrushona haqida dastlabki ma'lumotlar Xitoy yilnomalarida uchray boshlaydi. Xitoy imperatorlarining sulolaviy (“Sinь Tanь shu” -Tanь saroyi tarixi) yilnomasida bu davlat ya’ni Sharqiyyssao (davlati) – Shuaydushana, Suduyshana, sszebutseyuyna (Szebudana), Sudushini kabi to‘rtta nom bilan ataladi. ”Suyshu” (Suy sulolası tarixi)ning 83- bobida Farg‘onadan Sutrishona (Suduysiana) davlatigacha 500 li (288) deb ta’kidlangan¹¹⁷. “Veyshu”da Kangiya (Qang‘) davlati o‘rnida tashkil topgan o‘n bitta davlatlar qatoridassao hokimligi ham sanab o‘tilgan¹¹⁸. Yuqoridagi matnda keltirilgan "Szebudana" transkripsiysi A.G. Malyavkinning fikricha SHarqiyyssao haqidagi maъlumotlarga tasodifan tushib qolgan. Bundan taqqari Tan saroyida sharqiyyssaoni “Layviy”, ya’ni “O‘rta podsholikni tan olib buysungan davlat” deb

¹¹³ Истахри (Абу Исхак Ибрагим ибн Мухаммад). Китаб масалик ал-мамалик . // Материалы по истории киргизов и Киргизии. - М. 1973.Вып.1 – С.23.

¹¹⁴ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Соч. - М., 1963.т.1-С.221.

¹¹⁵ МассонИ.Е. По поводу работы П.П.Иванова // К. истории развития горного промысла в Средней Азии.-М.-Л, ,1932.-С.106.

¹¹⁶ Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Усрушаны с древнейших времен по Х в.н.э...-С. 239.

¹¹⁷ Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. “Фарғона” нашриёти 2013. – Б.80.

¹¹⁸ Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар.... – Б. 147.

ham atashgan¹¹⁹. Xitoy sayyohi va rohibi Syuan Szanning VII asrga oid ma'lumotiga ko'ra, sutulisen (Ustrushona)liklarning urf-odatlari chochliklarnikiga o'xshash bo'lib, ularning podshosi Turk xoqoni vassali hisoblangan¹²⁰. Bu Ustrushonaning Farg'ona, Choch va Sug'd davlatlari kabi Turk xoqonligi ta'sirida ekanligini ko'rsatadi. Ustrushonaliklarning mahkamachilik ishlari sug'diy tilga yaqin, sug'diy tilning bir shevasida yuritilgan. V.A. Livshits, Chilxujradan topilgan yog'och taxtachaga tush bilan yozilgan hujjatlarni o'qib, uni Mug' arxivi hujjatlari bilan qiyoslagach, shunday xulosaga kelgan¹²¹. Biroq, bu boshqaruv o'troq vohalar uchun ta'lluqli bo'lib, ko'chmanchi chorvadorlarda o'zlarining turkiy an'analarga asoslangan siyosiy hokimiyati va shu tildagi mahkamachilik tili bo'lgan deyish mumkin.

Ustrushona nomi VIII asrning boshlariga taalluqli bo'lgan Mug' g'oridan topilgan so'g'd yozma xujjatlarida ham bir necha bor qayd etilgan. Panjikent hokimi Devashtichga uning xizmatkori Fatufarn tomonidan yozilgan maktubda Ustrushonada bo'layotgan voqealar, ustrushonaliklarning arablarga qarshi kurashda kursatayotgan yordamlari bayon qilingan¹²². Ushbu arxivining A-14 hujjati – Panch viloyati hokimi Devashtichning Chochga yuborgan elchisi “Fatufarn maktubi”da: ’strwšnyk ’wt’k s’tw ’py’nstk – “Estrushana viloyati hammasi (dushmanga – arablarga) topshirilgan” jumlesi va A-9 hujjatidagi: ’strwšnk n’βw – “Estrushana odamlari” satrlari¹²³ bu paytda ham Ustrushonaning mintaqasi siyosiy hayotida o‘z o‘rni bo'lganligini ko'rsatadi.

Ustrushona va uning rustoqlari hakidagi batafsил маълумотларни о‘рта аср arab geograf va tarixchilarining asarlarida uchratish mumkin. Ular Ustrushonada Bunjikat (O'ratega), Arsubonikat, Kurkat (Shirin), Fankon – Fag'non (mavjud zamonaviy manbalarda Fag'non deyilmoqda – F.T.) (Dizak), Zomin, Sarsanda,

¹¹⁹Маявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии // Тексты и исследования,- Новосибирск,1983.-С.78.

¹²⁰ Гафуров Б.Г. Таджики. Кн. 1. – Душанбе: Ирфон, 1989. – С. 366.

¹²¹ Согдийские документы с горы Муг. Вып. II: чтение, comment. и пер. В.А. Лившица. – М.: Наука, 1962. –С. 71-74.

¹²² Лившиц В.А. Юридические документы и письма (Согдийские документы с горы Муг. Вып. 2) - М.: Наука, 1962. – С.95.

¹²³ Исхоков М.М. Унутилган подшоликдан хатлар. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 5, 48.

Susanda (Zomin), Xarqona, YAngiqo‘rg‘on (G‘allaorol), Burnamad (Baxmal), Sabat (Kultepa–Savat), Nujket (Nushkent), Marsmanda, Mink nomi bilan ataluvchi rustoqlar, ularning obod markaziy shaharlari, o‘nlab rabod, qa’la, karvonsaroylar mavjud bo‘lganligini o‘z asarlarida yozib qoldirishgan¹²⁴. Mazkur shahar va qa’la rabodlarning ko‘pchiligining o‘rni hozirgi kunda arxeologik tadqiqotlar orqali aniqlangan, ma’lum tarixiy yodgorlik bilan bog‘langan.

Ustrushonada vohani suv bilan ta’minlab beradigan katta kichik daryo, soylar mavjud bo’lib, ustrushonaliklar mana shu havzalar bo'yida hayot kechirganlar. Ushbu suv manbalarini uchta tarixiy geografik hududga bo’lish mumkin.

1. Markaziy Ustrushona suv manbalariga–Turkiston tog’ tizmalaridan bosh olgan Basmandasoy, Shahristonsoy, Kattasoy, Nijonisoy, Qipchoqsoy kabilar kirgan.

2. Shimoliy Ustrushona suv manbalariga–Zomin soy, Xo’jamuskentsoy, Mo’g’olsoy, Tog’obsoy, Sarmichsoy, Sho’rbuloqsoy kabilar kirgan. Mazkur soylarning aksariyati (Zomin soy, Xo’jamuskentsoy) Turkiston tog’ tizmalaridan bosh olgan. Ba’zilari esa ma’lum soyning quyi oqimida boshqacha nom bilan atalgan. Masalan, Nijonisoy–Sho’rbuloqsoy, Namgonsoy–Mo’g’olsoy va boshqalar.

3. Shimoli-g’arbiy Ustrushona suv manbalariga–Sangzor daryosi, Oqbuloq, Jarbuloq, Sayxonsoy, Ko’rpasoy, Turkmansoy, Achchisoy, Qo’shchisoy, Jaloyirsoy kabilar kirgan. Shuningdek Zarafshon daryosidan ma’lum miqdordagi suv Tuyatortar kanali orqali Sangzor daryosiga tashlangan va voha dehqonchiligi uchun sarflangan.

Ustrushonaga geograflar tomonidan tekis, cho’lliklarga tutash rustoqlarga ega bo‘lgan dehqonchilik vohalari sifatida ta’rif berilgan. Ibn Havqalning

¹²⁴ Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард. – Б. 68-70., Ибн Хордадбех. Книга “Пути и страны” / Пер. с арабск. коммент. и исслед. указ. и карты Н.Велихановой.- Баку: Элм, 1986, Истахри. Китаб масалик ал-мамалик...- С Л.5-23., Бетгер Е.К. Извлечения из книги «Пути и страны» Абу-л-Касима ибн Ҳаукаля. Труды САГУ. – Тошкент: 1957. С. –17.

yozishicha, “Ustrushonada kema yursa bo‘ladigan daryo ham ko‘l ham yo‘q, lekin uning ekinzorlari, yaylovlari va qishloqlari obod hosildor va (turli-tuman) mahsulotlarga boy¹²⁵ ... Uning yirik shahri ustrushonaliklar tilida Bunjikat deb ataladi. Unga quyidagi shaharlar qarashli: Arsubonikat, Kurkat, G‘azak, Fag‘kat, Sobot, Zomin, Dizak, Nujkat, Xarqona. Bular Ustrushonaning shaharlaridir. Hukmdorlari yashaydigan bosh shahar Bunjikat bo‘lib, unda erkak aholining soni taxminan o‘n ming kishini tashkil etadi. Binolari esa paxsa va g‘ishtdan qurilgan”¹²⁶. Muarrix yuqoridagi shaharlarning har birida rustoqlar borligini ta’kidlab, shaharlari mavjud bo‘lmagan Bashog‘ar, Masxo, Barg‘ar, Farg‘ontom, Mink, Baskan va Isbikat rustoqlar haqida ham to‘xtalgan¹²⁷. Ushbu sayyohning bergen ma’lumotidan Ustrushonaning tog‘ mavzelarida joylashgan rustoklarida shaharlar mavjud bo‘lmaganligini anglash mumkin. Rustoqni esa tuman deb atash mumkin, ushbu tumanning markaziy qa’la –shahri ham bo‘lgan. Masalan, Fankon rustoqining bosh shahri Dizak bo‘lgan, shahar atrofidagi qo‘rg‘onlar esa rabot deyilgan. Ibn Havqal rustoqni quyidagicha tushuntiradi. ”Devor ichida joylashgan hamma narsa shaharniki, devor tashqarisidagilar esa rustoqni hisoblanadi”¹²⁸. Rustoqlarning ma’muriy-markaziy bosh shahri mavjud bo‘lgan. Har bir rustoq mahalliy sulola – dehqonlar tomonidan boshqarilgan. Har bir dehqon o‘z qo‘s Shiniga ega bo‘lgan. Barcha dehqonlar Ustrushonaning oliv hukmdori – “afshin”ga bo‘ysingan.

N.N. Negmatovning yozishicha, Ustrushonaning tekislik qismidagi rustoqlar – Bunjikat, Sabat, Zomin, Fag‘non, Nujkat va Xarqona deb atalgan bo‘lsa, tog‘li qismidagi rustoqlar – Mink, Asbanikat, Biskar, Bangam, Vakr, SHagar, Mascha, Burgar, Buttam deb nomlangan¹²⁹. Davlat poytaxti - Bundjikat SHahristonsoy daryo qirg‘oqlarida, hozirgi Shahriston qishlog‘i va uning tog‘oldi hududlarida qad rostlagan. Bu davrda Bundjikat Markaziy Osiyoning

¹²⁵ Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард... –Б: 70.

¹²⁶ Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард... –Б: 68.

¹²⁷ Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард... –Б: 70

¹²⁸ Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард... –Б: 69.

¹²⁹ 98. Негматов Н.Н. Государство Саманидов (Мавераннахр и Хорасан в IX-X вв.). – Душанбе.: “Дониш” 1977. – С. 43.

katta shaharlaridan biriga, iqtisodiyot, savdo va madaniyat markaziga aylangan. Yozma manbalarida ta'kidlanishicha, shaharda 10 mingga yaqin aholi yashagan, shahar uchta qismdan- kuhandiz, shahriston va rabotdan iborat bo'lgan. Har bir qism o'zining himoya devorlariga ega bo'lgan. Undan tashqari, shaharning dushmanidan himoya qilinishi uchun umumiy tashqi devor qurilgan.

Qal'ai Qahkaxaning arxeologik qazilmalaridan ma'lumki, afshinlarning saroyi arxitektura jihatidan o'zining bahaybatligi va go'zalligi bilan ajralib turgan. Saroy 230 kv.m. maydonida joylashib, uch qavatli katta zal va 95 kv. m. kichik zal, yotoqxonalar, saroy arsenali, bir- birini bog'lab turadigan xonalar, dahlizlar, oshxonalar va novvoylardan iborat bo'lgan. Mehmonxona inter'jerlari ham afsonaviy mazmundagi monumental tasviriy panno va frizlar bilan bezatilgan. Markaziy donjonning fasad devorlari figurali pishgan g'ishtlar bilan terilganligi o'ziga xosligini belgilaydi. Saroy katta zalingin kirish eshiklaridagi yog'ochli timpani o'ymakorlik naqshinkor rasmlari bilan ajralib turgan. Timpan uchta massiv taxtadan yarim aylana shaklda yasalgan (eni 293 sm, bo'y 143 sm, qalinligi 8-9 sm)¹³⁰. SHakllar orasida bo'sh uchburchaklarida odamlar qo'llarini ko'tarib tepadagi shakllarini ushlab turganini ko'ramiz. Figuralar mo'jaz shaklda bo'lishiga qaramay, tasvirchi barcha atributlarni mayda detallargacha yaratishga to'liq muvaffaq bo'lgan.

Saroyda oziq-ovqatni toplash va saqlash uchun omborxona joyi ham bo'lgan. 1972 yilda o'tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasida 158 litrdan 295 litrgacha bo'lgan sig'imda 47 ta xum topilgan. Barcha xumlarning sig'imi 10 ming litr bo'lganligini hisobga olsak, saroyda bir vaqtning o'zida 10 tonna oziq-ovqat saqlash mumkinligidan dalolat beradi. Maxsus arsenalda 5300 dona katta toshlar va hisobi yo'q mayda toshlar saqlanganligi saroyning doimiy himoyaga tayyorligini bildirgan. Ushbu saroy 893 yilda somoniylar tomonidan Ustrushonani bosib olishi va afshin sulolasining yo'q qilinishi natijasida buzilib, yonib ketganligi haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan.

¹³⁰ В.А. Воронина, Н.Н.Негматов. Открытие Уструшаны. // Наука и человечество. Международный ежегодник. Москва, 1974, - С. 51-71.

Ustrushonaning shimoli-g‘arbiy rustoqlari mamlakatning ajralmas qismi sifatida uning siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Bosh shahar Bunjikat rabodining to‘rt darvozasidan ikkitasi shimoli-g‘arb shaharlari nomi bilan “Zomin va Nujket darvozalari”¹³¹, deb atalgani bejiz bo‘lmasa kerak.

Ustrushonada bosh shahar Bunjikat dan keyin ikkinchi bo‘lib Zomin tilga olinadi¹³². Zomin shu rustoqning bosh shahri bo‘lib, u Farg‘ona bilan So‘g‘gdni bog‘lovchi katta karvon yo‘li yoqasida, tog‘ oldi o‘lkasida joylashgan. Bu Haqda ibn Havqal “U Farg‘onadan as-So‘g‘dga olib boruvchi yo‘lda joylashgan uning boshqa nomi Savsanda. U yerda eski shahar ham bor, lekin u xaroba holatida. Bozorlar, jome masjidi va aholisining hammasi Savsandaga ko‘chirilgan. Bu yangi shaxar atrofida devor yo‘q. U Butun as-So‘g‘ddan Farg‘onaga ketayotgan yo‘lovchilarining to‘xtov yeridir. Unda oqar suvlar, bog‘lar, tokzorlar va ekinzorlar bor” deb ma’lumot beradi¹³³. YUqoridagi ma’lumotdan anglash mumkinki, ibn Havqal Zominga kelgan paytda eski shahar vayronaga aylangan bo‘lib, bozorlar va jomъе masjidi Sarsandaga ko‘chirilgan bo‘lgan. Shunga qaramay, Zominga ko‘plab sayyoh va savdogarlar to‘xtashgan. Ular Xitoydan to, ajam va arab mamlakatlarigacha bo‘lgan o‘lkalardan bo‘lib, turli xil tovar, molumatochlар olib kelishgan. Zominda oqar suv, bog‘, uzumzor, bug‘doyzorlar va chorva mollari ko‘p bo‘lgan.

Zomin so‘zi so‘g‘dcha, z’yh “er” va men(a) “qishloq”, “mahalla” so‘zlaridan yasalgan¹³⁴. Zomin atamasi esa, ilk bor, Panjikent hokimi Divashtichning VIII asr boshlariga ta’luqli arxiv xujjalarda qayd etilgan. IX asrda yashab o‘tgan al – Yoqubiyning yozishicha, “Zomin va uning atrofida ko‘plab rabotlar faoliyat ko‘rsatgan”. Ibn Xurdodbex esa, boshqa zamondoshlari kabi faqatgina Zomin shahri va unga tegishli masofalarni emas, balki, Zominning geografik xususiyatlari, shahar tarixi haqida ham qisman bo‘lsada ma’lumot berishga harakat qilgan. Uning yozishicha “Zomin ash-SHosh,

¹³¹ Бетгер Е.К. Извлечения из книги «Пути и страны» Абу-л-Касима ибн Хаукаля. Труды САГУ. – Тошкент: 1957. – С. 21.

¹³² Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард... –Б: 69.

¹³³ Ўша манба. Ўша жойда...

¹³⁴ Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард... –Б: 225.

Farg‘ona va turklar o‘lkasida olib boruvchi yo‘llar kesishgan chorraxada joylashgan”¹³⁵. O‘rta asr mualliflarining Zomin haqidagi ba’zi ma’lumotlari munozaralidir. Xususan, yuqorida ta’kidlaganidek, ibn Havqal Zomin – Sarsandaninig mudofa devorlari yo‘q deb ma’lumot bersa, aksincha, X asrda bitilgan “Hudud ul-Olam” asarida Zomin shahristoni qudratli devorlar bilan o‘rab olingani haqida yozgan.

Ustrushonaning shimoli-g‘arbiy rustoqi Faknonning tarixiy hududi hozirgi ma’muriy bo‘linishlar bo‘yicha, taxminan Jizzax shahri va tumani hududiga to‘g‘ri keladi. U shimoli-g‘arbiy Ustrushonaning eng chekkasida, ko‘chmanchilar dashti bilan chegarada joylashgan. Faknon rustoqining bosh shahri Dizak aholisi zikh joylashgan shahar bo‘lib, ko‘p sonli uylari, bozorlari, bog‘lari, musofir va savdogarlar uchun karvonsaroylari bilan mashhur bo‘lgan. O‘rta asr tarixchi – geograflari Ibn Havqal, al- Istahriy, al- Muqaddasiylarning yozishlaricha, – “Dizak tekislikda (joylashgan) shahar. Uning yonida Fankon nomli rustoqi bor. Urush vaqtida unda Samarqand aholisi to‘planadi. Unda ko‘p sonli odamlarni sig‘diradigan rabotlar bor... Dizakda oqar suvlar va bog‘lar bor. U hosildor shahar”¹³⁶. Fankon rustoqi erlarini sug‘orishda Sangzor daryosidan qazib chiqarilgan kanaldan foydalanishgan. Shuning uchun bo‘lsa kerakki, Fankon so‘zi ham so‘g‘dcha fra-kana – “kavlomoq”, “qazimoq” fe’lidan yasalgan deb taxmin qilinadi¹³⁷. Dizakliklar jun va tivitdan kiyim kechak tikishga, gilam to‘qish va namat bosish ishlariga nihoyatda usta bo‘lganlar, manbalarda jizzaxliklar dehqonchilik borasida ham mohir bo‘lganligi ta’kidlanadi. Bu o‘lkada mevalar shu qadar ko‘p etishtirilganki, hatto, mevalar bilan uy hayvonlari boqilgan. Shaharda hunarmanchilik, shahar atrofida ziroatkor – dehqonchilik taraqqiy etgan.

Noma’lum muallif tomonidan yozilgan “Hudud ul- Olam” asarida ham Dizak haqida ma’lumotlar bor. Unda yozilishicha, “Dizak oqar suv yaqinidagi uncha katta bulmagan shahar. Uning yonida Marasmand degan joy bor, har yili u

¹³⁵Ибн Хордадбех. Книга “Пути и страны”... – С. 86.

¹³⁶Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард...–Б: 69.

¹³⁷Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард...–Б: 228.

erda bir marta yarmarka bo‘ladi va aytishlaricha bir kunlik savdo muomalasi 100000 dinordan oshadi”¹³⁸. 1X-X asrlarda Dizak shahri muhim harbiy strategik ahamiyatga ham ega bo‘lgan. Dizak bu davrda dashtdan kirib keluvchi cho‘lliklarning talonchilik yurishlariga qarshi zarba beruvchi islom lashkari “g‘oziyilar” qarorgohiga aylangan. Shu sababli Dizakda nafaqat ustrushonaliklarni balki samarqandliklarni xususiy rabodlari qad ko‘targan¹³⁹. Jizzax vohasida rabodlarni boshqa inshoatlarga nisbatan ko‘p va mohirlik bilan qurishgan. Xudaysar rabodining ovozasi esa uzoq ellarga qadar ma’lum bo‘lgan. Ehtimol shuning uchun xam yana bir o‘rtalik muallifi Ahmad al-Kotib Ustrushona haqida “bu ulkan va muhim ahamiyatga ega mamlakat, unda 400-ta qa’la va bir qancha yirik shaharlar mavjud”, - deb ta’kidlagan¹⁴⁰. “Qal`a va rabodlar mamlakati” bo‘lgan Ustrushonaning, Fag‘non rustoqi, boshqa ma’muriy hududlar qatori Somoniylar davlatiga qo‘sib olingandan keyin ham bu erda bir necha yangi shahar va qishloqlarga asos solingan.

Xarqona (Xarkana) mamlakatning So‘g‘d bilan tutash chegarasida – Samarcanddan 8 farsax masofada¹⁴¹, So‘g‘d-SHosh karvon yo‘li yoqasida (hozirgi G‘allaorol tumani, Saribozor qishlogi atrofida) joylashgan. Al-Istahriy, ibn Havqal va al- Nuqaddasiylarning “Xarqona Ustrushona shaharlaridandir” deb yozishlariga qaraganda rustoq va uning boy shahri yagona nom bilan atalgan, hamda raboti bo‘lgan. Xarqona (Xarana) so‘zining lug‘aviy ma’nosи haqida yagona to‘xtamga kelinmagan. Mavjud fikrlarga ko‘ra, bu nom qadimgi yunoncha “qo‘nalg‘a”, “istehkom”, “manzilgoh” so‘zlaridan, boshqa bir fikrga ko‘ra, so‘g‘dcha “olg‘a yurmoq”, yoki qadimgi turkiy “qo‘rg‘oshin” (Mahmud Qoshg‘ariyda) so‘zining so‘g‘dcha shakli bo‘lganligi haqida fikrlar mavjud¹⁴². Bizningcha “Xarqona” bu turkiycha “qora” – kuchli, qudratli, mustahkam va forscha “xona” – uy, joy, so‘zlarining o‘zgarishga uchragan shakli. Qora so‘zi

¹³⁸ Сверчков Л.М. Поселение Мык - источник по истории средневековой Уструшаны: Автореф.дисс. ...канд.ист.наук.- Самарканд,1991. –С.15.

¹³⁹ Бетгер Е.К. Извлечения из книги «Пути и страны» Абу-л-Касима ибн Хаукаля... – С. 21.

¹⁴⁰ Грицина А.А. Уструшанские были... –С. 33.

¹⁴¹ Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард... –Б: 226.

¹⁴² Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард... –Б: 226.

nafaqat kishilar balki, mustahkam qa'lalarga nisbatan (Masalan, Qoratepa) ham ko'p qo'llanganligi ma'lum. Ustrushona shaharlari orasidagi masofalar o'lchamini berayotgan mualliflar aksariyat hollarda Xarqona rustoqini boshlama harakat yo'naliislari me'zoni qilib olishgan, Xususan, al-Istahriyni yozishicha "Xarqonadan Dizakkacha - besh farsah, Xarqonadan Zomingacha - to'qqiz farsah va Nujketdan Xarqonagacha -ikki farsah"¹⁴³.

Nujkat xususida yozma manbalar juda qisqa ma'lumotlar bilan chegaralanib qolgan. Bunjikat darvozalaridan biri shu nom bilan atalgan. "Nujkat" so'zining lug'aviy ma'nosи, so'g'dcha "yangi qishloq" ma'nosini beradi¹⁴⁴. N.Negmatov Nujkatni hozirgi Baxmal tumanidagi Mo'g'ol va Baxmal qishloqlari orasida bo'lgan deb taxmin qiladi¹⁴⁵. A.E. Berdimurodov bu masalaga yanada oydinlik kiritib, "... Nujkat, bu hozirgi Sangzor daryosini yuqori oqimidagi Nujket qishlog'ida joylashgan IX-XI asrlarga oid yodgorlik o'rnila bo'lgan" deb ta'kidlaydi¹⁴⁶. Nujkatning shahar ekanligi aytilsada, uning xususiyatlari, qaysi rustoq tarkibida ekanligi, geografik o'rni haqida ma'lumotlar berilmagan.

Burnamad, Feknon va Xarkanadan janub va janubi-sharqda, Samarqanddan Zominga boradigan katta yo'l yoqasida, So'g'dning YArkat rustoqi bilan chegaradosh hududda joylashgan¹⁴⁷. Rustoqning g'arbiy tomoni tog'lik, sharqi cho'llikdan iborat bo'lgan. Istaxri va al-Muqaddasiylar, Burnamat katta bo'lmanan qishloq bo'lib, aholisi ham ko'p emas degan ma'lumotni, Ibn Havqal esa, aksincha, Burnamadda ko'plab qishloqlar borligi haqida yozadi. Bu erda X asrda machit ham, yerni sug'oradigan daryo ham bo'lmanan. Dehqonchilik uchun buloq suvlari va qor va yomg'irdan foydalanishgan. Burnamad Barkatdan 9 farsax, Zomindan esa 4 farsax masofada joylashgan.

¹⁴³ Истахри. Китаб масалик ал-мамалик // Материалы по истории киргизов и Киргизии. - М.: 1973. № 1 – С. 32.

¹⁴⁴ Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард... –Б: 226.

¹⁴⁵ Негматов Н.Н. Усрушана в древности и раннем средневековье // Труды ИИАЭ АН ТаджССР. Т. 55. Сталинабад: 1957. – С. 40.

¹⁴⁶ Бердимуродов А.Э. Раннесредневековые археологические памятники Джизакского оазиса (Северо-Западной Узбекистана V-X вв.): Автореф.дис.. канд.ист.наук.-М.: 1985. – С. 12.

¹⁴⁷ Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Усрушаны с древнейших времен по Х в.н.э... – С. 247.

N.N.Negmatov Burnamad rustoqini, Pshag‘ar, Qo‘rpa va Taylan qishloqlari atrofida joylashgan deb hisoblaydi¹⁴⁸. A.A. Gritsina esa Burnamadni, Ravotsov havzasidagi hozirgi Poymard qishlog‘i o‘rnida bo‘lgan¹⁴⁹ degan fikrni beradi.

Ustrushona shaharlaridan deb e’tirof etilgan Sobot, So‘g‘dni SHosh bilan bog‘lovchi karvon yo‘lida, Samarqanddan 20 farsax masofada joylashgan. Ibn Xo‘rdodbehning yozishicha Sobot bilan Zomin orasidagi masofa 2 farsax, Istanxriyning yozishicha 3 farsax bo‘lgan¹⁵⁰. Arab geograflarining ba’zilari (Istanxri, ibn Havqal, Yoqut kabilar) Sobotni Ustrushona shaharlaridan desa, boshqalari (al-Muqaddasiy va Qudama) katta qishloq deb ta’riflashgan. Arab muarixlari Sobotni karvon yo‘lidagi muhimbekat deb ta’riflashdan tashqari, unda oqar suv bo‘lib, bog‘lar bilan o‘ralganligi, usti ayvon shaklida yopilgan bozorlar mavjud bo‘lganligini ham yozishgan¹⁵¹. A.A. Gritsinaning yozishicha, uning xarobalari Eski Savat qishlog‘idan 3 yoki 4 km janubi-g‘arbda Xo‘jamushkentsoy bo‘yida joylashgan, hozirgi Kul’tepa shahar yodgorligi o‘rnida bo‘lgan¹⁵². Sobot so‘zining ma’nosini haqida yagona fikr yo‘q, ayrim manbalarda u arabcha “usti yopiq yo‘l”, yoki so‘g‘dcha “chap tomon”, ma’nosini berishi¹⁵³, yoki Sebat, ya’ni “uch karvonsaroy” ma’nosini anglatishi¹⁵⁴ haqida yozilgan.

Shunday qilib, ko‘rinib turibdiki, yunon, xitoy va arab yozma manbalarida qadimgi va o‘rta asrlardagi Ustrushona davlati tarixi, moddiy madaniyati haqida g‘oyat qimmatli, xolis, birmuncha umumiyyat va ba‘zan bir-birini inkor etuvchi mäylumotlar berilgan. Keyingi yillarda qilingan arxeologik tadqiqotlar bu tarixiy yozma manbalarni yangi mäylumotlar bilan to‘ldirishga imkon yaratmoqda.

¹⁴⁸ Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Уструшаны с древнейших времен по Х в.н.э... – С. 247.

¹⁴⁹ Грицина А.А. Уструшанские были... – С. 152.

¹⁵⁰ Ибн Хордадбех. Книга “Пути и страны” / Пер. с арабск. comment. и исслед. указ. и карты Н. Велихановой.- Баку: Элм, 1986. – С.65., Истанхри. Китаб масалик ал-мамалик... – С.21.

¹⁵¹ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарыинской области. – Ташкент: Фан, 1992. –С. 29

¹⁵² Грицина А. А., Сверчков Л. М. Археологические исследования в Сырдарыинской области. // ИМКУ Вып. 23. Ташкент, 1990. С. 119., Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарыинской области... –С. 29

¹⁵³ Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард... –Б: 225.

¹⁵⁴ Мухаммаджонов А.Р. К этимологии топонимов «Сабат» и «Рабат» // К изучению работов на торговых путях. Тезисы. Ургенч 1991. – С.63.

IX asrning 20 yillarigacha Ustrushona afshinlari sirtdan qaraganda arablarga qaram ko‘rinsada, aslida, ular chorvador turklarga suyangan holda arablarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borib, ichki boshqaruv, qadimiy e’tiqod va an’analarini saqlab qolgan holda, o‘zini mustaqil davlat sifatida tutishga harakat qilgan. 822 yilda Ustrushona arablar tomonidan to‘la bosib olinib, Toxiriylar davlati tarkibiga qo‘sib olingandan keyin ham Ustrushonada obodonchilik va ma’murchilik davom etgan. Ayniqsa, Ustrushona hukmdori Kovusning o‘g‘li afshin Haydar davrida qurilish va obodonchilik ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Aynan shu davrda qurilgan ko‘plab inshoatlardan, Xudaysar rabodini alohida ta’kidlash lozim. Ibn Havqalning maъlumotiga ko‘ra “Uning hududidagi eng diqqatga sazovor bo‘lgan rabot Xudaysar raboti bo‘lib u shahar (Dizak F.T.) dan ikki farsah masofada joylashgan. Bu Movaraunnahrda eng mashhur rabotlardan biri bo‘lib uni al-Afshin qurdirgan”¹⁵⁵. Uning ko‘rinishi shunday mahobatli bo‘lganki, hatto uni YOqut “Movarounnahr sarhadidagi shahar” deb e`tirof etgan¹⁵⁶.

Umuman, bu davrda Ustrushona o‘zining obod vohalardagi rabot va karvonsaroylari bilan butun xalifalikka mashhur bo‘lib, Sharq va G‘arbni bir-biri bilan bog‘lab turgan Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyati Ustrushona xalqlari iqtisodi va madaniyati, jumladan xo‘jalik madaniyatiga katta ijobjiy ta’sir ko‘rsatgan. Eng serqatnov karvon yo‘li Bog‘dod – Tabriz – Koshon – Marv – Chorjo`y – Buxoro – Samarcand – Xarakana – Dizak yo‘nalishi bo‘lib, Dizakdan so‘ng yo‘l ikkiga, hatto uchga bo‘linib ketgan va barcha holatlarda ham u arab va ajam mamlakatlarini Movarounnahr va Xitoy bilan bog‘lagan.

Ustrushonaning Turk hoqonligi tarkibiga kirishi davri uning madaniy rivojlanishi darajasining ancha yuksakligi bilan tavsiflanar ediki, bunda VI asr O‘rtalarida turklarning nazorati ostida bo‘lgan xalqaro savdo yo‘llaridagi

¹⁵⁵ Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард... –Б: 69

¹⁵⁶ Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Усрушаны с древнейших времен по Х в.н.э... – С. 246.

barqarorlikning xizmati bor. Ayrim hukmdorlarning xalqaro savdoda ishtirok etish huquqi ham Turk xoqoni tomonidan belgilanardi¹⁵⁷.

G‘arbiy turk xoqonligi mavjud bo‘lgan davr turklarning mahalliy hukmdorlar bilan o‘zaro munosabatlariga oid manbalarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ularga, eng avvalo, Xitoy yilnomasi Suy Shuning Datou hoqonning (575—603) qizi bilan sug‘d hokimi Dayshebi O‘rtasidagi nikoh haqidagi ma’lumotlari kiradi. O‘sha arning o‘zida «u yerda qonunlar va yozuv turkcha» ekanligi qayd qilinadi³². Ancha keyingi davrlarga kelganda Samarqand va Panjakentning ayrim hokimlari kelib chiqishiga ko‘ra turklar ekanligini ko‘ramiz.

Ustrushona ilk o‘rta asrlar jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy va etnomadaniy hayotida tub o‘zgarishlar yuz beradi. Ijtimoiy hayotining hosilasi sifatida kechagi kashovarzlarning kambag‘allahsgan qismi kadivarlar — yersiz ijarachi kushchilar qatlami paydo bo‘ladi. Kashovarzlarning boyib borayotgan ishbilarmon qismi yirik mulk egalari — dexqonzodalarga aylanadi. Chorvachilik va hunarmandchilikning barcha jabhalarida, savdosotiqla yirik mulk egalari dehqonzodalar va o‘rta va mayda mulk egalari — kashovarzlar bilan birgalikda jamiyat iqtisodiy hayotining asosi bo‘lib qoldi. Jamiyatda harbiy hokimiyat o‘rnatgan turkiy siyosiy kuch esa O‘rta Osiyo shimoli-sharqidan to‘xtovsiz turkiy etnik guruxlarning kirib kelishini tezlatadi. Joylarda boshqaruv tizimining turk aslzodalarini ta’siriga o‘tishi ham mintaqada etnogenetik jarayon rivojiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Xitoy bilan savdo munosabatlari ayniqsa, rivojlanib, 627-647 yillar mobaynida Xitoya 9 marotaba savdo elchilari yuborildi. O‘rta Osiyoda shu paytda 15 taga yaqin mayda davlatlar bo‘lib, Buxoroda buxorxudotlar, Xorazmda xorazmshoxlar, Shosh va Iloqda budun va dehqonlar, Farg‘onada ixshidlar, Ustrushonada afshinlar hukmronlik qilishgan. Ularning hammasi Turkiy hoqonlikka qaram bo‘lsa-da, amalda yarim mustaqil edilar.

Shunday qilib Ustrushonada bir tomonidan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, ikkinchi tomondan voha atrofining chorvadorlar bilan

¹⁵⁷ Ўзбекистон тарихи давлатчилиги очерклари, Т, Шарқ, 2001, 54-бет

gavjumlashgani, ichki va tashqi savdoning hamda tovar pul munosabatlarini kengayishi yuz bergan. Ustrushonaning so‘nggi afshini – Sayr ibn Abdulloh davrida (893 yil) Ustrushona Somoniylar davlati tarkibiga qo‘sib olingan va afshinlar sulolasiga barham berilgan. Xullas, biz, Ustrushonaning dehqonchilik vohalari tarixi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlar haqida yuqoridagi ma'lumotlar bilan cheklandik.

2.5. Ustrushonadagi davlatchilikning shakllanishida o‘troq dehqon va ko‘chmanchi chorvador aholi munosabatlarining o‘rni

O‘rtalik Osiyo hududining tabiiy sharoitidan kelib chiqib dehqonchilik va chorvachilik xo‘jaligini yuritib kelayotgan aholi ilk davrlardanoq yonma-yon yashab kelgan. Qadimdan ikki xil xo‘jalik vakillarining o‘zaro madaniy aloqalari bir-birini to‘ldirib, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muvozanatni ta’minlagan. O‘troq dehqon va ko‘chmanchi chorvador aholining o‘zaro munosabatlari va uning ijtimoiy siyosiy jarayonlarga ta’siri masalasi O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Ustrushona hududi joylashishiga ko‘ra Evrosiyoning dehqonchilik markazlari bilan dasht hududlari kesishgan chorrahada joylashgan. Bu holat mintaqalarda siyosiy hayotida o‘troq dehqon va ko‘chmanchi chorvador madaniyatining uyg‘un holda shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Ustrushona ikki xil xo‘jalik sohiblari uchun “kontakt zona” bo‘lib, har ikki tomon doimo bir-birining mahsulotlariga kuchli ehtiyoj sezgan. Yonma-yon yashash tarzi va dashtdan ko‘chmanchi chorvador aholi guruhlarining kirib kelishi siyosiy jarayonlarga ham katta ta’sir ko‘rsatgan va etnik qorishuvni ham tezlashtirgan.

Aytish mumkinki, O‘rtalik Osiyo sivilizatsiyasi o‘troq-dehqon va ko‘chmanchi-chorvachilik xo‘jalik yuritishining sintezi zaminida vujudga kelgan. Tarixning deyarli barcha davrlarida harbiy va siyosiy hokimiyat ko‘chmanchi chorvadorlar qo‘lida bo‘lgan. Savdo, hunarmandchilik va dehqonchilik bilan bog‘liq tovar xo‘jaligining rivojlanganligi o‘troq dehqon

aholi qo‘lida iqtisodiy hokimyatning to‘planishiga sabab bo‘lgan. O‘rta Osiyodagi o‘troq va ko‘chmanchi aholining o‘zaro aloqalari masalasida 1987 yil oktyabrida Alma-Ata shahrida sovet -fransuz simpoziumi o‘tkazilib, uning materiallari “Vzaimodeystvie kochevых kul’turi drevnihssivilizatsiy (Ko‘chmanchilar madaniyati va qadimgi sivilizatsiyalarning o‘zaro aloqalari)” deb nomlangan to‘plamda nashr etilgan¹⁵⁸. To‘plamdagи maqolalarda asosan, ko‘chmanchilar va o‘troq dehqonlar o‘rtasidagi aloqalar rivojining qonuniyatları aks ettirilgan. Unda yoritilgan A.A. Asqarovning “Baqtriya o‘troq komplekslarida dasht komponenti va uni interpretatsiya qilish masalalari”, I.N.Xlopinning “O‘rta Osiyodagi dasht madaniyatlarini shakllanishida tarixiy qonuniyatlar”, Yu.A.Zadneprovskiyning “Ko‘chmanchilar va qadimgi sivilizatsiyalarning o‘zaro aloqalari hamda O‘rta Osiyoning etnik tarixi”, N.N.Negmatovning “O‘rta Sirdaryodagi sak-sug‘d sintezi”, M.I.Filanovichning “O‘troq va ko‘chmanchi dunyolarning madaniy aloqalari hamda me’moriy an’analarning shakllanishi (Toshkentdagи Shoshtepa materiallari asosida)” deb nomlangan maqolalarida ko‘chmanchilar va o‘troq aholining o‘zaro aloqalariga xos qonuniyatlar, ularning dinamikasi va tipologiyasi, eng qadimgi davrlardanoq o‘troq va ko‘chmanchi aholini qamrab olgan (birlashtirgan) yagona iqtisodiy tizim mavjud bo‘lganligi, ikki tomon ham (yagona iqtisodiy tizimning ikki bo‘lmasi) bir-birisiz normal faoliyat ko‘rsata olmaganligi kabilar aniq faktlar asosida yoritilgan. Biroq, ushbu asarlarda sobiq ittifoq davridagi mafkuraviy qarashlar, shovinistik siyosati va Yevrotsentrik nazariyaga asoslangan g‘oyalar ustunlik qilardi. Ushbu holatni ijtimoiy siyosiy tuzumdan tortib, turkiy xalqlarning kelib chiqishi va oriyalar muommosigacha bo‘lgan qarashlarda kuzatish mumkin¹⁵⁹.

O‘troq va ko‘chmanchi madaniyatlarning o‘zaro aloqalari va munosabatlari masalalariga sobiq ittifoq davrida ham alohida e’tibor qaratilgan. 1984 yilda

¹⁵⁸ Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций.// Алма-Ата: Наука, 1989. 464 с.

¹⁵⁹ Кузьмина Е.Е. Откуда пришли индоарии? Материальная культура племен Андроновских общности и происхождения индоираницев.– М.: 1994., Смирнов К.Ф. Е.Е.Кузьмина. Происхождения индоираницев в свете новейших археологических открытий. – М.: 1977., Итина М.А. История степных племен южного приаралья. –М.: Наука, 1977., Оранский И.М. Иранские языки в историческом освещении. – М.: 1979.

nashr etilgan, qozoq olimi L.Kshibekovning “Kochevoe obЩestvo: genezis, razvitie, upadok” nomli kitobi, ko‘chmanchilar jamiyatini chorvadorlikka asoslangan xo‘jalikning aniq shakli sifatida tadqiq etishga bag‘ishlangan. Ushbu asarda ko‘chmanchilar jamiyati tarixini o‘troq xalqlar tarixi bilan chambarchas bog‘liq holda qarab chiqish zaruriyati, ko‘chmanchilar jamiyatining eng qadimgi davrlarda vujudga kelganligi, keyingi taraqqiyoti va inqirozi masalalari ko‘rib chiqilgan¹⁶⁰. Bu paytda g‘arbiy Evropa tarixshunosligida ham ko‘chmanchilar masalasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan.

O‘troq va ko‘chmanchi aholi munosabatlari masalasini tahlil qilishda, ko‘chmanchi chorvadorlar bilan yarim ko‘chmanchilarni ham farqlash zarur. Evroosiyo dashtlaridagi haqiqiy ko‘chmanchilar hamisha harakatda (ko‘chib yurishda) bo‘lishgan. Imkoniyati mavjud bo‘lgan vohachalarda primitiv dehqonchilik ham qilishgan. Ularning dehqonchilik vohalari bilan aloqalari juda sust bo‘lib, ba’zi geografik omillargina ularning u yoki bu darajada o‘troq aholi bilan aloqada bo‘lishiga sabab bo‘lgan¹⁶¹. Ustrushonada esa yaylov chorvachiligi keng ommalashgan bo‘lib, ularning o‘troq aholi bilan aloqalari kuchli bo‘lgan. Ustrushonadagi kabi dehqonchilik vohalariga ko‘chmanchi chorvadorlarning kirib kelishi va xo‘jalik yuritish shaklini o‘zgartirishi, buning oqibatida o‘troq vohalarda ijtimoiy-siyosiy va etno – madaniy aloqalarning avj olishi masalasida K.M. Baypoqovning bergen fikrlari e’tiborga molik. Ung ko‘ra, “ikki xil xo‘jalik a’zolarining o‘zaro munosabatlarini bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki xil hayot tarziga ega bo‘lgan jamoalar sifatida emas, balki ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi yoki keng ma’noda mehnat taqsimoti tufayli ikkiga bo‘lingan jamoalar sifatida qarash lozim”¹⁶². Ustrushonada dehqon aholi bilan chorvadorlar xo‘jalik yuritishidagi farq mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda (ma’lum bir guruh ko‘chmanchi aholining o‘troq hayot tarziga o‘tishi bilan) kamayib borgan. Xalqlar tarixidagi bu jarayonlar vaqtga, hududiy joylashishi

¹⁶⁰Кшибеков Л. Кочевое общество: генезис, развитие, упадок.— Алма-Ата Наука, 1984,—238 с.

¹⁶¹Руденко С.И. К вопросу о формах скотоводческого хозяйства и о кочевниках // Географическое общество СССР. Доклады отделению этнографии. М.: 1967. — № 1.

¹⁶²Байпаков К.М. Город и степ в древности: оседлость и земледелие у саков и усуней Жетысу... —С.53.

yoki etnik tarkib topishiga bog‘liq bo‘lmagan. Bunda dehqonchilik va chorvachilikning tarkib topish bazasi, jamiyatning ijtimoiy bo‘linishi, savdo va hunarmandchilikning paydo bo‘lishi, etnik birlikning tarkib topishi, kuchli boshqaruv xokimiyatiga asos solinishi, yagona mafkura va diniy tasavvurlarning yoyilishi kabilar muhim rol o‘ynagan.

Ba’zi olimlar, ko‘chmanchilarning harakatchan tabiatiga qarab, ular hamisha o‘zlarining qo‘snilariga tazyiq o‘tkazib kelgan deb ta’kidlaydi. Bu unchalik to‘g‘ri emasligini moddiy madaniyat ashyolarining tahlillari ham ko‘rsatmoqda. To‘g‘ri, ko‘chmanchilar va o‘troq aholi munosabatlari doimo barqaror, ijobiy tarzda bo‘lmagan. Ko‘chmanchi xalqlarning yashash tarzi va jamiyat tuzilishini tahlil qiladigan bo‘lsak, ular tabiatni bosqinchilik yurishlari uyushtirishga ko‘p ham mos emas. Bunday yurishlar faqat yaylovlardan uchun bo‘lishi mumkin¹⁶³. Ishchi kuchi, ishlab chiqarish va mahsulot taqsimoti ustidan hukmronlik o‘rnatish kabi ijtimoiy-siyosiy keskinliklar nafaqat ko‘chmanchi va o‘troq, balki o‘troq xo‘jalikka asoslangan madaniy vohalar aholisi o‘rtasida ham kechgan.

Ustrushonada kechgan bu aloqalar o‘rganilgan moddiy manbalarda yaxshi seziladi. G‘ulbo mozorqo‘rg‘onlarida qayd qilingan kulolchilik idishlarining asosiy qismini qo‘lda yasalgan ko‘chmanchilarga xos idishlar tashkil etsada, kulolchilik charxida, mayin tuproq loyiga boshqa aralashmalar qo‘silmagan holda, xumdonda sifatli qilib hamma joyi bir xilda pishirilgan sopol (ko‘za) idishlar ham mavjud. Bu sopol idishlarning sirti jigarrang angob bilan bo‘yalgan. Og‘iz gardishi sirtga biroz qayrilgan va uning diametri tag qismi diametridan ancha katta. Bu toifadagi ko‘zalarda ko‘proq o‘troq hayot sohiblari tomonidan ishlab chiqarilgan sopol idishlarga xos xususiyatlar mavjud. CHunki, ko‘chmanchilar sopol buyumlarining tag va ust qismlari ko‘pincha bir-biriga proporsional bo‘ladi¹⁶⁴. Bu ko‘zalar o‘z tuzilishi va yasalish xususiyatiga ko‘ra, Bishkent vodiysidagi mil. avv.gi II-I asrlarga oid Aruktov va Babashevskiy

¹⁶³ Сулейменов Р.Б. Формационная природа кочевого общества: проблема и метод...—С. 67.

¹⁶⁴ Массон В.М. Кочевые компоненты кушанского археологического комплекса // Проблемы античной культуры. — М.: 1986. —С. 260.

mozorqo‘rg‘onlaridan¹⁶⁵, Sug‘d vohasidagi Kushonlar davriga oid Ko‘ktepa shaharchasidagi qabrdan¹⁶⁶ topilgan sopol idishlarga o‘xshash. Ustrushonadagi eramizning 1-IV asrlariga oid Xitoytepa manzilida ham bo‘ynidan xuddi shunday aylana o‘tkazilgan sopol idishlar topilgan.

Ikkinci sopol ko‘zaning sirti sariq (ba’zi joylari jigarrang) angob bilan bo‘yalgan. Idish tagdoni tekis, og‘iz gardishi keskin tashqariga qayrilgan. Yasalish usuliga ko‘ra u ham o‘troq aholi ustalari tomonidan yasalgan sopol idishlarni eslatadi. Idishlardagi bu kabi xususiyatlar Farg‘ona vodiysi yodgorliklaridagi sopol idishlarda ham mavjud¹⁶⁷. Janubi-g‘arbiy Farg‘onaning Ustrushona bilan chegaradosh hududlarini o‘rgangan G.A. Brikinaning fikricha, ko‘chmanchilar ko‘pincha o‘troq vohalarda yuksak taraqqiy etgan madaniyat ta’siriga duch kelgan. Bu holat kulollik mahsulotlariga ham ta’lluqli bo‘lib, mozorqo‘rg‘onlarda uchraydigan bunday kulollik charxida yasalgan sopol idishlarda ishlov berish, angob berish va pishirishda kamchiliklar kuzatiladi¹⁶⁸. Bu holatni tahlil qilgan olima, bunday mahsulotlar hali o‘troqlashganiga ko‘p bo‘lмаган ustalar tomonidan Farg‘ona vodiysidan import qilingan buyumlarga taqlid qilib yasalgan degan fikrni bildiradi.

O‘z tadqiqtolarida Ustrushona kulolchilik idishlarini ilmiy tahlil qilgan M.H.Pardayevning ta’kidlashicha, “Shimoliy-g‘arbiy Ustrushona arxeologiya yodgorliklaridan topilgan sopol idishlar na’munalarining ilmiy tahlili va bu orqali komplekslarni davrlashda bir muncha murakkabliklar mavjud. Murakkablikning birinchi sababi mazkur region sopol idishlari uchun davrlarini belgilovchi xronologik jadvalning yo‘qligi bo‘lsa, ikkinchi sababi o‘troq dehqonchilik vohalari, bilan ko‘chmanchi, cho‘l madaniyati chegarasidagi bu mavze turli xususiyatlari moddiy-madaniyatlarning uchrashuv joyi “chorraha”si

¹⁶⁵ Мандельштам А.М. Памятники кочевников кушанского времени в Северной Бактрии. – Л.: 1975. – С.156. Табл. VII. Рис.2.

¹⁶⁶ Rapin C. Nomads and the Shaping of Central Asia: from the Early Iron Age to the Kushan period // Proceedings of the British Academy-133. After Alexander Central Asia before Islam, 2007, 52 fig. 9, s

¹⁶⁷ Анарбоев А.А. Жилище раннесредневекового Ахсиканта // ИМКУ. – Самарканд.: 2004. –№34. –С.158., Брыкина Г.А. Юго западная Фергана в первой полевине 1-тысячелетия нашей эры. – М.: Наука, 1982. – С.58-68.

¹⁶⁸ Брыкина Г.А. Археологические памятники Баткена и Ляйляка (Юго-Западная Киргизия). Фрунзе, 1962. С. 9-10, рис.

ekanligi sababli o‘zaro ta’sir va qorishuv darajasini yuqori bo‘lganligidir”¹⁶⁹. Bu holatni qo‘sni qabilalar, keyinchalik Ustrushonaga ham kelib joylashgan yuechjilar moddiy madaniyati bilan taqqoslab ko‘rsak masala yanada oydinlashadi. A. Xo‘jayev xitoylik olimlarning yuechjilar moddiy madaniyatiga oid topilmalar haqidagi fikrlarini quyidagicha keltiradi. “Ruzie –yuechjilarda sopoldan turli idish tovoq yasash ishlari ham keng tarqalgan. Ikki quloqli, ya’ni tutqichli ko‘zachalar, don solish uchun ishlatiladigan xumlar va boshqalar shular jumlasidandir. Ruzie–yuechjilar ishlab chiqargan sopol buyumlar bir necha umumiylar xususiyatlarga ega bo‘ladi: 1) buyumning ustini bo‘yash uchun ishlatiladigan buyoqlar quyuq bo‘lgan; 2) yasalgan buyumlarning shakllari nisbatan yumaloq; 3) idish tovoq va ko‘zalar tag qismi qalin bo‘lgan va qizil buyoqda bo‘yalgan; 4) ularning qopqoqchalari kesib olingan va ularda turli hayvonlarning shakli o‘yib tushirilgan”¹⁷⁰. Bunga o‘xshash xususiyatlar Ustrushonada o‘rganilgan kulolchilik idishlarida ham kuzatiladi.

Ustrushona chorvadorlari mozorqo‘rg‘onlarining qadimgi qishloq makonlari va shaxarlardan uzoqda joylashganligi, chorvadorlarning hali hech kim egallamagan o‘zlashtirilmagan dasht va cho’llar bo‘ylab harakat qilganligini ko‘rsatadi. An’anaviy chorvachilik tarzidagi eksintensiv xo‘jalik yangi yaylovlarga tomon siljishni ham taqozo etgan. Vaqt o‘tishi bilan har ikkala xo‘jalikda ham ishlab chiqarish munosabatlarining o‘sishi o‘zlashtirilmagan yerlarning kamayishiga olib kelgan. Keyinchalik o‘troq va ko‘chmanchi aholining yaylov, o‘tloq, va ekinzorlarga bo‘lgan ehtiyoji ular o‘rtasidagi nizolarga eng ko‘p sabab bo‘lgan. Ba’zi paytlardagi kurg‘oqchilik yoki qishning me’yordan ortiq sovuq bo‘lishi va cho‘zilishi hamda turli xil yuqumli kasalliklar tufayli chorva mollarining qirilib ketishi ham ko‘chmanchilarning o‘troq vohalarga yurish qilishiga sabab bo‘lgan. Chorvadan boshqa asosiy ozuqa zahirasi bo‘lmagan chorvadorlar, bunday ayanchli holatda, yashab qolish uchun so‘ngi choralar izlashga majbur bo‘lib, qo‘sni hududlar va o‘troq vohalar

¹⁶⁹ Пардаев М.Х., Фофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). Тошкент, 2016. Б.218.

¹⁷⁰ Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар.. – Б. 191-192.

tomon xarakatlana boshlashgan. Evroosiyo dashtlarida esa bunday paytda, qiyin ahvolda qolgan qabilalarning ko‘pincha yirik qabila sardorlariga tobelik bildirib, uyushgan etakchi ittifoqchilar madadida, nafaqat o‘troq vohaga, ba’zan qo‘shni (ko‘chmanchi) qabilalar ustiga ham yurishlar uyushtirishi kuzatiladi.

Bunday osoyishta munosabatlar ayniqsa, turk hoqonligi darida ta’milangan. Ta’kidlash lozimki, Turk hoqonligi ma’lum darajada to‘liq ishlab chiqilgan jinoiy qonunchilikka ega bo‘lgan, Sodir etilgan jinoyat uchun jazoning asosiy turlari qatl, odam a’zolarini kesib tashlash, zararni to‘lash, mol-mulk tarzida tovon tulashdan iborat edi. Misol uchun, manbalarning ma’lum ot berishicha, o‘lim jazosi davlatga qarshi jinoyatlar uchun (isyon ko‘tarish, sotqinlik) hamda nohaq yoki qasddan odam o‘ldirganlik uchun berilgai. O‘g‘irlik qilgan yoki buzuqlik qilgan shaxsning qo‘li yoki oyog‘i kesilgan. Shaxsga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlar yetkazilgan zararni o‘n barobar qilib to‘lash, jarohat yetkazgani yoxud mayib qilgani uchun mol-mulk tarzida tovon to‘lash, qizi, xotinini qullikka berish, suyagini sindirganlik uchun esa ot berish yo‘li bilan jazolanardi.

Chorvadorlarning o‘troq vohalarga bosqinlar uyushtirishiga dashtdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Evroosiyo dashtlaridan ko‘chmanchilarning o‘troq vohalarga yurishlari ma’lum bir ko‘chmanchi qabilaning emas, balki ko‘proq harbiy birlashmalarning harakati edi. S.A.Pletnevaning yozishicha, “yurishlarga hamisha iqlim sharoitining noqulay kelishi va demografik portlashlar sabab bo‘lgan”¹⁷¹. Yirik chorvadorlar serfarzand va oilalari katta bo‘lib, bolalarni ham chorva, yaylov va yangi yashash hududlar bilan ta’minalash zarur edi. Ibn Holdun “dasht bu oddiy bo‘lмаган hayot generatori”, - deb yozganda u tamoman haq edi. Nisbatan daxlsiz va qulay hududlarda joylashgan chorvadorlarda muntazam demografik portlash kuzatiladi. Aholining muntazam suratda ko‘payishi va turli xildagi tabiiy va ijtimoiy sabablar markazdan qochish va yangi yerlarga kelib joylashishni taqozo qilgan. Shu tarzda, bir guruh aholining xo‘jalik yuritish

¹⁷¹ Плетнева С.А. Кочевники средневековья. – М.: 1982. – С. 117.

shakllarini o‘zgartirishi sodir bo‘lgan. Bunday jarayonlar dasht bilan dehqonchilik vohalarini bog‘lovchi –Ustrushona hududiga tinimsiz ta’sir ko‘rsatardi.

1957-59 yillarda Ustrushonaning dehqonchilik vohalari chegarasidagi mudofaa devori – Kanpirak o‘rganilgan. Hozirgi saqlanib qolgan izlaridan unong o‘z vaqtida nihoyatda mustahkam bo‘lganligi seziladi. YOdgorlikni o‘rgangan H. Muhamedovning ta’kidlashicha, “Bu devor xarobalari ham uzun ketgan sun’iy ko‘tarma holida saqlangan bo‘lib, kengligi 15-20 metr, ba’zi joylarda hatto 25 metrni tashkil etadi. Uning balandligi har joyda turlicha bo‘lib bir metrdan, uch metrgacha saqlangan”¹⁷². Evro Osiyo mintaqasidagi (O‘rta Osiyo, Xitoy, Eron va b...), dehqonchilik vohalarini chorvadorlarning tinimsiz ravishda kirib kelishi va talonchilik yurishlaridan ximoya qilish maqsadida qurilgan bu kabi devorlar ko‘p o‘rganilgan. Tadqiqotchining aniqlashicha, “Jizzax vohasi yoysimon shakldagi devor bilan o‘rab olingan. Devorning g‘arbiy qismi Kuyovboshi qishlog‘i orqali Etimtog‘ga borib taqalgan va uning davomi tog‘ning narigi betidagi Oqtepadan boshlanib G‘allaorol sari yo‘nalgan. Kanpirakning sharqiy qismi esa Olmachi qishlog‘idagi Siypanchiqtepadan boshlanib, janubi-sharqqa, Ravot qishlog‘idagi Qo‘rg‘ontepaga qadar qariyib 20 km masofagacha borgan”¹⁷³. Bu kabi mudofaa devorlari Ustrushonada ham ikki xil xo‘jalik sohiblarining munosabatlari hamisha bir xilda bo‘lmaganligini ko‘rsatadi.

Ustrushonada o‘zlashtirilmagan bepoyon yaylovlari ko‘p bo‘lib bunday joylarga kirib kelgan va ba’zi o‘troqlashgan chorvadorlar o‘zlarining dashtdagi qarindosh qabilalari bilan aloqa bog‘lab, yangi hududdagi savdo va siyosiy ishlarda imtiyozli rol o‘ynay boshlagan. Ularning yaylov-qishliq-yaylov shaklidagi uzoq masofalarga ko‘chishlari aloqa yo‘llarining shakllanishi va rivojlanishiga ham sabab bo‘lgan¹⁷⁴. G‘ulbo mozorqo‘rg‘onlarida o‘troq aholi hunarmandlari tomonidan ishlab chiqarilgan buyumlarning uchrashi antik davrda

¹⁷² X. Мұхамедов. Қадимги мудофаа деворлари. – Т.: 1961. –Б.52.

¹⁷³ X. Мұхамедов. Қадимги мудофаа деворлари.... –Б.51-53.

¹⁷⁴ Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари... – Б. 89

har ikki xo‘jalik sohiblari o‘rtasida qizg‘in aloqalar bo‘lganligidan dalolat beradi. O‘troq vohalar bilan ko‘chmanchilar dashtini bog‘lab turuvchi Ustrushonada bunday vositachilik yoki o‘tkazuvchanlik ikki xil xo‘jalik vakillarining aloqalarini kuchaytirib, ikki tomon uchun ham boshqa xil ko‘pgina (mavsumiy) shakllarni qabul qilishga imkon bergan.

Qirg‘izistonlik olim T.Kenensariev so‘zлari bilan aytganda, qadimdan bu erda ikkita tipning birga yashashining noyob varianti yaratildiki, bittasining ikkinchisisiz mavjud bo‘lishi amalda mumkin emasdi”¹⁷⁵. Ba’zi hollarda chet el bosqinchiligi natijasida, voha aholisi ular asoratiga tushib qolar va o‘troq aholining ko‘chmanchi-chorvadorlar bilan aloqalari sun’iy ravishda uzib qo‘yilar edi. Bu esa har ikkala tomon iqtisodiyotining izdan chiqishiga olib kelardi. Aynan shu sababli ham, chet el bosqinchilariga qarshi har ikki tomon birgalikda kurash olib borgan. Aleksandr Makedonskiy boshchiligidagi yunon-makedon qo‘shinlariga o‘troq aholi (sug‘dlar, baqtriyaliklar va o‘troq ustrushonaliklar) bilan bir safda Ustrushona chegaralaridan boshlanuvchi bepoyon dashtlar egasi – saklarning ham qarshi kurashganligi, arablar bosqiniga qarshi kurashda dasht aholisi (turklar)ning yordamga kelishi, Xitoy ekspansiyasiga qarshi kurashdagi arab, Sug‘d va chorvador turkiylarning hamkorligi kabilar fikrimizning isbotidir¹⁷⁶. Bu hamkorlik turli davrlarda turlichal ma’no kasb etgan. Ba’zi hollarda ko‘chmanchilik bilan shug‘ullangan xalqlar o‘troq aholi tomonidan barpo qilingan davlatlarga yarim qaram holda kirib, ma’lum majburiyatlarni olgan, yoki aksincha holatlar ham bo‘lgan.

SHu o‘rinda Yu.V. Pavlenkoning, “ko‘chmanchilar dunyosi o‘z holicha, ya’ni sivilizatsiyalashgan qo‘shni jamoalardan tashqarida rivojlanganda, ularga bo‘ysungan dehqon va shahar jamoalari bo‘lmaganda, chorvadorlarning bir guruhi o‘troqlashmaganda, o‘troq vohalardan soliqlar yig‘ilmaganda,

¹⁷⁵Кененсариев Т. Истоки взаимодействия кочевых и оседлых традиций Ферганской долины и историческая

перспектива // Ош и Фергана в исторической перспективе. Вып. 3. – Бишкек: Изд. «Мурас», 2000, с.21.

¹⁷⁶Отакұйжайев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида түрк-сүғд муносабатлари... – Б.138; 157.

dehqonchilik hududlarida shahar madaniyatining paydo bo‘lishi jarayonlari kechmaganda ko‘chmanchilar jamoasi hattoki ilk sinfiy munosabatlar darajasiga ham chiqa olmagan bo‘lardi”¹⁷⁷ degan, hamda A.I. Pershits va A.M.Xazanovlarning, “ko‘chmanchilar o‘z holicha faqat ilk sinfiy munosabatlar darajasigacha o‘sishi mumkin. Keyingi rivoji faqat qo‘shni dehqon va shahar jamoasi ta’sirida rivojlanadi”¹⁷⁸ degan fikrlari chorvadorlar ijtimoiy siyosiy va madaniy hayoti hamda ular o‘rtasidagi munosabatlarni bir tomonlama o‘rganishdan kelib chiqqan. To‘g‘ri, dehqonchilik vohalari bilan doimiy madaniy aloqada bo‘lgan chorvadorlarda aholining ijtimoiy tabaqalarga bo‘linish jarayoni tezlashgan. Biroq, chorva mollari sonini tezda oshirish va dehqon jamoalarga nisbatan chorvadorlarning tezda boyib ketish imkoniyati ko‘p bo‘lgan. Yaylovlar ham qabilalar o‘rtasida bo‘lina borishi va u erlarga daxlsiz egalik qilish kabi oddiy holatlar bu fikrning noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi. Ma’lumki, chorva mollarini boqadigan yaylovlar jamoa taraqqiyotining ilk bosqichlarida umumiyo bo‘lgan bo‘lsa, u keyinchalik urug‘lar o‘rtasida taqsimlanib, aholi ham chorvasi ko‘p va kam bo‘lgan ijtimoiy qatlamga ajralib borgan.

S.A.Pletneva, ko‘chmanchilarning o‘troqlashib, shaharlar qura olmaganligini kutilmagan tabiiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘lab, o‘z yashash joylarini tashlab ketgan ko‘chmanchilarning boshqa joylarda yangi etnik va siyosiy tuzilmalarga asos solganligini ta’kidlaydi¹⁷⁹. Biroq, ushbu fikrga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki ko‘chmanchilar o‘troqlashib, dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanganligi keyinchalik muhim savdo bekatlari bo‘lgan shaharlarga asos solginligiga misollar ko‘p. Ularning yangi etnik va siyosiy tuzilmalarga asos solishi esa tabiiy.

¹⁷⁷ Павленко Ю.В. Раннеклассовые общества. Генезис и пути развития. - Киев, 1989. – С.57.

¹⁷⁸ Першиц А.И. К вопросу о социальных отношениях у кочевников // Основные проблемы африканистики: Этнография. История. Филология. - М.: Наука, 1973. - С. 3-23; Хазанов А.М. Социальная история скифов: Основные проблемы развития древних кочевников евразийских степей. - М.: Наука,, 1975. - С. 275.

¹⁷⁹ Плетнева С.А. От кочевой к городом // Материалы исследования по археологии СССР. – М.: 1967.–№ 142.

G‘arbiy Evropa mo‘g‘ul-tatar bosqinidan titrab turgan, ularning bu yurtlarni bosib olish imkoniyati ham mavjud bo‘lgan bir paytda, mo‘g‘ullar u tomonga borishmadi. Ular ham oldingi hunlar va turklarga o‘xshab, Dunay bo‘yi cho‘llariga borib to‘xtashdi. Ko‘chmanchilar bu yerlarni tashlab ketishi mumkin emasdi. Chunki, undan g‘arbdagi erlar ularning xo‘jalik yuritishiga mos kelmas edi. Sharqiy Yevropaning cho‘llariga kelib joylashgan boshqa (qipchoq, turk, qrim tatar, gagauz kabi) xalqlar ham o‘z xo‘jalik yuritish shaklini saqlab qolishdi. Endi, geografik omillarning yoki tabiatning jamiyatga ta’sir ko‘rsatishi oydinlashmoqda.

O‘tmishda sodir bo‘lgan antropogen ko‘rinishdagi geografik omillar bilan bog‘liq oziq-ovkat va yaylov muammosining paydo bo‘lishi va natijada ko‘plab aholining o‘z yashash joylaridan siljishi, oddiy shunchaki jo‘n hodisalar emas. Bunda, ko‘chmanchilar bir qismining Markaziy Osiyoning o‘tli yaylovlari va oziq-ovqat kam, quruq cho‘l va dashtlaridan, o‘tlarga boy yaylovlar sari harakati ta’kidlanmoqda. Albatta, bu migratsiyani ijtimoiy omillar sabab bo‘lgan agressiv migratsiyadan farqlash zarur.

Keyingi vaqtarda ilmiy adabiyotlarda “Noosfera” termini va tushunchasi keng yoyildi. Bu so‘z, keng qo‘llanuvchi “geografik muhit” ma’nosini ifodalaydi. V.I.Vernadskiyni fikricha, noosfera bu o‘zgargan va o‘zgaruvchan jamiyatni – jamiyat muhitining keyingi 10-20 ming yillik taraqqiyotida muhim vositalardan biri hisoblangan biosferadir¹⁸⁰. Kishilik tarixini o‘rganish, hamisha taraqqiyot tabiat bilan bog‘liqlikda faqat undagi boyliklar va tabiiy extiyojlardan foydalinishdan iborat bo‘lmaganligini ko‘rsatadi.

Geografik omillar kishilik tarixiy taraqqiyotida boshqa har qanday sabablarga qaraganda hal qiluvchi rol o‘ynagan. Aynan, Yevroosiyo cho‘llaridagi tabiiy sharoit ko‘chmanchi chorvadorlarning xo‘jalik yuritish shakli va uning bosqichlarini yuz yilliklar mobaynida – yangi davrgacha saqlanib qolishi va etib kelishini ta’mindadi. Faqat o‘ziga xos tabiiy sharoitlar, “Qadimgi Sharqda”, daryo va tog‘ oldi hududlaridagi unumdar vohalarda ilk

¹⁸⁰ Вернадский В.И. Философские мысли натуралиста. – М.: 1988. – С.20-33.

dehqonchilikning taraqqiy topishi jamiyatning baravj rivojiga sabab bo‘lgan. Yozma va arxeologik manbalar, mo‘g‘ullarning yaylovlarni e’tibordan qochirmagan holda, dehqon aholi yashaydigan madaniy vohalar orqali harakat qilganligini ko‘rsatadi¹⁸¹.

Ustrushonadagi antik va ilk o‘rta asrlariga oid ko‘plab manzilgohlar qishlov ovullari, hunarmandchilik rivojlangan yirik markaz(poselenie)lar va qishloq makonlari ekanligi ma’lum bo‘ldi. Atrofi sahrolardan iborat bo‘lgan bu aholi manzilgohlari har ikkala xo‘jalik a’zolarining o‘zaro integratsiyasi tufayli gullab yashnagan. Ba’zan siyosiy hokimiyatning emirilishi va o‘zaro munosabatlarga zil ketishi bilan, odam resurslarining atrofda yo‘qligi sababli, bu manzilgohlari ham inqirozga yuz tutgan. Bu holat ko‘chmanchilar dashti bilan chegara hududlarda joylashgan vohalarda ayniqsa ko‘p seziladi.

Shunday qilib, O‘rta Osiyo sharoitida iqtisodiyotning uzlucksiz rivoj topishi faqat o‘ziga xos mehnat taqsimoti va ikki xil xo‘jalik yurituvchi aholi madaniy areallari faoliyatining integratsiyalashuvi bilan belgilanadi. Ko‘chmanchi chorvador qabilalar cho‘l va dashtlardan to, uzoq shimoldagi o‘rmonlarining janubiy qismi-taygagacha, ya’ni qaerdaki chorva uchun qulay joylarda yashab, u erlardagi mavjud imkoniyatlarni ishlab chiqarishga jalg qilishgan va bu orqali dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘sib kelishgan. O‘troq vohalarda esa hunarmandchilik, savdo va shaharlashuv jarayonlari faol kechgan. O‘rganilgan manbalarga tayanib aytish mumkinki, ikkala xo‘jalik vakillarining faoliyati tufayli, Ustrushonadagi tog‘, tog‘oldi, dasht va cho‘l xududlari hech qachon bo‘shab qolmagan. Suv manbalari va dehqonchilik bilan shug‘ullanishga imkoniyat mavjud bo‘lgan joylarda ko‘chmanchi chorvachilikning yarim ko‘chmanchilik turi ustun bo‘lib, bu holat keyinchalik ular xo‘jaligida o‘troq dehqonchilikning yuqori mavqega ega bo‘lishini ta’minlagan. Bu aholi xo‘jaligida davrlar o‘tishi bilan o‘troq dehqonchilik ustun mavqeni egallagan va ikkala xo‘jalik vakillarining o‘zaro munosabatlari ijtimoiy siyosiy jarayonlar rivojida muhim ahamiyat kasb etgan.

¹⁸¹ Путешествие в Восточные страны Плана Карпини и Гильома де Рубрука. – Алма ата: 1993. – С. 73.

XULOSA

Xalqning shakllanishida ma'lum bir hududda yashagan etnoslarning yagona davlat tarkibida bo'lishi muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston hududida davlatchilik tizimining paydo bo'lishi bilan o'zbek halqi shakllanish jarayoni boshlangan. Demakki, o'zbek davlatchiligidagi o'zbek halqi asos solgan. Istiqlol yillarida, keng miqyosda olib borilgan tadqiqotlar natijasida, Vatanimiz dunyo sivilizatsiyasining eng qadimgi madaniyat markazlaridan biri bulganligi va davlatchilik an'analari juda chuqur asosga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Davlatchiligidagi tarixini o'rghanishda 1998 yil yozida O'zbekistonning birinchi Prezidenti I. A. Karimovning bir guruh tarixchi olimlar bilan uchrashuviga o'zinga xos tub burilish hisoblanadi. Bu uchrashuvda davlatchilik tarixini qanday o'rghanish to'g'risida ko'rsatma va takliflar berilib, «davlatchilik tariximiz tub burilish pallasiga kirgan bir paytda o'zimizning zamon va makondagi o'mrimizni aniq belgilab olishimiz, nasl-nasabimiz kimligini bilishimiz davr talabi»¹⁸² deb, hamda “O'zbek davlatchiligi qaysi asrda paydo bo'ldi? Qanday tarixiy bosqichlarni bosib o'tdi?..., O'zbek halqining shakllanishida qanday elatlarning ta'siri bo'lgan?”¹⁸³ deya bergen savollari va aniq yo'naliishga ega ko'rsatmalari davlatchilik tarixini o'rghanishda konseptual ahamiyat kasb etdi.

Istiqlol yillarida, davlatchiligidagi paydo bo'lishi masalasida siyosiy maqsadlarni ko'zda tutib yondoshilgan g'ayri ilmiy qarashlar, davlatchiligidagi u yoki bu bosqichlari haqida ma'lum siyosiy maqsad yo'lida uydirilgan sohta, qarashlarga zarba berildi. Davlatchiligidagi tarixini haqqoniy yoritib berish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etdi. Bugungi kunga kelib qo'shni, qardosh respublikalar bilan har tomonlama ijobiy munosabatlar tiklanganligi, O'rta Osiyonining tarixiy madaniy vohalari va undu kechgan davlatchilik masalasida ham yangicha yondoshuvlar zarurligini ko'rsatmoqda.

¹⁸²Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.– Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 5.

¹⁸³ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ... – Б.12.

O‘zbek davlatchiligi tarixi uch yarim ming yildan ortiq tarixga ega. O‘rta Osiyoning qulay jug‘rofiy o‘rni, tabiatini, unumdon yerlari, ayniqsa bronza davriga kelib, sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilikning rivoji O‘rta Osiyoda davlatchilikning erta paydo bo‘lishiga sharoit yaratadi. SHahar va davlatchilik tizimining shakllanishi bir-biri bilan uzviy bog‘liq jarayondir. Davlatning paydo bo‘lishi uchun shahar siyosiy, iqtisodiy, diniy markaz sifatida zarur bo‘lsa, shaharning paydo bo‘lishi uchun davlat shart-sharoitlarni yaratgan. Sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik rivoji, aholining voha-voha bo‘lib joylashishi tizimini u bilan bog‘liq yirik aholi manzilgohlari (shaharlar)ning shakllanishiga olib keldi. O‘rta Osiyo yagona tarixiy-geografik hudud hisoblansada uning barcha hududlarida shaharlar va davlatlar har xil tabiiy sharoitlar va tashqi omillar ta’sirida bir vaqtida paydo bo‘lmagan.

O‘rta Osiyodagi ilk davlatlar Qadimgi SHarqdagi singari shahar davlatlar ko‘rinishida bo‘lgan. Ular biror-bir voha bilan chegaralanib, uning tarkibida markaz vazifasini o‘tovchi shahar va unga bo‘ysinuvchi 10 ga yaqin qishloq bo‘lgan. Davlatchiligidan «Katta Xorazm», Kushon, Qang‘ davlatlari tarixiga oid muammolar bugungi kun tarixchilari oldida turgan dolzarb vazifalar hisoblanadi.

O‘rta Osiyo tarixining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, bu erda qadimdan o‘troq dehqonlar bilan ko‘chmanchi chorvadorlar yonma-yon yashab kelishgan. Vohalarda o‘troq aholi istiqomat qilishgan bo‘lsa, vohalarni o‘rab turuvchi adirlarda, tog‘larda va cho‘llarda ko‘chmanchi – chorvador aholi yashagan. Ular o‘rtasidagi munosabatlar qanday kechganligini bilish muhimdir, zero busiz O‘rta Osiyo xalqlari tarixini, uning muammolarini to‘g‘ri hal qilib bo‘lmaydi. Ayrim tarixchilar o‘troq dehqonlar va ko‘chmanchi-chorvadorlar o‘rtasidagi munosabatlarni bir-birlari bilan doimiy urush holatida bo‘lgan halqlar o‘rtasidagi munosabatlar tarzida bo‘lgan deb baholaydilar. Ayniqsa ko‘chmanchi-chorvadorlar o‘troq aholi manzilgohlarini bosib, talon-taroj qilib, shuning hisobiga hayot kechiruvchi, o‘zлari mustaqil rivojlana olmaydigan xalq sifatida ta’riflanadi. Manbalar tahlilidan ko‘rinmoqdaki, bu kabi g‘oyalar ikki

xil xo‘jalik a’zolarining o‘zaoro munosabatlarini yaxshi bilmaslik natijasida sodir bo‘lgan.

Ustrushona chorvadorlarining Qang‘ konfederativ davlati davrida oddiy tarzda yuzaga chiqqan pog‘onali ulush tizimi oilaviy munosabatlar shakllanishiga ta’sir etib, katta-katta oila jamoalari paydo bo‘lishiga turki bo‘ldi. Qang‘arlar ana shunday idora usuli namunasini ulkan mamlakatni birgalikda idora etish usulini Ustrushonaga ham joriy etgan bo‘lishi tabiiy. Ustrushona ko‘chmanchilarining o‘ziga xos bo‘g‘inli jamiyati, kishilar guruhi o‘rtasida boshqariladigan bir xil asosli qarindoshchilik aloqalari kichik oilalardan katta patriarchal oilalarga, ulardan qabilalar tashkil topishini ta’minlagan.

O‘rta Osiyoning tub – avtoxon aholisi turkiy tilli elatlar Birinchi Turk xoqonligi davrida (552-603) nufuz jihatdan sharqiy eroniy tilli elatlardan ortib bordi. Bu davrda turkiylarning mintaqadagi o‘rni mustahkamlandi. Garchi mahalliy ma’muriy boshqaruv mahalliy va avtoxton turkiylar qo‘lida bo‘lsa-da, xoqonlik davrida “nom” tashuvchi qatlam “turk”lar butun O‘rta Osiyoda ilk o‘rta asrlar davri siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha sohalarida etakchilik qila boshladi. Ular asosiy siyosiy va harbiy kuch sifatida o‘lkani tashqi tajovuzlardan himoya qildilar va iqtisodiy taraqqiyot omili – savdo yo‘llari xavfsizligi kafolatlandi. Mahalliy mulklar o‘rtasidagi nizolar barham topib, siyosiy barqarorlikka erishildi. Elatlararo ahillik, diniy bag‘rikenglik – tolerantlik prinsipiga amal qilindi. Bularning barchasi asrlar davomida shakllangan turk-sug‘d simbiozi mahsuli edi. Ilk o‘rta asrlardagi Sug‘dning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida turkiylar nufuzini darjasini yozma va numizmatik materillar tasdiqlaydi.

O‘rganilgan moddiy manbalar va yozma manbalarga tayanib, Ustrushona hududida turkiy etnik qatlam aynan eramizdan avv.gi II-I asrlardan boshlab (Qovunchi madaniyati ibtidosidan) ustivor mavqega ega bo‘la boshlagani, turkiy etnosning yaqqol belgi va izlari Ustrushona mozorqo‘rg‘onlari manbalarida sezilarli tarzda ko‘zga tashlanib, yangi etnik guruhlarning mahalliy

aholi bilan aralashib ketishi natijasida Sirdaryoning o‘rta va quyi havzasi va unga qo‘sni mintaqalarda, xususan Ustrushonada sharqdan ko‘chmanchi qabilalarning, shimoldan sak-sarmat ko‘chma guruhlarining, janubda-dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelayotgan etnik guruhlarning chatishmasidan o‘ziga xos etnomadaniyat birikmalari yuzaga kelganligini ta’kidlash mumkin.

Shunday qilib, Ustrushonada o‘rganilgan yodgorliklar ashyolari antik va ilk o‘rta asrlarda ijtimoiy munosabatlar taraqqiy etganligini ko‘rsatadi. Ustrushonaliklarning jamiyat tuzilishi urug‘chilik an’analari asosida bo‘lgan. Jamiyatning negizi katta oilalardan iborat bo‘lib, katta oilalardan urug‘lar, urug‘lardan qabilalar tashkil topgan. Ya’ni ustrushonaliklarning o‘ziga xos bo‘g‘inli ichki boshqaruv tartibi - oila va qabilalardan iborat tuzilmalar, jamiyatni qabila oqsoqollari orqali boshqarishni shakllantirgan. Bu esa, asl ildizi turkiy boshqaruv an’analari bilan qorishib ketgan o‘zbek davlatchiligiga xos ayrim ijtimoiy-siyosiy munosabatlar shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йуқ. Тошкент, Шарқ, 1998.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент, Маънавият, 2008.
3. Мирзиёев Ш.М. “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг соғлигини асраш-давр талаби” мавзусидаги анжумандада сўзлаган нутқи. / Халқ сўзи. 2017 йил 16 июнь.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947- сонли Фармони “ Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси”. / Халқ сўзи. – 2017. 8 феврал.
5. Абдолниёзов Б., Исҳоқов М. Авеста ва қадимги чорвачилик. Тошкент, 2008.
6. Абаев В.И. Скифский быт и реформа Зороастра. Archiv Orientalni, XXIV, Ташкент, 1956, №1.
7. Абдуллаев К.А. Культ хаомы в древней центральной азии. Самарканд, 2009.
8. Абуов А.П. Деятельность Компартии Узбекистана духовно-политическому воспитанию студентской молодёжи : опыт и проблемы (1976-1986) Автореф. Дисс. канд. Ист. Наук. Ташкент, 1990.
9. Анарбоев А.А. Жилище раннесредневекового Ахсиканта // ИМКУ. –№34. Самарканд, 2004.
10. Аскarov А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. Самарканд, 1993.
11. Асқаров А. А. Ўзбекистон халқлари тарихи. 1- қисм. Тошкент, “Фан”, 1992.
12. Асқаров А.А. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 1994.
13. Асқаров А.А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Тошкент, ”Университет”, 2007.

14. Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. Тошкент, «O’zbekiston» 2015.
15. Байпаков К.М., Подушкина А.Н Памятники землиделческо Скотоводчески культуры Южного Казахстана. Алма-Ата, Наука, 1984.
16. Бойназаров Ф.Б. Ўрта Осиёнинг антик даври. Тошкент, 1991.
17. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Соч. - М., 1963.
18. Беленицкий А.М. О «Рабовладельческой формации» в истории Средней Азии. – Проблемы археологии Средней Азии. – Л., 1968.
19. Бернштам. А.Н. Археологические работы в Семиречье. КСИИМК. Вып. IV. Государственного Эрмитажа. Вып. II. Л., 1940.
20. Брагинский И.С. К вопросу о периодизации истории народов Средней Азии и Казахстана в досоветскую эпоху. – Ташкент, 1942.,
21. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. Т., 1982. 1-С.221.
22. Брыкина Г.А. Юго западная Фергана в первой половине 1-тысячелетия нашей эры. – М.: Наука, 1982.
23. Брыкина Г.А. Археологические памятники Баткена и Ляйляка (Юго-Западная Киргизия). Фрунзе, 1962.
24. Варга Е.С. Очерки по проблемам политэкономии капитализма. – М., 1965.
25. Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций.// Алма-Ата: Наука, 1989.
26. Гафуров Б. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. – М., 1972.
27. Геродот. История в девяти книгах. Книга четвертая. М., 1985.
28. Грицина А. А., Сверчков Л. М. Археологические исследования в Сырдарыинской области. // ИМКУ Вып. 23. Ташкент, 1990.
29. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. Тошкент, 2007.

30. Дьяконов И. М., Якобсон В. А. «Номовые государства», «территориальные царства», «полисы», «империи». Проблемы типологии. // ВДИ. 1982. №2.
31. Дьяконов И. М. Община на Древнем Востоке в работах советских исследователей. // ВДИ, 1963. №1.
32. Дьяконов И.М. Восточный Иран до Кира (К возможности новых пастановок вопросов). – История иранского государства и культуры. – М., 1971.
33. Зеймаль Е.В. К периодизации древней истории Средней Азии. В кн.: Новые памятники письменности и искусства. – М., 1986., Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард (Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С. Камолиддин). Тошент: ”Узбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011. –Б: 68.
34. Истахри (Абу Исхак Ибрагим ибн Мухаммад). Китаб масалик ал-мамалик . // Материалы по истории киргизов и Киргизии. - М. 1973.Вып.1
35. История, археология и этнография Средней Азии. – М., 1968.
36. Исхоков А. Саразм. – Душанбе, 1991.
37. Исҳоқов М. Авестода чорва ва чорвадорлар // Ўзбекистон худудида дехқончилик маданиятининг тарихий илдизлари ва замонавий жараёнлар.Т.: 2006. –Б. 44.
38. Итина М.А. История степных племен южного приаралья. –М.: Наука, 1977
39. Исхоков М. “Авесто”. Яшт китоби. Тошкент 2001.
40. Качановский Ю.В. Рабовладение, феодализм или азиатский способ производства? – М., 1971.
41. Квинт Курций РуФ. История Александра Македонского // История Узбекистана в источниках. Составитель Б.В.Лунин.Т.: Фан,1984.- С.125.
42. Кененсариев Т. Истоки взаимодействия кочевых и оседлых традиций Ферганской долины и историческая перспектива // Ош и

Фергана в исторической перспективе. Вып. 3. – Бишкек: Изд. «Мурас», 2000.

43. Комсомольская правда, 1984, 10- февраля; Совет Ўзбекистони, 1984, 18- февраль.
44. Кошеленко Г.А. Заключение. Средняя Азия в античную эпоху. // Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. – М., 1985.
45. Кшибехов Л. Кочевое общество: генезис, развитие, упадок.— Алматы Наука, 1984
46. Кузьмина Е.Е. Откуда пришли индоарии? Материальная культура племен Андроновских общности и происхождения индоиранцев.— М.: 1994.
47. Лашук Л.П.Исторический структура социальных организмов средневековых кочевников // СЭ –М.: 1967.–№4.
48. Литвинский Б.А. Древние кочевники «Крыши мира». М. 1972.
49. Литвинский Б.А. Джунский могильник и некоторые аспекты кангюйской проблемы. // СА. 1967. №2.
50. Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Akademiya, 2008.
51. Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии // Тексты и исследования,- Новосибирск,1983.
52. Мандельштам А.М. Памятники кочевников кушанского времени в Северной Бактрии. – Л.: 1975.
53. Массон И.Е. По поводу работы П.П.Иванова // К. истории развития горного промысла в Средней Азии.-М.-Л ,1932.
54. Массон В.М. К вопросу об общественном строем древней Средней Азии. – В кн.: история, археология и этнография Средней Азии. – М., 1968.
55. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы // МИА, 1959. - № 73.
56. Массон В.М. Становление раннеклассового общества на Древнем Востоке. // Вопросы истории. 1967. №5

57. Массон В.М. Кочевнические компоненты кушанского археологического комплекса // Проблемы античной культуры. – М.: 1986.
58. Махкам А., Авесто Тарихий – адабий ёдгорлик. Тошкент, 2001.
59. Моисеев В.А. К вопросу о государстве у казахов накануне и в начальный период присоединения Казахстана и России // Восток, N4, 1995 25-26с.
60. Мұхамедов Ҳ. Қадимги мудофаа деворлари. – Т.: 1961.
61. Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Усрушаны с древнейших времен по X в.нэ. М. 1953.
62. Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-сүғд муносабатлари. Т. 2011.
63. Павленко Ю.В. Раннеклассовые общества. Генезис и пути развития. - Киев, 1989. – С.57.
64. Пардаев М.Х., Фофуров Ж.И. Уструшонанинг ilk ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). Тошкент, 2016.
65. Пардаев А.Х. Жиззах беклиги – Ўрта Осиё хонликлари даврида (XVI-асрдан XIX-асрнинг 60- йилларигача). автореф... т.ф.н. – Ташкент: 2004.
66. Плетнева С.А. От кочевой к городом // Материалы исследования по археологии СССР. – М.: 1967.–№ 142.
67. Першиц А.И. К вопросу о социальных отношениях у кочевников // Основные проблемы африкастики: Этнография. История. Филология. - М.: Наука, 1973. Руденко С.И. К вопросу о формах скотоводческого хозяйства и о кочевниках // Географическое общество СССР. Доклады отделению этнографии. М.: 1967. N8,
68. Струве В.В. Понятие «азиатский способ производства». // Народы Азии и Африки. 1965. №1.
69. Стеблин – Каменский «Авесто» Душанбе 1989

70. Сверчков Л.М. Поселение Мык - источник по истории средневековой Уструшаны: Автореф.дисс. ...канд.ист.наук.- Самарканд,1991.
71. Смирнов К.Ф. Е.Е.Кузьмина. Происхождения индоиранцев в свете новейших археологических открытий. – М.: 1977.
72. Толстов С. П. Генезис феодализма в кочевых скотоводческих обществах. // ИГАИМК.Вып. 103. 1934.
73. Толстов С. П. Основные вопросы дреней истории Средней Азии. // ВДИ.1938. №1.
74. Толстов С. П. Периодизация древней истории Средней Азии. // КСИИМК.Вып.28. М. – Л., 1949. С.13-14.
75. Толстов С. П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1949-1953 г. // ТХАЭЭ.Т.2. – М ., 1958.
76. Хлопин И.Н. Юго-Западная Туркмения в эпоху поздней бронзы. – Л., 1983.
77. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. Фар-она, 2013.
78. Шайдуллаев Ш. Илк давлатларнинг археологик белгилари. Узбекистон тарихи. 2002й. № 3, 3-10 бетлар.
79. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Тошкент: Шарқ, 2001. Шониёзов К.Ш. Қанғ давлати ва қанғлилар. Т. 1990.
80. Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи.Т.,”Маърифат”. 2009.
81. Қудратов С.С. Ўрта Осиё илк шаҳарлари ва давлатлари (ўкув қўлланма). Гулистон, 2007.
82. Қудратов С. С. Марказий Осиё ҳудудида илк давлатларнинг пайдо бўлиши. – Гулистон, 1998.
83. Қадимий Зомин (тарих, археология, нумизматика, этнография). Тошкент, 2018.
84. Юстин. Эпитома Помпей Трога,// Вестник древней истории, 1954. № 2.

85. Rapin C. Nomads and the Shaping of Central Asia: from the Early Iron Age to the Kushan period // Proceedings of the British Academy-133. After Alexander Central Asia before Islam, 2007, 52 fig. 9, s

86. Mitchiner M. Indo-Greek and Indo-Scythian coinage. Vol. 6. London, 1976. P.100, № 87

MUNDARIJA

KIRISH..... 3-6

I BOB O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI ILK DAVLAT UYUSHMALARINING TASHKIL TOPISHI

- 1.1. Mamlakatimiz hududida davlatchilikka o'tishdagi tarixiy shart sharoitlar va uning Ustrushonaga xos xususiyatiari.....
- 1.2. Yurtimizda kechgan davlatchilik masalasida sobiq sho'rolar davridagi yondoshuv va siyosiy jarayonlar tarixining yozma manbalarda yoritilishi.....
- 1.3. Mamlakatimiz hududida tashkil topgan ilk davlat uyushmalarida boshqaruv tizimi va ijtimoiy munosabatlar.....

II BOB II BOB ANTIK VA ILK O'RTA ASRLARDA USTRUSHONADA KECHGAN SIYOSIY JARAYONLAR

- 2.1. Ustrushonada antik davrda kechgan siyosiy jarayonlar.....
 - 2.2. Ustrushonaning ilk o'rta asrlar (kidariylar, xioniyalar, eftaliylar va turk hoqonligi)dagi siyosiy hayoti.....
 - 2.3. Ustrushonaning arablar tomonidan zabit etilishi va bu davrdagi siyosiy hayot.....
 - 2.4. Ustrushonaning siyosiy va ijtimoiy hayoti yozma manbalar talqinida.....
 - 2.5. Ustrushonadagi davlatchilikning shakllanishida o'troq dehqon va ko'chmanchi chorvador aholi munosabatlarining o'rni.....
- Xulosa.....
- Foydalanilgan adabiyotlar.....

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	3-6
ГЛАВА I ОБРАЗОВАНИЕ ПЕРВЫХ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СОЮЗОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	
1.1. Исторические условия перехода к государственности на территории нашей страны и его особенности в примере Уструшаны	
1.2. Написание в источниках о взглядах постсоветском пространстве о переходе к государственности в нашей стране и политических процессов	
1.3. Система управления и социальные отношения в первых государственных союзах созданных в нашей стране	
ГЛАВА II ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ В АНТИЧНОСТИ И СРЕДНИЕ ВЕКА В УСТРУШАНЕ	
2.1. Политические процессы античности в Уструшане	
2.2. Политическая жизнь Уструшаны в раннем средневековье (кидарицы, хиониты, эфталиты и тюркский каганат)	
2,3. Завоевание Уструшаны арабами и политическая жизнь.....	
2,4. Политическая и общественная жизнь Уструшаны в письменных источниках	
2.5. Роль отношений в формировании государственности в Уструшане между земледельцами и кочевыми скотоводами	
Заключения	
Список литератур	

